

Men uyga dala bilan qaytdim. Yozning qoq o'rtasi edi. O't o'rilib olingan va qora bug'doyni o'rishga endigina harakat qilinmoqda edi.

Yilning bu paytida rang-barang chiroyli gullar - qizil, oq, pushti, xushbo'y, momikli chinnigullar, sut singari oq, o'rtasi och-sariq, yoqimli hid sochuvchi "muhabbat gullari", bol hidli sariq gulira'nolar, gunafsha rangli va oq lolaga o'xshash qomatdor karnaygullar, chirmashib o'suvchi no'xatgullar, sariq, qizil, pushti skabiazlar, gunafsha rangli, och pushti jig'alik va sezilar-sezilmas yoqimli hid beruvchi otquloq gullar, quyoshda va yosh niholligida tiniq ko'k, kechqurunlari hamda qarigan vaqtda ko'kimtir va qizg'imtir bo'lib tovlanuvchi va latif, bodom hidli, guli darrov so'lib qoladigan chirmovgullar ko'p bo'ladi. Men turli-tuman gullardan kattakon guldasta yasab, uyimga qarab ketayotganimda zovur ichidagi ajoyib qizg'ish rangli, chaman-chaman ochilgan, bizda qushqo'nmas deb ataluvchi, chalg'ichilar uni chopmasdan qoldirib o'tadigan, mabodo qo'qqisdan chopilib ketgan bo'lsa, qo'lga kirmasin uchun o't ichidan olib tashlanadigan tikanakka ko'zim tushdi. Men bu tikanakni yulib olib guldastamning o'rtasiga qo'ymoqchi bo'ldim. Zovurga tushdim-da, gulning o'rtasiga yopishib olib, qattiq uyqiga kirgan tukdor arini haydab, uni uzishga tutindim. Ammo bu ish juda qiyin bo'ldi, gulning tikanaklari har tarafdin, hatto qo'limga o'rab olgan ro'moldan ham o'tib, nayzadek sanchilardi, bugina emas, - u shu qadar chayir ediki, men uning dastasini titib, iplarini birma-bir uzish uchun besh minutchka ovora bo'ldim. Nihoyat gulni uzib olgan paytimda uning poyasi tamom titilib to'zg'igan edi, gulning o'zi ilgarigidek go'zal ko'rinmasdi. Bundan tashqari, u, o'zining dag'alligi va beo'xshovligi bilan guldastaning nozik gullariga qovushmas edi. Men, o'z tupida yashnab turgan gulni uzib behudaga juvonmarg qilganim uchun o'kindim, keyin uni yerga tashladim. "Ajabo, hayotning naqadar g'ayrat va kuchi bor,- deya men gulni uzayotganimdagi chekkan ma-shaqqatimni xotirladim,- u o'z hayotini juda zo'r kuch bilan himoya qildi va osonlikcha jon bermadi".

Uyga olib boradigan yo'l shudgor qilinib, yangigina haydalgan qora tuproqli daladan o'tar edi. Mana shu qora tuproqli chang yo'ldan borardim. Haydalgan dala pomeschchik yeri bo'lib, shu qadar katta ediki, har ikki tarafda va tepalikka cho'zilgan old tomonda qora tep-tekis qilib haydalgan, hali mola bosilmagan shudgordan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi. Yer yaxshi haydalgan, dalaning hech bir yerida bironta giyoh ko'rinmas, hammayoq qop-qora edi. Men, beixtiyor bu o'lik, qora dala o'rtasidan biror jon asarini axtararkanman: "Odam - qanday yemiruvchi maxluq, o'z hayotini saqlash uchun qanchadan-qancha rang-barang tirik mavjudotlarni, o'simliklarni mahv etgan",- deb o'yladim. Oldimda, yo'lning o'ng tarafida allaqanday bir buta ko'rindi. Men, yaqinroq kelib qarasam, u haligi men gulini uzib tashlaganim "qushqo'nmas" navidan ekan.

Butaning uchta novdasi bor edi. Uning bittasi sindirib olingan va qolgani xuddi chopib tashlangan qo'l singari cho'ltoq edi. Qolgan ikki shoxning har birida bittadan gul bor. Shoxning bir bandi singan va uning yarmisi, iflos guli bilan pastga osilib, boshqa biri garchi loyga belangan bo'lsa-da, hamon yuqoriga qarab dikkayib turardi. Butun butani g'ildirak bosib o'tganligi, so'ng yana ko'tarilganligi ma'lum edi, xuddi uning tanasidan bir parchasini yulib olganlar, ichak-chovog'ini ag'darib tashlaganlar, qo'lini sug'urib, ko'zlarini o'yib olganlar, lekin u hamon qaddini ko'tarib turar va atrofidagi barcha birodarlarini mahv etgan insonga taslim bo'lmas edi.

"Naqadar zo'r quvvat!ВѢ”deya o'yladim men,- inson hammasini yengibdi, millionlarcha o't-o'lanlarni mahv etibdi, bu esa hamon taslim bo'lmaydi".

Shundan keyin, bundan ancha ilgari bo'lib o'tgan bir Kavkaz tarixi yodimga tushdi. Bu voqeaning bir qismnni o'zim ko'rganman, bir qismini esa tasavvur qildim. Mening xotiramda va tasavvurimda tartibga kelgan bu voqea mana bunday edi.

I

Bu 1851 yilning oxirlarida yuz bergan edi.

Noyabrning sovuq bir oqshomida, ruslarga qarashli yerlardan yigirma chaqirimcha uzoqlikdagi, chechenlarning tezak tutuniga ko'milib yotgan notinch Maxket ovuliga Hojimurod kirib keldi.

So'fining o'tkir tovushi endigina tingan va tezak hidi singib ketgan tog' havosida, bir-birovi bilan tortishayotgan erkaklarning shovqinlari, pastdagi buloqdan chiqayotgan xotin-xalaj va bolalarning ovozlari, ovulning tig'iz, xuddi ari uyasi singari bir-biriga yopishib ketgan uylariga taralayotgan sigir va qo'ylarning ma'rashlari baralla eshitilmoqda edi.

Hojimurod, o'z qahramonliklari bilan dong chiqargan, biror yoqqa borganida tug' ko'targan, atrofida ot o'ynatib, uni kuzatib boruvchi o'nlab muridlarsiz yurmaydigan Shomilning noibi edi. Hozir u, ostidan miltiq turtib chiqib turgan kigiz chakmonga o'ralgan, quloqchinini bostirib kiygan holda, mumkin qadar o'zini tanitmaslikka tirishib, yo'lda uchragan ovul ahllarining yuzlariga o'ynoqi qora ko'zlari bilan yashirin nazar tashlab, bittagina muridi bilan bormoqda edi.

Hojimurod ovulning o'rtasiga kelgach, guzarga chiqadigan yo'l bilan ketmasdan, chapga - tor ko'chaga burildi. U, tepalikdagi ikkinchi uyning oldiga kelgach, atrofiga qaranib to'xtadi. Uy oldidagi bostirmada hech kim yo'q, tomda esa yaqindagina suvalgan mo'riining orqasida po'stinga o'ralgan bir kishi yotar edi. Hojimurod u kishini qamchisining sopi bilan turti va qattiq yo'taldi. Po'stin ostidan boshida tungi qalpoq, ustida yag'iri chiqib ketgan eski nimcha kiygan bir chol ko'tarildi. Cholning kipriksiz ko'zlari qizil va namli edi, u yopishqoq ko'zlarini ochmoqchi bo'lib pirillatdi. Hojimurod odatdagi salom alaykumni aytgach, yuzini ochdi. Chol Hojimurodni tanib, tishsiz og'zini ochib iljaygach:

- Vaalaykum assalom,- dedi, so'ng o'zining qaltiragan oriq oyoqlarini yig'ib o'rnidan turdi-da, mo'ri yonidagi yog'och poshnali kavushini kiya boshladi, kiyib bo'lgach, shoshilmasdan tushib, taqiri chiqib qolgan po'stinining yenglarini kiydi. So'ng tomga qo'yilgan narvondan orqasi bilan yurib tusha boshladi. Chol pastga tushar ekan, ingichka, tirishib ketgan, oftobda kuygan bo'yni bilan boshini chayqar va tishsiz og'zi bilan hech to'xtovsiz g'o'ng'illar edi. U yerga tushgach, mehmondo'stlik ko'rsatib, Hojimurodning oti jilovi va o'ng uzangisidan ushladi, ammo otidan chaqqon tushgan Hojimurodning baquvvat va chapdast muridi cholni chekkaga surib, o'rni o'zi egalladi.

Hojimurod otidan tushdi va sal oqsab bostirmaga kirdi. Uning qarshisiga eshikdan o'n besh yoshlarda bo'lgan bir bola yugurib chiqdi va xuddi pishib turgan qarag'at singari qora, yaltiroq ko'zlarini taajjub bilan keluvchilarga tikdi.

- Chop, machitga borib otangni chaqirib kel,- deb chol bolaga buyurdi, so'ng, Hojimurodning oldiga tushib, unga uyning yengil, g'ijillab ovoz chiqargan eshigini ochdi, Hojimurod ichkariga kirgan vaqtda ichkarigi eshikdan qo'lida yostiq bilan sariq ko'ylak ustidan qizil kamzul kiygan, ko'k ishtonli, yoshi o'tibroq qolgan ingichka, ozg'in bir xotin chiqdi.

- Qadaming qutlug' bo'lsin,- dedi u ikki bukilib mehmonning yon-atrofiga yostiq qo'yarkan.

- Ilohim o'g'illaring omon bo'lsinlar,- dedi Hojimurod chakmonini yechib, miltiq va quloqchinini olib, ularni cholga berayotib.

Chol miltiq va quloqchinni ohistalik bilan uy egasining qurollari yonidagi qoziqqa, tekis suvalib oqlangan devorda yarqirab turgan

ikkita katta jom o'rtasiga osib qo'ydi. Hojimurod to'pponchasini to'g'rilab qo'yib, yostiq yoniga keldi va cherkaskasini qoqib, yostiqqa suyaldi. Chol uning yoniga cho'kkaladi, ko'zlarini yumdi, qo'llarini yuqori ko'tardi. Hojimurod ham shunday qildi. So'ng fотиha o'qib bo'lishgach, har ikkalasi ham qo'llarini yuzlariga surtishdi.

- Nima xabar bor?- Hojimurod choldan so'radi.

- Hech qanday xabar yo'q,- chol o'zining qizil, nursiz ko'zlari bilan Hojimurodning yuziga emas, balki ko'kragiga qarab turib javob berdi.- Men asalari bog'chasida turaman, faqat shu bugun o'g'limni ko'ray deb keldim. Biror yangi gap bo'lsa, u biladi.

Hojimurod, chol bilganlarini va unga tegishli bo'lgan gaplarni gapirishni istamaganini angladi-da, boshini sal qimirlatib qo'ydi va ortiq hech narsa so'ramadi.

- Hech qanaqa hushxabar yo'q,- chol gap boshladi. Yangilik faqat shuki, barcha quyonlar, burgutlarni qanday qilib haydash to'g'risida kengashmoqdalar. Burgutlar esa goh unisini, goh bunisini titkilamoqda. O'tgan hafta beting qurg'ur rus itlari michitliklarning pichaniga o't qo'ydilar,- chol g'azab bilan xirilladi.

Qatta-katta ohista qadam bosib, Hojimurodning muridi kirdi va xuddi murshidi singari u ham chakmonini yechdi, o'zida faqat xanjar bilan to'pponchasinigina qoldirib, miltiq va qilichini ustidan oldi, so'ng ularni olib borib, Hojimurodning qurollari turgan qoziqqa ildi.

- Bu kim bo'ladi?- chol kiruvchini ko'rsatib, Hojimuroddan so'radi.

- Muridim Eldor,- dedi Hojimurod.

- Ko'p yaxshi, dedi chol va Eldorga Hojimurodning yonidan - kigizdan joy ko'rsatdi.

Eldor chordana qurib o'tirdi va jim holda o'zining chiroyli qo'y ko'zlarini gapirayotgan cholning yuzlariga tikdi. Chol, o'tgan hafta ularning yigitlari ikki soldatni tutib olganliklarini, birini o'ldirib, ikkinchisini Vedenoga - Shomilning oldiga yuborganliklarini so'zlab bermoqda edi. Hojimurod eshikka qarab-qarab qo'yib va tashqaridan eshitilayotgan ovozlarga quloq solib, cholning so'zini parishon holda tinglamoqda edi. Uy oldidagi bostirmaning ostidan oyoq tovushlari eshitildi, eshik g'iyjillab ochilib, uy sohibi ichkari kirdi.

U Sado bo'lib, qirq yoshlar chamasida, siyrak soqolli, uzun burun, uni chaqirib kelish uchun machitga chopib borgan va otasi bilan birga uyga kirib, eshikning yonida o'tirgan o'n besh yashar o'g'lining ko'zlari singari garchi u qadar yaltiroq bo'lmasa-da, qora ko'zli bir kishi edi. Uy egasi, eshik oldiga yog'och kavushini yechdi va ko'pdan beri olinmay, o'sib ketgan qora sochli boshidagi eski, qirilib ketgan papag'ini yelkasiga surib qo'ydi-da, shu zamoniyog Hojimurodning qarshisiga cho'kka tushib o'tirib oldi.

Chol singari u ham ko'zlarini yumdi, qo'llarini ko'tarib fотиha o'qidi, shundan keyingina gapira boshladi. U, Shomildan Hojimurodni o'lik yo tirik holda qo'lga tushirish haqida buyruq bo'lganini, Shomilning elchilari kechagina ketganlarini va xalq Shomilning buyrug'iga quloq solmaslikdan qo'rqishini, shuning uchun ham ehtiyot bo'lish kerakligini so'zlardi.

- Hali men tirik ekanman,БЪ”dedi Sado,- uyimdagi mehmonimga hech kim hech narsa qilolmaydi. Lekin tashqarida qanday bo'ladi? Buni o'ylab ko'rish kerak.

Hojimurod diqqat bilan tingladi va ma'qullab boshini qimirlatib qo'ydi, so'ngra Sado so'zini tugatgach:

- Yaxshi. Hozir ruslarga maktub bilan bir kishini yuborish lozim. Muridimni jo'nataman, faqat uni boshlab olib boruvchi kishi kerak,- dedi.

- Ukam Bota boradi,- dedi Sado va o'g'liga qarab,- Botani chaqir,БЪ”dedi.

Bola xuddi prujinaday irg'ib turdi va qo'llarini chayqatganicha uydан tez chiqib ketdi. U, o'n minutlardan keyin, o'tobda qop-qora bo'lib kuyib ketgan, qotma, kalta oyoq, ustiga titilib bitgan, yenglari yirtilgan jiyakli sariq cherkaska va sidirilib tushib ketgan qora nogovitsi kiygan bir chechen bilan birga qaytib keldi. Hojimurod yangi kelgan kishi bilan ko'rishdi va shoshqich:

- Mening muridimni ruslarning huzuriga olib borolmaysanmi?- dedi.

- Bo'ladi,- Bota xushchaqchaqlik bilan javob berdi,- Hammasi ham bo'ladi. Mendan boshqa birorta chechen ham u yoqqa o'tolmaydi. Mabodo o'tadigani topilsa, va'dani katta qiladi-yu, ammo hech ish chiqarolmaydi. Men esa ish chiqara olaman.

- Xo'p,- dedi Hojimurod va uch bormog'ini ko'rsatib turib,- xizimating uchun uchni olasan.

Bota anglaganligining ishorasi qilib, bosh irg'adi, ammo uning uchun pul qiymatli emas, balki u sharaf yuzasidan Hojimurodga xizmat qilishini pisanda qilib qo'ydi. Hojimurod rus to'ng'izlarining qanday qilib ta'zirini berganini tog'dagilarning hammasi biladi.

- Yaxshi,- dedi Hojimurod.- Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi.

- Argun buriladigan joyda, tik jarning qarshisida, o'rmon ichidagi yalanglikda ikki g'aram bor. Bilasanmi?

- Bilaman.

- U yerda uch nafar otliq yigitlarim meni kutib turishibdi,- dedi Hojimurod.

- Xo'sh,- dedi Bota bosh qimirlatib.

- Xon-Magomani so'raysan. Xon-Magoma nima qilishini va nima gapirishini biladi. Uni ruslarning boshlig'i knyaz' Voronsovning huzuriga olib borish lozim. Olib borolasanmi?

- Olib borolaman.

- Olib borib, yana qaytib olib kelish lozim. Uddasidan chiqa olasanmi?

- Albatta chiqaman.

- So'ng o'rmonga qaytib kelasan-a! Men ham o'sha yerda bo'laman.

- Hammasini bajo keltiraman,- dedi Bota,- so'ng o'rnidan turdi va ta'zim qilib uydan chiqib ketdi.

- Yana bir kishini Gexiga yuborish lozim.- Hojimurod Bota chiqib ketgach; uy egasiga aytdi.- Gexida mana nima qilish kerak,- u cherkaskasining gozirlaridan birini ushlab turib, gap boshlagan edi, ammo uyga kirib kelgan ikki xotinni ko'rib, shu zamoniyog qo'lini pastga tushirdi-da, jim bo'lib qoldi.

Ulardan biri Sadoning xotini, bu - o'sha yoshi o'tib qolgan, ozg'in, mehmonlarga yostiq keltirib qo'ygan ayol edi. Boshqa biri qizil ishton va zangori kamzul kiygan, ko'kragi bilan bitta kumush tanga jevak taqib olgan yoshgina bir qiz edi. Uning ozg'in yelkalari orasida yotgan, uncha uzun bo'lmagan, ammo yo'g'on, qattiq qora haydarining ustiga bir so'mlik kumush tanga taqilgan edi; xuddi otasi va ukasiniki singari, qorag'atday ko'zlari - jiddiy bo'lishga uringan yosh chehrasida jonsarak yaltirardi. U mehmonlardan iymānib ularga tik qaramasdi.

Sadoning xotini dumaloq xontaxta keltirdi, uning ustida choy, chalpак, qatlama, pishloq, churak va bol bor edi. Qiz esa tosqumg'on va sochiq olib kirdi.

Sado bilan Hojimurod,- har ikkalasi ham to ayollar o'zlarining qizil, yumshoq, o'kchasiz chuvaklari bilan ohista yurishib, keltirilgan narsalarni mehmonlar oldiga joylashtirib qo'yganlariga qadar, jim o'tirdilar. Eldor bo'lsa ayollar to uydan chiqib

ketgunlaricha, o'zining qo'y ko'zlarini chalishtirgan oyoqlariga tikkancha xuddi haykal kabi, qimirlamadi. Faqat ayollar eshikka chiqib ketgan va eshik orqasida ularning yumshoq qadam tovushlari tamoman tovsilgachgina, Eldor yengillanib nafas oldi, Hojimurod esa cherkaskasining goziridan bir o'qni sug'urib, uning ostidan naycha qilinib o'rab qo'yilgan bir xat chiqardi-da, Sadoga uzatdi.

- O'g'lingga ber,- dedi u xatni uzatib.

- Javobini qayerga yetkazamiz?- Sado so'radi.

- Senga bersinlar, sen menga yetkazasan.

- Xo'p, bo'ladi,- dedi Sado va xatni o'z cherkaskasining gizoriga joylab qo'ydi. Keyin qumg'onni qo'lga olib, to'sni Hojimurodning oldiga surdi. Hojimurod kamzulining yenglarini muskuldor bilaklarigacha surdi-da, qo'llarini Sado quyayotgan qumg'ondan oqib turgan muzday shaffof suvga tutdi. Hojimurod toza sochiqqa artgach, taomga yaqin siljidi. Eldor ham shunday qildi. Mehmonlar ovqat yeyish bilan mashg'ul ekanlar, Sado mehmonlarning qarshisida o'tirib olib, bir necha bor ularning kelganlaridan minnatdor ekanligini aytdi. Poygakdagi bola yaltiroq qora ko'zlarini Hojimuroddan olmay, xuddi o'z tabassumi bilan otasining so'zlarini ma'qullaganday iljayar edi.

Hojimurod bir kecha va bir kunduzdan ortiq tuz totmaganiga qaramay, jindakkina non bilan pishloq yedi va xanjarining ostidan pichoqchasini chiqarib, boldan olib nonga surtdi.

- Bizning bolimiz yaxshi. Boshqa yillarga qaraganda bu yil bol ham mo'l, ham yaxshi bo'ldi,- dedi chol, aftidan, Hojimurod asaldan totingani uchun xursand bo'lib.

- Rahmat,- dedi Hojimurod va taomdan chetga surildi. Eldor yana yemoqchi edi, ammo u ham o'zining murshidi singari dasturxondan uzoqladi va Hojimurodga tosqumg'on tutdi.

Sado Hojimurodni uyiga kiritib, o'z hayotini xavf ostida qoldirganini tushunardi, negaki Shomilning Hojimurod bilan bo'lgan janjalidan so'ng, butun chechen aholisiga Hojimurodni qabul qilmaslik, kimki qabul qilsa, qattiq jazolanishi bildirilgan edi.

Hojimurod uning uyidaligidan ovul kishilari har bir soniyada xabar topishi va Hojimurodni tutib berishni talab qilishlari mumkinligini bilardi. Lekin bu narsa Sadoni tashvishga solmas, balki quvontirar edi. Sado o'z jonini fido qilib bo'lsa-da, mehmonini himoya etishni o'z burchi deb hisoblar va bu ishidan xursand bo'libgina qolmay, faxrlanar edi ham. U Hojimurodga qarab:

- Hali hozir sen uyimda ekansan va boshim omon ekan, hech kim senga hech narsa qilolmaydi,- deya takrorladi.

Hojimurod uning yarqiroq ko'zlariga qaradi va gaplarining rost ekanini anglab uni tantanavor duo qildi.

- Ilohim umring uzoq, baxting musharraf bo'lsin.

Sado, bu yaxshi tilak uchun minnatdor bo'lib qo'llarini ko'ksiga qo'ydi.

Sado, uying darpardalarini yopib va pechka uchun shox tayyorlab qo'yib, g'oyat shod va ko'tarinki bir kayfiyatda mehmonxonadan chiqdi-da, butun oilasi yashaydigan xonaga kirib ketdi. Ayollar hali uxlashmagan edi. Ular mehmonxonada tunamoqchi bo'lgan xavfli qo'noqlar haqida so'zlashmoqda edilar.

II

Xuddi shu kechaning o'zida, Hojimurod yotgan ovuldan yigirma chaqirimcha uzoqlikda, oldingi Vozdvijenskiy krepostidan, Chahgirin darvozasining orqasidagi istehkomdan unter-ofitser bilan birgalikda uch soldat chiqdi. Ular, o'sha vaqtlarda Kavkaz soldatlari yuradigan kiyimlarda: kalta po'stin va papax kiygan, shinellarini o'rab, yelkalariga osishgan va qo'nji tizzadan yuqori bo'lgan katta etiklarda edilar. Soldatlar multiqalarini yelkalariga osib olganlaricha avvalo yo'ldan bordilar, so'ng besh yuz qadamcha bosishgach, burildilar-da, etiklari bilan qurigan yaproqlarni shitirlatib o'ng tarafga qarab yigirma qadamcha yurdilar va singan, qora tanasi qorong'ida ham ko'rinib turgan chinorning yonida to'xtadilar. Chinorning odatda tagiga maxfiy qorovullar yuborilar edi.

Soldatlar kelayotgan vaqtda, daraxtlarning tepasida xuddi chopqillab borayotganday bo'lib ko'ringan yorug' yulduzlar endi butoqlar orasida yaltirashib to'xtadilar.

- Balli, qoqlanibmiz,- dedi unter-ofitser Panov, so'ng uzun nayzali miltig'ini yelkasidan olib, taraqlatib daraxtga suyab qo'ydi. Uch soldat ham shunday qildi.

- Chinakam yo'qotib qo'ydimmi-a,- Panov jahl bilan g'o'ng'illadi.- Yo unutib qoldirganmanmi, yo yo'lda tushib qolgan.

- Nimani axtaryapsan axir?- soldatlardan biri tetik, xursand ovoz bilan so'radi.

- Trubkani, bilmadim, sabil qayoqqa yo'qoldi ekan.

- Ha, nay butunmi?- tetik ovoz so'radi.

- Nay mana.

- To'g'ri yerni o'yib chekavermaysizmi?

- Be, bo'lmagan gap.

- E, birpasda to'g'rilaymiz.

Maxfiy postlarda chekish man qilingan, ammo bu yer deyarli maxfiy post emas, balki aniqrog'i, tog'liklar ilgari qilganlari singari, bildirmasdan to'plarini keltirib istehkomga qarab o'q otmasin uchun qorovullar yuboriladigan oldingi post edi, shuning uchun ham Panov o'zini chekishdan mahrum qilishni istamadi-da, xushchaqchaq soldatning taklifiga qo'shildi. Xushchaqchaq soldat cho'ntagidan pichoq olib yerni o'ya boshladi. U chuqurchani kavlab bo'lib, unga nayni joylashtirdi, chuqurchaga so'ng tamaki soldi, tamakini pastga bosib qo'ydi,- trubka tayyor bo'ldi. Mukkasidan tushib yotgan, bet suyagi irg'ib chiqqan soldatning basharasini bir lahza yorug'lantirib, oltingugurt yondi. Naydan vishillab ovoz chiqdi, Panov yongan tamakining yoqimli hidini sezdi.

- To'g'riladingmi?- dedi u oyoqqa turib.

- Bo'lmasa-chi.

- Qandingni ur, Avdeev, ixtirochi. Qani?

Avdeev Panovga joy berdi-da, og'zidan tutun chiqara turib, yonboshiga ag'darildi.

Panov muk tushdi va nayni yengi bilan artib, cheka boshladi.

Chekib bo'lishgach, soldatlar orasida suhbat boshlanib ketdi.

- Rota komandiri yana yashikka qo'l suqqan emish, deb aytishyapti, aftidan, yutqizib qo'yganga o'xshaydi,- dedi soldatlarning biri

yoqimsiz ovoz bilan.

- Qaytarib beradi,- dedi Panov.

- Shubhasiz, u yaxshi ofitser,- Avdeev quvvatladi.

- Yaxshi, yaxshi,- gap boshlagan soldat qovog'ini solib davom etdi,- mening fikrimcha, rota u bilan: modomiki, olibsan, qancha olding va qachon berasan, ayt, deb gaplashmog'i lozim.

- Rota nima desa, shu, Ё dedi Panov og'zidan trubkani olib.

- Turgan gap, ko'pchilik - qudratli narsa,- Avdeev quvvatladi.

- Axir arpa sotib olish kerak, yana bahorga etiklarni butun qilib olish lozim, pul kerak axir, nega pulni oladi...- norozi soldat so'zida turib oldi.

- Aytayotibman-ku, rota xohlaganini qiladi,- Panov takrorladi.- Bu birinchi marta bo'layotgan ish emas axir,- olibdimi, beradi.

U vaqtlarda Kavkazda har bir rota o'z xo'jaligi ustidan saylangan kishilari orqali idora qilinardi. Rota xazinadan kishi boshiga 6 so'm 50 tiyindan pul olardi va o'zini ta'min qilardi: karam ekardi, pichan o'rardi, o'zining ot-aravalari bo'lar, to'q rota otlari bilan maqtanardi edi. Rotaning pullari esa yashikda saqlanardi, yashikning kaliti rota komandirida bo'lar va rota komandirining yashikdan qarzgacha pul olish hodisasi ko'p bo'lib turardi edi. Bu safar ham shunday bo'lgan, soldatlar ham shu haqda so'zlashmoqda edilar. Qovog'i soliq soldat Nikitin rota komandiridan hisob talab qilishni istardi, Panov bilan Avdeev esa bunday qilmaslik kerak, der edilar.

Panovdan keyin Nikitin ham chekdi, so'ng ostiga shinelini to'shab, daraxtga suyanib o'tirdi. Soldatlar jim bo'ldilar. Faqat shamolning balandda, daraxtlar tepasida shitirlagan ovozigina eshitilardi. Birdan bu shitirlashlar orasidan chiyabo'rilarning chiyillashi, yig'lashi, akillashlari eshitildi.

- La'natlarning avjini qara-ya,- dedi Avdeev.

- Ular yuzingning qiyshiqligini mazax qilishayotibdi,- dedi to'rtinchi soldat ingichka ovoza.

Yana hammasi jim bo'ldi, faqat shamolgina daraxtlarning shoxlarini qimirlatib, yulduzlarni goh ko'rsatib, goh bekardi edi.

- Antonich,- xushchaqchaq Avdeev birdan Panovdan so'radi,- sening ham zerikadigan payting bo'ladimi?

- Qanaqangi zerikish?

- Men ba'zan shu qadar zerikaman, shu qadar diqqinafas bo'lamanki, nima qilishimni o'zim ham bilmay qolaman.

- Shunaqami! Ё dedi Panov.

- Men hov bir vaqt pullarimni ichib qo'ygan edim-ku, bularning hammasi diqqatbozlikdan edi. Boshimga tashvish kelaverdi, kelaverdi. Ke, mast bo'lib, bir xursand bo'lay, deb o'yladim.

- Ichkilikdan yana battarroq bo'ladi.

- Shunday ham bo'ldi, ilojing qancha?

- Ha, nimadan diqqat bo'lasan?

- Menmi? Uyimni sog'inib diqqat bo'laman-da.

- Nima, boymidilaring.

- Boy emasdikku-ya, ammo durustgina kun kechirardik-da.

So'ng Avdeev, Panovning o'ziga necha martalab aytib bergan narsalarini yana hikoya qila boshladi.

- Axir men o'z xohishim bilan akam uchun soldatlikka keldim-da,- Avdeev gapira ketdi.

- Uning to'rt bolasi bor, meni bo'lsa yangigina uylantirishgan edilar. Onam yolvorib qo'ymadi. Menga nima, balki, yaxshiligimni unutmasdir, deb o'yladim. Xo'jayinning oldiga kirdim. Xo'jayinimiz yaxshi odam: Ё Barakalla, boraver,- dedi. Shunday qilib akam uchun soldatlikka keldim.

- Juda soz, yaxshi qilibsan,- dedi Panov.

- Mana, endi, Antonich, ko'rib turibsan, xafaman. Hammasidan ham ko'proq shunga diqqatmanki, axir nimaga akam uchun soldatlikka keldim? U hozir maza qilib yuribdi, men esa mana, azob chekyapman. Qancha ko'p o'ylasam, shuncha yomon bo'ladi. Shunaqa bo'lar ekan.

Avdeev bir oz jim qolgach:

- Ha, yana chekamizmi??- deb so'radi.

- Ha, mayli, qani, to'g'rila!

Soldatlar cheka olmadilar. Avdeev endigina o'rnidan turib, trubkani to'g'rilamoqchi bo'lgan edi, shamolning shovuri aralash yo'lda kelayotgan kishilarning qadam tovushlari eshitildi. Panov miltig'ini qo'lga olib, oyog'i bilan Nikitinni turtirdi. Nikitin o'rnidan turib, shinelini yerdan oldi. Uchinchi soldat Bondarenko ham o'rnidan turdi.

- Menchi, birodarlar, ajoyib bir tush ko'rdim...

Avdeev Bondarenkoga qarab "jim", deb qo'ydi, soldatlar jim bo'ldilar. Etik emas, boshqa bir narsa kiygan kishilarning muloyim oyoq tovushlari yaqinlasha boshladi. Qorong'ilikda yaproq va qurigan shoxchalarning shitirlashi borgan sari aniq eshitilmoqda edi. Qeyin chechenlarga xos tovushlar eshitildi. Endi soldatlar faqat ovozlarnigina eshitib qolmay, darxtlar orasidagi yorug'likdan o'tib borayotgan ikki sharpani ham ko'rdilar. Sharpalarning biri pakanaroq, ikkinchisi novcharoq edi. Sharpalar soldatlarga yaqinlashganda Panov qo'lga miltig'ini olib, o'zining ikki hamrohi bilan yo'lga chiqdi va:

- Kimsan? Ё deb baqirdi.

- Tinch chechenlar,- pakanasi javob berdi. Bu Bota edi.

- Miltiq yo'q, qilich yo'q,-- dsdi u o'zini ko'rsatib.- Kinez' kerak.

Novchasi miq etmay hamrohinipg yonida turardi. U ham qurolsiz edi.

- Demak, josus, polk komandirining oldiga olib borish kerak,- dedi Panov o'z o'rtoqlariga tushuntirib.

- Kinez' Voronsov kerak, juda zarur ish bor,- dedi Bota.

- Bo'ldi, bo'ldi, olib boramiz,- dedi Panov.- Qani bo'lmasa, Bondarenko bilan sen olib bora qol,- u Avdeevga murojaat qildi,- navbatchiga topshirgach, yana qaytib kel. Menga qara,- dedi Panov,- ehtiyot bo'l, oldingga tushirib ol!

- Ha, bu nima? Ё dedi Avdeev, go'yo miltig'ining nayzasi bilan birovni sanchayotganday harakat qilib,- bitta tiqaman - ikkovining ham surobi to'g'ri bo'ladi.

- O'zi nima joni bor, bitta sanchsang masala hal,- dedi Bandarenko.

- Qani, marsh!

Askariy josuslar va ikki soldatning oyoq tovushlari tingach, Panov bilan Nikitin o'z joylariga qaytdilar.

- Kechasi nima qilib yuribdi?- dedi Nikitin.

- Ish bordir-da,- dedi Panov. Ё Ё Picha sovuqroq bo'lib qoldimi, Ё Ё deya qo'shib qo'ydi, so'ng shinelini yozib kiydi-da, daraxt yoniga o'tirdi.
Ikki soatlardan so'ng Avdeev bilan Bondarenko qaytib keldilar.
- Xo'sh, topshirdilaringmi?- Panov so'radi.
- Topshirdik. Polk komandirini kidagilar hali ham yotishmagan ekanlar. To'ppa-to'g'ri uning oldiga olib bordik. E, do'stlarim, bu taqirboshlar juda yaxshi yigitlar ekan,- Avdeev davom etdi.- Xudo haqqi! Men ular bilan toza gaplashdim.
- Sen, surishtirmay-netmay gaplashaverasan,- dedi Nikitin Avdeevdan norozi bo'lib.
- Rost, xuddi Rossiya kishilariga o'xshaydi. Bittasi uylangan ekan. Marja bor? Ё Ё deyma,- bor,- deydi. Baranchuk bor? Ё Ё deyma,- bor, ko'p,- deydi. Ikkitami?- Ikkiti,- dsydi. Shunday qilib toza gaplashdik. Yaxshi yigitlar ekan.
- Bo'lmasa-chi, ular yaxshi yigitlar,- dedi Nikitin,- faqat yakkama-yakka duch kelib qol-chi, ichak-chovog'ingni ag'darib tashlaydi, xolos.
- Tezda tong yorishsa kerak,- dedi Panov.
- Ha, yulduzlar ham so'na boshladilar,- dedi Avdeev o'tirayotib. Soldatlar yana jim bo'ldilar.

III

Kazarma va soldat uylarining derazalarida ko'pdan chiroq shu'lasi ko'rinmas, ammo krepostdagi eng yaxshi uylardan birining derzalaridan hamon yorug' tushib turardi. Bu uyda Kurinskiy polkining komandiri, bosh qo'mondonning o'g'li, fligel'-ad'yutant knyaz' Semyon Mixaylovich Voronsov turar edi. Voronsov xotini, Peterburgning mashhur go'zali Mariya Vasil'evna bilan bu kichkina Kavkaz krepostida hech kim, hech qachon yashamagan dabdaba bilan yashar edi. Bu esa Voronsov va ayniqsa uning xotini uchun faqirona hayotday tuyular edi: bu yerdagi aholiga esa bularning turmushi favqulodda dabdabali ko'rinardi.
Hozir, kechasi soat o'n ikkida, gilam to'shalib tashlangan, og'ir darpardalari tushirig'liq katta mehmonxonada to'rtta sham bilan yoritilgan karta stolining atrofida uy egalari mehmonlar bilan birga o'tirishib karta o'ynashmoqda edi. O'ynovchilarning biri - uy egasining o'zi: cho'zinchoq yuzli, malla sochli, fligel'-ad'yutantlariga xos nishonlar - venzel' va aksel'bantlari bilan o'tirgan polkovnik Voronsov edi; uning sherigi bo'lib o'ynayotgan kishi Peterburg universitetining kandidati, ya'ni knyaginya Voronsovaning ergashtirib kelgan yosh o'g'lini o'qitish uchun yaqindagina chaqirtirilib olingan paxmoq sochli, tumshaygan yosh yigit edi. Ularga qarshi ikki ofitser o'ynar edi: biri - keng qizil yuzli, gvardiyadan bu yoqqa o'tgan rota komandiri Poltoratskiy, ikkinchisi - chiroyli yuzida sovuq bir ifoda bo'lgani holda gerdayib o'tirgan polk ad'yutanti edi. Shahlo ko'z, qora qosh go'zal knyaginya Mariya Vasil'evna esa Poltoratskiyning yonida, uning oyoqlariga etigini tegizib va kartalariga qarab o'tirar edi. Knyaginyaning so'zlarida ham, ko'z qarashlarida ham, tabassumlarida ham, tanasining butun harakatlarida ham va undan anqib turgan atirning hidlarida ham, Poltoratskiyning unga yaqin o'tirishidan boshqa hamma narsani unutishga olib borgan bir joziba bor edi, shuning uchun ham Poltoratskiy o'z sherigini borgan sari g'azabga keltirib, xato ustiga xato qilar edi.
- Esi joyidami o'zi! Yana tuzni kuydirdi,- dedi ad'yutant qip-qizarib, Poltoratskiy tuzni boy berganida.
Poltoratskiy, xuddi uyqudan uyg'ongandek, dovdirab muruvvatli, katta-katta qora ko'zlari bilan ad'yutantga norozi qaradi.
- Ha, uni kechiring,- dedi Mariya Vasil'evna tabassum bilan.- Ana, sizga aytmabmidim,- u Poltoratskiyga murojaat qildi.
- Axir siz butunlay boshqa narsani aytgan edingiz,- dedi Poltoratskiy iljayib.
- Ajab, boshqa narsa edimi?- dedi u va yana jilmaydi. Bu jilmayish Poltoratskiyning shu qadar zo'r hayajonga soldi va quvontirdiki, u qip-qizarib ketdi va kartalarni olib chiylay boshladi.
- Sen chiylama,- dedi ad'yutant jiddiy va shu zahoti uzukli oq qo'li bilan xuddi kartadan tezroq qutulmoqchi bo'lganday, uni tez-tez suza boshladi.
Mehmonxonaga mulozim kirib, navbatchi knyazni so'rayotganini bildirdi.
- Kechirasiz, afandilar,- dedi knyaz' ruschani inglizcha talaffuz bilan so'zlab.- Mariya, sen mening o'rnimga o'tirasan.
Knyaginya o'zining sarv qomatini rostlab, o'rnidan ildam turdi ham ipak kiyimlarini shildiratib baxtiyor ayollarga xos ochiq tabassum bilan iljayib so'radi:
- Rozimisizlar?
- Men doim hamma narsaga roziman,- dedi ad'yutant, endi o'ynashni mutlaqo bilmaydigan knyaginyaning o'ziga qarshi o'ynaydigan bo'lganidan xursand bo'lib, Poltoratskiy esa faqat iljayib, qo'llarini yozdi.
Knyaz' mehmonxonaga qaytib kelganda robber tugagan edi. U g'oyat hayajonga tushgan va xursand bir holda kirib keldi.
- Bilasizlarmi, men sizlarga nimani taklif qilaman.
- Xo'sh?
- Shampanskiy ichamiz.
- Bunga men doim tayyorman,- dedi Poltoratskiy.
- Xo'sh, bu juda yaxshi gap,- dedi ad'yutant.
- Vasiliy! Qani, keltiringlar,- dedi knyaz'.
- Nimaga chaqiribdilar?- Mariya Vasil'evna so'radi.
- Navbatchi va yana bir kishi kelgan ekan.
- Kim? Nima gap? Ё Ё Mariya Vasil'evna yana shoshib so'radi.
- Aytolmayman,- dedi Voronsov yelkasini qisib.
- Aytolmaysanmi?- Mariya Vasil'evna takrorladi.- Ko'ramiz.
Shampanskiy keltirdilar. Mehmonlar bir stakandan ichishdi, so'ng o'yinni tugatishib va hisoblashishib, xayrlasha boshladilar.
- Sizning rotangiz ertaga o'rmonga borishga tayinlanganmi?- knyaz' Poltoratskiydan so'radi.
- Ha. Nima edi?
- Bo'lmasa ertaga siz bilan ko'rishamiz,- dedi knyaz' bir oz jilmayib.
Es-hushi faqat Mariya Vasil'evnaning do'mboq oq qo'lini qisishda bo'lgan Poltoratskiy Voropsovning gapini yaxshi anglab yetmasdan:
- Juda xursand bo'laman,- dedi.

Mariya Vasil'evna har galgiday Poltoratskiyning qo'lini faqat mahkam qisibgina qolmay, ustiga qattiq silkib ham qo'ydi. Va u, Poltoratskiyga g'ishtinni yurgan vaqtida qilib qo'ygan xatosini yana bir karra eslatib, chiroyli, erkalovchi ma'nodor tabassum bilan

jilmayib qo'ydi.

Poltoratskiy, faqat unga o'xshash kiborlar jamiyatida o'sgan va tarbiyalangan kishilargina, bir oy harbiy hayotning yolg'izligini boshidan kechirgach, yangidan, o'zining ilgarigi doirasiga mansub bo'lgan ayolni, yana knyagina Voronsova singari ayolni uchratgani uchun boshi ko'klarga yetib yaxshi kayfiyatda uyga qaytdi.

Askarlarning o'rmondagi ishi daraxt qirqishdan iborat edi, bu bilan ular dushmanniing bildirmay kelib hujum qilishini va qochish joyini yo'qqa chiqarar edilar.

U, o'rtog'i bilan yashaydigan kichkina uyga kelib, tashqi eshikni itardi, eshik berk edi. U taqillatib ko'rdi, ochilmadi. So'ng jahl bilan oyog'i va qilichini ishga solib taraqlata boshladi. Eshik orqasidan oyoq tovushi eshitildi, Poltoratskinning malayi krepostnoy Vavilo eshikniing ilgagini tushirdi.

- Eshik zanjirlashni qayerdan chiqarding? Ahmoq!

- Ha, axir berkitmasa bo'ladimi, Aleksey Vladimir...

- Yana mast. Men senga berkitishni ko'rsatib qo'yay...

Poltoratskiy Vaviloni urmoqchi bo'ldi-yu, yana bu fikridan qaytdi.

- He, turqing qursin: Shamni yoq!

- Hozir.

Vavilo haqiqatan ham ichgan edi, chunki u kaptenar-musnikida tug'ilgan kun sharafiga qilingan ziyofatda bo'lgan edi. U, uyga qaytib kelgach, o'z hayotini kaptenarmus Ivan Makeichning hayoti bilan taqqoslab, o'ylay ketdi. Ivan Makeichning kirimlari bor, uylangan va bir yildan so'ng bo'shayman, degan umidi ham bor edi. Vavilo esa, bolaligidayoq yuqoriga, ya'ni xo'jayinlarning xizmatiga olingan, hozir qirqlardan oshib qolgan bo'lsa-da, haliga qadar uylanmagan va o'zining betayin xo'jayini bilan darbadar hayot kechirar edi. Xo'jayin yaxshi edi, kam urishardi,- ammo bu qanaqa turmush axir! "Kavkazdan qaytib kelgach, seni ozod qilaman, deb va'da bergan edi, ha, ozod bo'lib qayoqqa boraman axir..." Itday yashasang, o'yladi Vavilo. So'ng shu qadar uxlagisi keldiki, u bitta-yarimta odam kirib biror narsani olib ketmasin, deya qo'rqib eshikning ilgagini soldi va uxlab qoldi.

Poltoratskiy, o'rtog'i Tixonov bilan birga yotadigan xonaga kirdi.

- Xo'sh, nima, yutqizib qo'ydingizmi? В Ъ”dedi Tixonov uyg'onib.

- Yo'g'-e, o'n yetti so'm yutdim va bir butilka shampanskiy ichdik.

- Mariya Vasil'evnani ham ko'rdingmi?

- Mariya Vasil'evnani ham ko'rdim,- Poltoratskiy takrorladi.

- Turadigan vaqt ham bo'lay deb qoldi,- dedy Tixonov,- soat oltida yo'lga tushmoq lozim.

- Vavilo,- deb chaqirdi Poltoratskiy,- menga qara, ertaga meni soat beshda uyg'ot.

- Sizni uyg'otib bo'ladimi, urishib ketasiz.

- Men senga uyg'otib qo'y deyapman! Eshitdingmi?

- Xo'p.

Vavilo etik va kiyim-boshlarini olib ketdi. Poltoratskiy esa o'rniga yotdi va iljayganicha, papiros chekdi-da, shamni o'chirdi, u qorong'ida qarshisida Mariya Vasil'evnaniing tabassum-la kulib turgan chehrasini ko'rdi.

Voronsovlar darrov uxlashmadi. Mehmonlar ketishgach, Mariya Vasil'evna erining yoniga keldi va uning qarshisida to'xtab, jiddiylilik bilan dedi.

- Eh bien, vous ai er me dir che gue c'est?

- Mais, ma chere ...

- Pas de "ma chere"! C'est un emissaire n'est-ce past?

- Quand meme je ne pous pas vous le dire.

- Vous ne pouvez pas? Alors c'est moi qui vais vois le dire!

- Vous?

Bir necha kundan beri Hojimurod bilan bitim qilish yuzasidan bo'layotgan gaplarni eshitgan va erining oldiga Hojimurodning o'zi kelgan, deya gumon qilgan knyagina:

- Hojimurod emasmi? В Ъ”deb so'radi.

Voronsov inkor qila olmadi, ammo kelgan kishi Hojimurodning o'zi emas, balki Hojimurodning ertaga daraxt kesilmoqchi bo'lgan yerga kelishini xabar qilgali kelgan vakili ekanini aytib, xotiniining hafsalasini pir qildi. Krepostdagi ko'ngliga tegadigan bir tarzda zerikarli turmush kechirayotgan yosh Voronsovlar - xotini ham, eri ham - bu voqeadan xursand bo'ldilar. Bu xabarni Voronsovning otasiga qanday yoqib tushishi haqida so'zlashgan eri xotin soat uchda uxlashga yotishdi.

IV

Hojimurod, Shomilnppg unga qarshi yuborgan muridlaridan qochib yurib o'tkazgan uyqusiz uch kechadan so'ng, Sado unga xayrli tun tilab uydin chiqib ketishi bilanoq uxlab qoldi. U yechinmasdan, boshini qo'lga qo'yib, xo'jayin tomonidan qo'yilgan qizil momiq yostiqaq tirsaklarini botirib uxlardi. Unga yaqin joyda devor tagida Eldor uxlamogda edi. Eldor o'zining kuchli tanasini har tomonga tashlab, chalqanchasiga yotar, uning qora gozirli oq cherkaska ichidagi baland ko'kragi, yostiqdin pastga tushib ketgan yaqindagina qirilgan boshidan baland edi. Uning naq bolalarniki singari bilinar-bilinmas mo'ylov chiqqan keng yuqori labi dam qisilib, dam ochilib, xuddi bir narsani kavshab yotganga o'xshardi. U ham xuddi Hojimurod singari kiyingan holda belbog'iga qistirib olgan to'pponchasi va xanjari bilan uxlab yotardi. Uchoqdagi shox yonib bitmoqda va pechka ichidagi chilchiroq miltiramoqda edi.

Yarim kechada mehmonxonaning eshigi g'ijirladi, Hojimurod shu zamoniyoq o'rnidan ko'tarilib to'pponchasini ushladi. Uyga oyoq uchida yurib Sado kirdi.

- Nima kerak?- Hojimurod hech uxlamagan kishidek so'radi.

- Uylamoq kerak,- dedi Sado Hojimurodning oldiga o'tirib,- sening kelganingni bir xotin tomdan ko'ribdi,- dedi u,- va eriga yetkazibdi, hozir buni butun ovul biladi. Yangigina qo'shnim xotinimning oldiga shoshib chiqibdi va chollarniing machitga to'planishganini ham seni ushlamoqchi bo'lishgaiini aytibdi.

- Ketish kerak,- dedi Hojimurod.

- Otlar tayyor,- dedi Sado va uydin tez chiqib ketdi.

- Eldor,- Hojimurod shivirladi, Eldor o'z nomini va hammasidan muhimi, o'z murshidining ovozi eshitib, papaxini tuzatar ekan, irg'ib turdi. Hojimurod qurolini osdi va chakmonini kiydi. Eldor ham shunday qildi, so'ng har ikkalasi ham indamasdan uydan bostirmaga chiqdilar. Qora ko'zli bola otlarni keltirdi. Suv sepganday jimjit ko'chadan ketayotgan otlarning tuyuq tovushiga qo'shni uying eshigidan allakim boshini chiqarib qaradi. So'ng yog'och kavushini taraqlatgancha tepalikdagi machitga qarab chopib ketdi.

Oy chiqmagan, yulduzlarga qop-qora ko'kda charaqlab turar va qorong'ilikda uy tomlarining va hammadan ko'proq ovulning yuqori qismidagi minorali machitning shakli ko'rinib turardi. Machitdan shovqin eshitildi.

Hojimurod darhol multig'ini ushlab, oyog'ini tor uzangiga qo'ydi, so'ng o'zini tovush chiqarmasdan, egarning baland yostig'iga oldi.

- Olloga topshirdim!bTbT”dedi u uy egasiga murojaat qilib, o'ng oyog'ining odatiy harakati bilan ikkinchi uzangini axtarayotib va chetlanishinipg ishorasi qilib, otni ushlab turgan bolani qamchi bilan sal turtib qo'ydi. Bola o'zini chetga oldi, ot go'yo nima qilishi kerakligini o'zi bilganday, tor ko'chadan katta yo'lga qarab yo'rg'alab ketdi. Eldor orqada borardi; Sado po'stin kiyib olgan, qo'llarini tez-tez qimirlatib, tor ko'chaning goh u betiga, goh bu betiga yugurib o'tib, ularning ketidan chopardi. Katta yo'lga chiqaverishda bir sharpa, so'ng ikkinchi sharpa ko'rindi.

- To'xta! Kimsan? To'xta!bTbT”deb qichqirdi biroq, so'ng bir qancha kishi yo'l to'sdi.

Hojimurod to'xtash o'rniga to'pponchasini belidan oldi va otini yo'l to'sgan kishilarga qarab handab, yurishini tezlatdi. Yo'lda turgan kishilar tarqaldilar va Hojimurod, atrofiga qaramasdan, otini qattiq yo'rttirib, yo'ldan pastga qarab tushib ketdi. Eldor otini qattiq yeldirib, uning ketidan borardi. Orqadan tarsillab ikki marta multiq otildi, o'q unga ham, Eldorga ham tegmasdan, g'uvillagancha o'tib ketdi. Hojimurod o'sha yurishda davom etdi. U, uch yuz qadamcha uzoqlashgandan so'ng, hansiragan otini bir oz to'xtatdi-da, quloq sola boshladi. Oldinda, pastda tezoqar suv shovullamoqda edi. Orqadan ovuldagi xo'rozlarning qichqirishlari eshitilar edi. Bu qichqiriqlar orasidan Hojimurodning ketidan yaqinlashib kelayotgan ot tuyoqlarining va kishilarning tovushlari eshitildi. Hojimurod, otini "chuv" deb avvalgicha bir qolipda yo'rg'alatib ketdi.

Orqadan kelayotganlar chopdilar va Hojimurodni quvib yetdilar. Ular yigirma chog'li otliq kishilar edi.

Bular Hojimurodni tutishga qaror qilgan yoki juda bo'lmaganda, o'zlarini Shomil oldida oqlash uchun Hojimurodni tutmoqchiday ko'rinishgan ovul xalqi edi. Ular qorong'ida ko'rinadigan darajada yaqinlashib kelgan vaqtlarida, Hojimurod, tizginni qo'yib yuborib, to'xtadi va chap qo'lining odatiy harakati bilan multig'ining g'ilofini yechdi, o'ng qo'li bilan multiqni oldi. Eldor ham shunday qildi.

- Nima kerak?bTbT”deya baqirdi Hojimurod.- Ushlamoqchimisiz? Mana ushlanglar! U multig'ini ko'tardi.

Ovul xalqi to'xtadi. Hojimurod multig'ini qo'lga ushlaganicha, jarlikka tusha boshladi. Otliqlar yaqinlashmasdan uning orqasidan kelardilar. Hojimurod jarlikning naryog'iga o'tib olgach, uning orqasidai kelayotgan otliqlar: "So'zimizni tingla!" deb qichqirdilar. Bunga javoban Hojimurod multiqdan o'q uzdi va otini choptirib ketdi. U otini to'xtatganda uning ortidan quvib kelayotganlarning tovushi eshitilmas, xo'rozlarning qichqirigi ham kelmas, faqat o'rmon ichidan oqayotgan suvning aniq shildirashi va har zamonda ukking sayrashi quloqqa chalinar edi. O'rmonning qora devor singari qirg'og'i juda ham yaqin edi. Bu o'rmon Hojimurodning muridlari kutishib turishgan o'rmon edi. Hojimurod o'rmonning yoniga kelib to'xtadi va ko'kragini to'ldirib havo olib, hushtak chaldi, so'ng quloq soldi. Bir minutdan so'ng o'rmon ichidan xuddi shunday hushtak eshitildi. Hojimurod yo'ldan burilib o'rmonning ichiga kirib ketdi. U yuz qadamcha yurgandan keyin, daraxtlar orasidan gulxanning atrofida o'tirishgan kishilarning soyalarini va yarmigacha olov yoritgan tushovlangan, egarlog'liq otlarni ko'rdi. Gulxan oldida to'rt kishi o'tirar edi.

Gulxan oldidagi kishilardan biri tez turdi-da, Hojimurodning yoniga kelib, otning jilovini va uzangisini ushladi. Bu kishi Hojimurodning tutingan ukasi, uning xo'jalik mudiri edi.

- O't o'chirilsin!- dedi Hojimurod otidan tushayotib.

Kishilar gulxanni to'zg'itib, yonayotgan shoxlarni toptay boshladilar.

Hojimurod yerga solingan chakmonning yoniga kelib:

- Bota bu yerga keldimi?- deb so'radi.

- Keldi, ko'p bo'ldi. Xon-Magoma bilan ketdi.

- Qaysi yo'ldan ketdilar?

- Manavi yo'l bilan,- Hanafiy Hojimurod kelgan yo'lining qarshi tomonini ko'rsatib javob berdi.

- Xo'p,- dedi Hojimurod va multig'ini olib, o'qlay boshladi.- Ehtiyot bo'lish lozim, mening ketimdan quvdilar,- dedi Hojimurod o'tni o'chirayotgan odamga murojaat qilib.

Bu kishi chechen Gamzalo edi. Gamzalo chakmonning yoniga keldi, uning ustida yotgan jildli multiqni oldi va jimgina yalanglikning chekkasiga, Hojimurod kirib kelgan yerga qarab ketdi. Otidan tushgan Eldor Hojimurodning otini oldi va har ikkala otning ham boshini yuqori qilib, daraxtga qantarib qo'ydi; keyin xuddi Gamzalo singari multig'ini yelkasiga osib, yalanglikning narigi chekkasiga borib turdi. Gulxan o'chirilgan bo'lsa-da, o'rmon endi avvalgidek qorong'i emas, garchi zaif bo'lsa-da ko'kda yulduzlar porlar edi.

Hojimurod yulduzlarga, osmonning yarmigacha ko'tarilib qolgan "Yetti og'ayni" yulduzlarga qarab, tun yarmidan og'ib qolganini va ko'pdan tungi ibodat vaqti yetganini payqadi. U Hanafiydan doimo xurjunda olib yuriladigan qumg'onni so'radi, so'ng chakmonini kiyib, suvga qarab jo'nadi.

Hojimurod yechinib va tahorat olib bo'lgach, chakmonini yozib, qiblaga qarab nomozini o'qidi.

U nomozni o'qib bo'lib, o'z o'rniga - xurjuni turgan joyga qaytib keldi va chakmonga o'tirib, qo'llarini tizzasiga tiradi, so'ng boshini quyi solib, o'ylab ketdi.

Hojimurod o'z baxtiga doimo ishonardi. U biror narsani boshlasa, albatta muvaffaqiyat qozonaman deb o'ylardi,bTbT”shuning uchun ham hamma narsa unga kulib boqar edi. Uning butun jo'shqin harbiy turmushi davomida, har zamonda uchraydigan tasodiflardan qat'iy nazar, shunday bo'lgan. U hozir ham shunday bo'ladi, deb ishonardi. U Voronsov tomonidan o'ziga beriladigan qo'shin bilan Shomilning ustiga yurish qilishini va uni asir qilib, o'ch olishini, rus podshosi uni mukofotlashini va faqat Avariyanigina emas, balki unga bo'ysunadigan butun Chechen o'lkasini idora qilishini ko'z oldiga keltirdi. U bu fikrlarga cho'mib, qanday qilib uxlab qolganini sezmedi.

U o'zining yigitlari, ashulalar va "Hojimurod kelayotir!"bTbT”degan qiyqiriqlar bilan Shomil ustiga bostirib borayotganini, uni xotinlari bilan birgalikda ushlayotganini va Shomilning xotinlari yig'lab-siqtayotganlarini eshitayotganini tush ko'rdi. U uyg'onib ketdi. "Loilo" degan sura, "Hojimurod kelayotir!"bTbT” degan qiyqiriqlar va Shomil xotinlarining yig'isi - bular - uni uyg'otib yuborgan chiyabo'rilarining ulishi, chinqirig'i edi. Hojimurod boshini ko'tardi, sharq tomonga, daraxtlar orasidan yorishib ko'ringan

osmonga qaradi va o'zidan nariroqda o'tirgan murididan Xon-Magomani so'radi. Xon-Magoma hali qaytmaganini bilib, boshini quyi soldi va shu zahotiyoyq yana mudrab ketdi. Magomaning xursand ovozi uyg'otdi. Xon-Magoma kela solib Hojimurodning yoniga o'tirdi-da, ularni soldatlar qanday qilib kutib olganliklarini ham xuddi knyazning oldiga olib borganliklarini, knyazning o'zi bilan so'zlashganini, knyazning xursand bo'lganini va erta bilan ularni ruslar daraxt kesadigan joyda - Michik daryosining narigi yog'idagi Shalin yalangligida kutib olishga va'da berganini gapirib bera boshladi. Bota, o'zi bilan tafsilotlarini qo'shib, o'rtog'ining so'zini bo'lib turdi.

Hojimurod, o'zining ruslarga qo'shilmochi bo'lgan taklifiga Voronsov aniq qanday so'zlar bilan javob berganligini mufassal so'radi. Xop-Magoma ham, Bota ham knyazning Hojimurodni mehmon sifatida qabul etishga va unga ko'p narsa va'da qilishganini aytdilar. Hojimurod yana yo'l haqida so'roqlay berdi. Xon-Magoma yo'lni yaxshi bilganini ham to'ppa-to'g'ri olib borishganini aytib, uni ishontirgach, Hojimurod yonidan pul chiqarib, Botaga va'da qilingan uch so'mni berdi: o'z odamlariga esa xurjundan o'zining oltin suvi yugurtirilgan qurolini va salla o'ralgan papaxini olib berishlikni, muridlarning o'zlariga bo'lsa, ruslarning oldiga durust bo'lib borish uchun tozalanishni buyurdi. Qurollarni, egarlarni, otlarning jabduqlarini tozalab bo'lishgunlaricha, yulduzlar so'nib, kun yorishib qoldi va tonggi shabada esa boshladi.

V

Tong qorong'isida, Poltoratskiyning komandasi ostida bolta ko'tarishgan ikki rota soldat Chahgirin darvozasidan o'n chaqirim nariga chiqib borishdi va saf bo'lib yoyilib, tong yorishi bilanoq daraxt kesishga tutinishdi. Gulxanda pisillab va tarsillab yonayotgan ho'l shoxlarning tutuni bilan qo'shilib ketgan tuman soat sakkizlarda ko'tarildi, ilgari besh qadam naridan bir-birini ilg'amay, faqat ovoznigina eshitayotgan daraxt kesuvchilar gulxanlarni ham, o'rmon ichidan o'tgan b'v'ustiga daraxtlar ag'anagan yo'lni ham ko'ra boshladilar, quyosh goh yorug' xol bo'lib tuman ichidan ko'rinib qolar, goh yana yashirinar edi. Yalanglikda, yo'l bo'yida do'mbiralarning ustida, o'zining subaltern-ofitseri Tixonov bilan Poltoratskiy, uchinchi rotaning ikki ofitseri va sobiq kavalergard, duelda urishgani uchun darajasi kamaytirilib soldatlikka tushirilib yuborilgan - Poltoratskiyning Pajeskiy korpusdagi o'rtog'i - baron Freze o'tirar edi... Do'mbiralarniig yonverida tashlandiq qog'ozlar, papiros qoldiqlari va bo'sh shishalar sochilib yotardi. Ofitserlar aroq ichishib bo'lib, ovqat yemoqda va porter ichishib o'tirmoqda edilar. Do'mbirachi uchinchi shishani ochdi, Poltoratskiy uyquga to'ymaganligiga qaramay, o'ziga xos ruhiy ko'tarinkilik va sof, quvnoq kayfiyatda edi: u bunday vaqtlarda, ya'ni xavf yuz berishi mumkin bo'lgan yerda o'z soldatlari va o'rtoqlari orasida bo'lib, o'zini doimo shunday his etar edi.

Ofitserlar orasida so'nggi yangilik - general Slepsovning o'limi haqida qizg'in suhbat borardi. Bu o'limda hech kim hayotdagi eng muhim paytni - hayotning tugatilishini va o'zi paydo bo'lgan manbaiga qaytib borishini ko'rmas, balki qilich bilan tog'lilarga tashlangan va ularni botirlik bilan qilichdan o'tkazgan abjir ofitserning azamatligini ko'rardi.

Garchi bularning hammalari, ayniqsa jangda bo'lgan ofitserlar, u vaqtlarda Kavkazda bo'ladigan urushlarda va umuman, hech qachon va hech yerda, taxmin qilinadigan va tasvir etiladigan ro'baro' kelishib qilich bilan chopishishlar bo'lmasligini bilsalar-da, (mabo-do shunday ro'baro' kelinib qilich va nayza bilan chopishish ham sanchishlar bo'lsa, hamma vaqt faqat qonunchilargina chopiladi va sapchiladi) va bilishlari mumkin bo'lsa-da, bu ro'baro' kelib jang qilish haqidagi uydirma gap ofitserlar tarafidan e'tirof qilinar ham ularga mag'rurlik va xursandlik bag'ishlar edi; ular bu mag'rurlik va xursandlik bilan biri botirlangan, biri aksincha eng kamtarin qiyofada, Slepsovning boshiga tushgani singari, har minut sayin har birlarining boshlariga kelishi mumkin bo'lgan o'limni pisand qilmasdan, chekishib, ichishib va hazillashib, do'mbiralalar ustida o'tirmoqda edilar. Haqiqatan ham xuddi shu chog' - suhbat o'rtasida, yo'lning chap tomonidan tetiklantiruvchi, chiroyli, qarsillab otilgan miltiq tovushi eshitildi va otilgan o'q, qayerdadir tumanli havoda g'uwillab borib, tarsillab daraxtga tegdi. Dushmanning o'qiga - soldatlarning miltig'idan otilgan bir qancha salobatli - qattiq o'q tovushlari javob berdi.

- Uho',- deya Poltoratskiy ko'tarinki ovoz bilan qichqirdi,- bizning safda emasmi? Qani, Kostya birodar,- u Frezega murojaat qildi,- senigg baxting. Rotanigg yoniga bor. Biz hozir ajoyib bir jang yasaymiz! Tomosha ko'rsatamiz.

Mansabdan tushgan baron o'rindan irg'ib turdi-da, tez-tez qadam tashlab o'z rotasi turgan joyga qarab tutun ichiga kirib ketdi. Poltoratskiyga o'zining kichkina qora to'riq kabardin otini keltirib berdilar, u otiga mindi, so'ng, rotani safga tizib miltiq otilgan tarafga, saf olib yotgan askarlarning yoniga olib ketdi. Safda yotgan askarlar o'rmonning labida, yalang'och tik jarning oldida edi. Shamol o'rmonga qarab esar va jarning yonbag'rigina emas, hatto uning narigi tomoni ham yaqqol ko'rinar edi.

Poltoratskiy saf oldiga yetib kelgan vaqtda quyosh tuman ichidan mo'raladi, jarning u yog'ida, mayda daraxtlarning yonidan yuz sajenlarcha narida bir qancha otliqlar ko'rindi. Bular Hojimurodning orqasidan tushgan va uning ruslarga kelib qo'shilishini ko'rmakchi bo'lgan chechenlar edi. Ulardan biri safga tizilayotgan askarlarga qarata o'q uzdi. Bir qancha soldat unga javob qaytardi. Chechenlar orqaga qaytdilar, otishma to'xtadi; ammo Poltoratskiy rota bilan yetib kelgach, yana otishga buyurdi, komanda berilishi bilan butun saf bo'ylab, chiroyli, bir tekis tutun taratib, jonli, tetiklantiruvchi, bir vaznda otilyotgan miltiq ovozlari eshitila ketdi. Soldatlar tomoshaga xursand bo'lishib, miltiqklarini o'qlashga shoshildilar va ustma-ust o'q chiqarar edilar. Chechenlarning g'ayrati qistadi shekilli, oldinga yugurib chiqishib, soldatlarga qarata orqama-orqa bir qancha o'q uzdilar. Ularning bir o'qi bitta soldatni yarador qildi. Bu soldat, maxfiy qorovullikda bo'lgan Avdeev edi. O'rtoqlari yoniga kelishganlarida, u ikki qo'li bilan qornidagi jarohatini ushlab, muk tushib yotar va birdek tebranib ingrar edi.

- Miltiqni endigina o'qlayotgan edim, tars etgan ovozni eshitdim,- dedi u bilan birga otishayotgan soldat,- qaraymanki, buning miltig'i qo'lidan tushib yotibdi.

Avdeev Poltoratskiyning rotasidan edi. Poltoratskiy to'planishib turgan soldatlarni ko'rib, ularning yoniga keldi.

- Ha, uka, o'q tegdimi?b'v' dedi u.- Qayeringga? Avdeev javob bermadi.

- Miltig'imni eidigina o'qlayotgan edim, janob oliylari,- dedi Avdeevning hamrohi,- tars etgan ovozni eshitdim,- qaragam - uning miltig'i qo'lidan tushib yotibdi.

- E, attang,- dedi Poltoratskiy.- Nima, og'riyaptimi, Avdeev?

- Og'riyotgani yo'g'u yurishga qo'ymayotibdi. Jindek vino bo'larmidi, janob oliylari.

Aroq, ya'ni Kavkazda soldatlar ichadigan spirt topildi, Panov qovog'ini osiltirgani holda uni Avdeevga tutdi. Avdeev og'ziga olib bordi, ammo shu zamoniyoq spirtni chetga surdi.

- Tomog'imdan o'tmaydi, o'zing ich,- dedi.

Panov qolgan spirtni ichib tugatdi. Avdeev yana o'rnidan turishga harakat qildi, ammo turolmay yana yotib qoldi. Shunda shinelini yerga yozib Avdeevni yotqizdilar.

- Janobi oliylari, polkovnik kelayotibdi, b' b' dedi fel'dfebel' Poltoratskiyga.
- Xo'p, yaxshi, sen boshqar,- dedi Poltoratskiy va otiga qamchi berib, Voronsovni qarshilagani ketdi.
- Voronsov o'zining nasldor, ingliz ayg'irini minib, polk ad'yutanti - kazak va tarjimon chechen bilan birga kelardi.
- Nima gap?- u Poltoratskiydan so'radi.
- Bir to'da chechenlar kelib, askarlarga hujum qildi.- Poltoratskiy unga javob berdi.
- Xo'sh, xo'sh, hamma ishni siz boshlagandirsiz?
- Men emas axir, knyaz',- dedi Poltoratskiy tabassum bilan,- o'zlari boshladilar.
- Bir soldat yarador bo'lgan deb eshitdim.
- Ha, juda achinarli bo'ldi, yaxshi soldat edi.
- Og'ir yaralanganmi?
- Og'ir shekilli, qornidan.
- Siz bilasizmi, men qayoqqa ketayotibman?- Voronsov so'radi.
- Bilmayman.
- Nahotki fahmlamaysiz?
- Yo'q.
- Hojimurod bizga o'tdi va hozir bizni qarshi oladi.
- Yo'g'-e!

- Kecha undan kishi kelgan edi,- dedi Voronsov shodlik tabassumini zo'rg'a bosib turib.- Hozir meni Shalin yalangligida kutib turishi kerak, siz soldatlarni yalanglikkacha joylang-da, so'ng mening oldimga keling.

- Xo'p,- dedi Poltoratskiy, qo'lini papaxiga qo'yib, so'ng rotasining yoniga ketdi. Uning o'zi safning o'ng tomonini boshlab olib ketdi, safning chap tomonini olib borishni fel'dfebelga topshirishdi. Bu orada yaralangan Avdeevni soldatlar krepostga olib ketdilar.

Poltoratskiy orqasidan chopib kelishayotgan otliqlarni ko'rgan vaqtda Voronsovning oldiga kelayotgan edi. U to'xtab ularni kutib turdi.

Hammadan oldinda, oq yolli otga minib, oq cherkaska va salla o'ragan papax kiygan ham oltin bilan ishlangan qo'rol osgan devday bir kishi kelmoqda edi. Bu odam Hojimurod edi. U Poltoratskiyning yoniga kelgach, tatarchalab bir narsa dedi.

Poltoratskiy anglamaganligining ishorasini qilib, qoshlarini ko'tardi, qo'llarini yozdi-da, iljaydi. Hojimurod tabassumga tabassum bilan javob berdi, bu tabassum o'zining bolalarnikidek sofligi bilan Poltoratskiyini hayratga soldi. Poltoratskiy bu qo'rqinchli tog'likni shunday holda ko'raman deb hech kutmagan edi. U, qovoq-tumshug'i osilgan, dag'al, begona bir kishini kutgan edi, vaholanki uning oldida eng oddiy, ko'pdan beri do'st bo'lib yurgan kishining tabassumiga o'xshash xushtabassum bir kishi turar edi. Unda faqat bir narsa ayniqsa ajralib turardi: bu narsa uning katta-katta, boshqa odamlarning ko'ziga diqqat bilan o'qtin va tinch qarovchi ko'zlari edi.

Hojimurodning jilovdorlari to'rt kishidan iborat edi. Bu jilovdorlar ichida bugun kechasi Voronsovning yoniga borgan Xon-Magoma ham bor edi. U, kipriksiz, qora, shahlo ko'z, qizil kulcha yuz chehrasida xursandlik ifodasi barq urib turar edi. Yo'g'on, hamma yog'ini jun bosgan, qoshlari o'siq yana bir kishi bor edi. Bu kishi Hojimurodning butun mulkini tasarruf etuvchi tavlin Hanafiy edi. U, ustiga liq to'ldirilgan xurjun ortilgan, zapas otni yetaklab olgan edi. Jilovdorlarning ichidan ikki kishi alohida ajralib turardi: biri - yosh, beli xotinlarnikiday xipcha, yelkasi keng, endi sabza ura boshlagan sariq mo'ylovli qo'y ko'z go'zal yigit Eldor, ikkinchisi - bir ko'zi g'ilay, qosh va kipriksiz, kuzalgan sariq saqolli va burun ham yuzida ortig'i bor - chechen Gamzalo edi. Poltoratskiy Hojimurodga yo'lda ko'ringan Voronsovni ko'rsatdi, Hojimurod unga qarab yo'l oldi-yu, keyin uning yoniga kelgach, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, tatarchalab bir narsa dedi-da, to'xtadi. Tarjimon chechen tarjima qildi.

- Rus podshosining ixtiyoriga berilaman, deydi, unga xizmat qilishni istayman. Buni ko'pdan beri xohlar edim, Shomil qo'ymadi, deydi.

Voronsov tarjimonning so'zini tinglab bo'lgach, charm qo'lqopli qo'lini Hojimurodga uzatdi. Hojimurod bu qo'lga qaradi, bir nafas xayol surdi, ammo keyin uni mahkam qisdi va goh tarjimonga, goh Voronsovga qarab, yana bir narsa dedi.

- U, hech kimning yoniga chiqishni istamaganini va faqat sening yoninggagina chiqmoqchi bo'lganini, chunki sen sardorning o'g'li ekanligingni aytdi. Seni qattiq hurmat qilaman, deydi.

Voronsov, tashakkur bayon qilganining ishorasi qilib, boshini qimirlatib qo'ydi. Hojimurod o'z odamlarini ko'rsatib yana bir narsa dedi.

- U, bu odamlar mening muridlarim, bular ham menga o'xshab ruslarga xizmat qiladilar, deydi.

Voronsov ularga qaradi va boshini qimirlatib qo'ydi.

Xushchaqchaq, kipriksiz qora ko'z chechen - Xon-Magoma ham boshini qimirlatib, Voronsovga qandaydir kulgili bir narsa aytdi.

Negaki, hamma yog'ini jun bosgan avariyaalik kishi tiniq oq tishlarini ko'rsatib iljaydi. Sariq Gamzalo bo'lsa faqat bir nafasgina o'zining qip-qizil ko'zini yalt etkazib Voronsovga tashladi, so'ng yana otining quloqlariga tikildi.

Voronsov va Hojimurod, jilovdorlar bilan birga, krepostga qaytib ketayotganlarida safdan bo'shatilgan soldatlar to'planishib ta'na qila boshladilar.

- Qancha odamni halok qildi, la'nati. Endi-chi, uni siylashlarini ko'raverasan,- dedi birovi.

- Bo'lmasam-chi, Shomilning birinchi komandiri bo'lgan. Endi u yog'ini qo'yaver!

- Nimasini aytasan, azamat yigit.

- Sarig'i-chi, sarig'i, xuddi yirtqich hayvonga o'xshab ko'z qirini tashladi.

- Uh, it bo'lsa kerak.

- Hammalari sariqni chandidilar.

Daraxt kesilayotgan joydagi yo'lga yaqin bo'lgan soldatlar Hojimurodni ko'rgani yo'lga yugurib chiqishdi. Ofitser ularga qarab qichqirdi, lekin Voronsov uni to'xtatdi.

- Qo'yaver, o'zlarining eski tanishlarini ko'rsinlar. Sen buning kim ekanini bilasanmi?- Voronsov inglizcha talaffuz bilan so'zlarni cho'zib gapirib, yaqinida turgan soldatdan so'radi.

- Hech bilmayman, janob oliylari.

- Bu Hojimurod bo'ladi, eshitganmisan?

- Qanday qilib eshitmayin, janobi oliylari, uni ko'p kaltaklaganmiz.

- Ha, undan ham kaltak yegansiz.

- Xuddi shunday, janob oliylari,- boshliq bilan gaplashishiga muyassar bo'lgani uchun mamnun bo'lgan soldat javob berdi.

Hojimurod o'zi haqida so'zlashayotganlarini anglaganidan ko'zlarida quvnoq bir tabassum yarqiradi. Voronsov juda xursand holda krepostga qaytdi.

VI

Voronsov Rossiyaning Shomildan keyin ikkinchi o'rinda turgan eng kuchli dushmanini jazb etish va qabul qilish unga, xuddi unga muyassar bo'lgani tufayli g'oyat mamnun edi. Lekin birgina narsa ko'ngilsiz edi: Vozdvijenskiyda qo'shin ustidan qo'mondonlik qiluvchi general Meller-Zakomel'skiy bo'lib, aslida butun ishni u orqali olib borish kerak edi. Voronsov bo'lsa, unga xabar bermasdan, hamma ishni o'zi qildi. Shuning uchun ham ko'ngilsizlik yuz berishi mumkin edi. Bu fikr Voronsovning kayfiyatini bir oz buzardi.

Voronsov uyiga yetgach, Hojimurodning muridlarini polk ad'yutantiga topshirdi, o'zi esa Hojimurodni uyiga olib kirib ketdi. Knyaginya Mariya Vasil'evna yasangan, yuzida tabassum, o'g'li - olti yoshli jingalak sochli go'zal bola bilan birga Hojimurodni mehmonxonada kutib oldi. Hojimurod qo'llarini ko'ksiga qo'yib, bir qadar tantanada ular bilan birga ichkariga kirgan tarjimon orqali, o'zini knyazning mehmoni hisoblaganini, negaki knyaz' uni o'z uyiga qabul qilganini, mehmon uchun mezbanning butun oilasi mezbanning o'zi singari muqaddas ekanini aytdi. Hojimurodning sirtqi ko'rinishi ham, muomalasi ham Mariya Vasil'evnaga yoqib tushdi. Knyaginya o'zining katta, oppoq qo'lini Hojimurodga bergan vaqtda, uning gup etib qizarib ketganligi knyaginyani unga yana ko'proq moyil qildi. U Hojimurodga o'tirishni taklif qildi va undan kofe ichasizmi, deb so'radi-da, kofe keltirishni buyurdi. Biroq kofe keltirilgach, Hojimurod ichmadi. U ruschani uncha-muncha anglar, ammo gapirolmas va anglamagan vaqtda iljayar edi, uning tabassumi Poltoratskiyga yoqqani kabi Mariya Vasil'evnaga ham yoqdi. Mariya Vasil'evnaning jingalak sochli, o'tkir ko'zli o'g'ilchasi Bul'ka esa, zo'r jangchi deb eshitgani Hojimuroddan ko'zlarini olmay onasining yonida turardi.

Voronsov Hojimurodni xotining oldida qoldirib, uning qo'shilganligi haqida boshliqlarga xabar qilish to'g'risida buyruq berish uchun idoraga ketdi.

Voronsov Grozniy shahriga, so'l qanot boshlig'i general Kozlovskiyga xabar berib va otasiga xat yozib bo'lgach, xafa ham qilmasdan, ortiqcha erkalatib ham yubormasdan muomala qilish kerak bo'lgan begona, qo'rqinchli kishini xotini oldida qoldirib ketgani uchun Mariya Vasil'evnanint norozi bo'lishidan qo'rqib, shoshilgancha uyiga qaytdi. Ammo behudaga tashvishlangan edi. Hojimurod Voronsovning o'gay o'g'li Bul'kani tizzasiga olib, kresloda o'tirar va boshini quyi solib diqqat bilan Mariya Vasil'evnaning so'zlarini tarjima qilib borayotgan tarjimonning gapini tinglamoqda edi. Mariya Vasil'evna, agar u har bir tanishiga uning maqtagan narsasini berib yuboraversa, tez orada hech vaqosiz qolishini aytdi.

Hojimurod knyaz' kirishi bilan tizzasidan Bul'kani oldi va shu zahotiyoy yuzidagi o'ynoqi qiyofani qat'iy va jiddiy qiyofa bilan almashtirib, o'rnidan turdi. U Voronsov o'tirgandan so'nggina o'tirdi. U suhbatni davom ettirib, Mariya Vasil'evnaning so'zlariga javoban ularning qonuni shunday ekanini, oshnasiga yoqqan narsaning hammasini unga berish kerakligini aytdi.

- Sening o'g'ling mehmondo'st,- dedi u ruschalab tizzasiga yana chiqib olgan Bul'kaning jingalak sochlarini silab.

- Sening qaroqching juda yaxshi odam ekan,- dedi Mariya Vasil'evna eriga fransuzchalab.- Bul'ka uning xanjariga qiziqqan edi, xanjarni unga taqdim qildi.

Bul'ka xanjarni otasiga ko'rsatdi.

- C'et un objet de prix , - dedi Mariya Vasil'evna

- Al faudra trouver l'occasion de lui faire cadeau , - dedi Voronsov.

Hojimurod bolaning jingalak sochini silab:

- Yigit, yigit,- deb gapirib o'tirardi.

- Juda yaxshi, juda yaxshi xanjar,- dedi Voronsov o'rtasidan yo'l tushgan, o'tkir po'lat xanjarni yarmiga qadar sug'urib ko'rib.-

Rahmat, dedingmi?

- Undan so'ra, men nima bilan uni xursand qila olaman,- dedi Voronsov tarjimonga.

Tarjimon tarjima qilib berdi. Hojimurod shu zahotiyoy hech narsa kerak emasligini, ammo uni namoz o'qish mumkin bo'lgan bir joyga olib borishlarini iltimos qilishini aytdi. Voronsov xizmatchini chaqirib, Hojimurodning istagini bajo etishni buyurdi.

Hojimurod o'ziga berilgan uyda yolg'iz qolishi bilanoq yuzi o'zgardi: zavq va haligi muloyimlik, haligi tantana ifodasi yo'qoldi, ular o'rniga tashvish ifodasi cho'kdi.

Uning Voronsov tomonidan qarshi olinishi, o'zi kutgandan ko'p daraja yaxshi bo'ldi. Ammo bu qarshi olish qancha yaxshi bo'lsa, Hojimurod Voronsovga va uning ofitserlariga shuncha oz ishonardi: u hamma narsadan - uni ushlab, oyoq-qo'lga kishan solib Sibirga jo'natishlaridan yoki to'g'ridan-to'g'ri o'ldirishlaridan qo'rqr, shuning uchun ham sergaklanib turar edi.

U, yoniga kelgan Eldordan: muridlar qayerga joylandilar, otlar qayerda, ularning qurollarini olib qo'ymadilarmi, deb so'radi.

Eldor otlarning knyaz' otxonasida ekanligini, kishilarni saroyga joylashtirganlarini, qurollarini o'zlarida qoldirganliklarini va tarjimon ularni ovqat ham choy bilan mehmon qilayotganini aytdi.

Hojimurod hayron bo'lib bosh chayqadi, so'ng yechinib, namoz o'qishga kirishdi. U namozni o'qib tugatgach, kumush xanjarini keltirib berishni buyurdi. U kiyinib belbog'ini bog'ladi-da, bundan so'ng nima bo'lishini kutib taxtaga chiqib o'tirdi.

Soat beshlarda uni knyaznikiga ovqatga chaqirdilar.

Hojimurod ovqat vaqtida palovdan boshqa hech narsa yemadi, palovni ham tovoqning xuddi Mariya Vasil'evna o'ziga suzib olgan yeridan olib tarelkaga soldi.

- U, bular zaharlab qo'yishmasin, deb qo'rqayotibdi,- dedi Mariya Vasil'evna eriga.- U xuddi men olgan joydan oldi.- So'ng shu zamoniyoq tarjimon orqali, yana qachon namoz o'qishini so'rab, Hojimurodga murojaat qildi. Hojimurod besh barmog'ini ko'tarib, quyoshni ko'rsatdi.

- Demak, yaqin qolibdi.

Voronsov yonidan bregetini oldi-da, murvatini bosdi, soat to'rtu chorakka urdi. Bu tovush, aftidan, Hojimurodga qiziq tuyuldi shekilli, u yana jaranglatishini va soatni ko'rsatishni so'radi.

- Voila l'occasion. Donnez-lui la montre , - dedi Mariya, Vasil'evna eriga.

Voronsov shu zamoniyoq soatni Hojimurodga taqdim qildi. Hojimurod qulluq qilib, soatni oldi. U bir necha bor murvatni bosdi, quloq soldi va ma'qullab boshini qimirlatdi.

Ovqatdan so'ng knyazga Meller-Zakomel'skiyning ad'yutanti kelganini xabar qildilar.

Ad'yutant knyazga, general Hojimurodning qo'shilganini bilib, bu haqda unga xabar qilinmaganligidan juda norozi bo'lganini va Hojimurodni tezda uning oldiga yetkazishni talab qilganini bildirdi. Voronsov generalning buyrug'i bajarilishini aytdi, so'ng tarjimon orqali Hojimurodga generalning talabini eshittirib, undan o'zi bilan birga Mellerning oldiga borishni iltimos qildi.

Mariya Vasil'evna ad'yutantning nima uchun kelganini bilgach, darhol eri bilan general o'rtasida ko'ngilsiz bir voqea yuz berishi mumkinligini angladi va erining har qancha rad qilishiga qaramasdan, ular bilan birgalikda general oldiga borgani otlandi.

- Vous freiz beaucoup mieux de restez; c'est mon affaire mais pas la votre .

- Vous ne pouvez pas m'empêcher d'aller voir madame la denerale .

- Boshqa vaqtda borsang bo'lar edi.

- Men hozir borishni istayman.

Iloj yo'q edi. Voronsov ko'ndi va uchalasi birga ketdi.

Ular ichkariga kirgach, qovog'i solingan Meller Mariya Vasil'evnani odob bilan xotinining oldiga kuzatib qo'ydi, ad'yutantga esa Hojimurodni qabulxonaga olib kirishni va uning buyrug'i bo'lmaguncha hech qayoqqa chiqarmaslikni buyurdi.

- Marhamat,- dedi u Voronsovg'a, kabinetning eshigini ochib va knyazni o'zidan oldin kabinetga kirgizib.

U kabinetga kirgach, knyazning qarshisida to'xtadi va uni o'tirishga taklif qilmay:

- Bu yerda harbiy boshliq menman, shuning uchun ham dushman bilan bo'ladigan butun muzokara men orqali bo'lishi kerak. Nima uchun siz Hojimurodning qo'shilishi haqida menga xabar bermadingiz?

Voronsov g'azablangan generalning qo'pol muomala qilishini kutish orqasidan vujudga kelgan hayajondan oqarib va shu bilan birga o'zi ham g'azabga kelib:

- Mening yonimga elchi keldi va Hojimurodning menga qo'shilmoqchi bo'lganini aytdi,- deb javob berdi.

- Men, nima uchun menga xabar bermadingiz, deb so'rayapman!

- Men xabar bermoqchi edim, baron, ammo...

- Men sizga baron emas, balki janob oliylaridirman!

Baronning zo'rg'a bosib turgan g'azabi ana shu yerda birdan toshib ketdi. U ko'pdan beri dilida saqlab yurganlarining hammasini to'kib soldi.

- Men o'z podshohimga yigirma yetti yillik xizmatimni kechagina kelgan kishilar o'zlarining qarindoshlik aloqalaridan foydalanib, tumshug'imning tagida, ularga dahli bo'lmagan ishlarni boshqaraversinlar, deb qilgan emasman.

- Janob oliylari, nohaq narsalarni gapirmasligingizni so'rayman,- Voronsov uning so'zini bo'ldi.

- Men haqiqatni gapirayotibman va bunday ishlarga yo'l qo'ymayman...- dedi general yana battaroq g'azabga kelib.

Shu vaqtda yubkasini shildiratib Mariya Vasil'evna, uning orqasidan bo'yi pastroq, kamtar bir xonim Meller-Zakomel'skiyning xotini kirib keldi.

- Ha, yetar, baron. Simon sizni xafa qilmoqchi emasdi,- dedi Mariya Vasil'evna.

- Men, knyaginya, u haqda gapirayotganim yo'q...

- Qani, keling, yaxshisi shu gapni qo'yaylik. Bilasizmi, yomon munozara yaxshi janjaldan afzal. Men nima deyapman...- dedi Mariya Vasil'evna va kulib yubordi.

Achchiqlangan general go'zal xotinning jozibali tabassumiga taslim bo'ldi. Uning lablari jilmayib ketdi.

- Men nohaq ekanligimga iqorman,- dedi Voronsov,- lekin...

- Men ham qizishib ketdim,- dedi Meller va knyazga qo'lini berdi.

Yarashdilar. Hojimurodni hozircha Mellernikida qoldirishga, keyin so'l qanot boshlig'i oldiga yuborishga qaror qilindi.

Hojimurod qo'shni xonada o'tirardi. U garchi ularning gapirayotgan gaplariga tushunmasa-da, anglashi lozim bo'lgan narsani: ular uning haqida tortishayotganini va Shomildan ajralib kelishi ruslar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bir ish ekanini, shuning uchun ham agar uni surgunga yubormasalar va o'ldirmasalar, ulardan ko'p narsa talab qilishi mumkin ekanini angladi. Bundan tashqari u, Meller-Zakomel'skiy boshliq bo'lsa-da, uning qo'l ostidagi kishi Voronsov molik bo'lgan darajaga ega emasligini va Meller-Zakomel'skiy muhim emas, balki Voronsov muhim ekanini ham angladi. Shuning uchun ham Meller-Zakomel'skiy Hojimurodni o'z huzuriga chaqirib, gap so'ray boshlaganda, Hojimurod oqposhshoga xizmat qilish uchun tog'dan chiqib kelganini va butun narsa to'g'risida faqat uning sardoriga, ya'ni Tiflisdagi bosh qo'mondon knyaz' Voronsovg'a hisob berishligini aytib, o'zini tantanali va mag'rur tutdi.

VII

Yaralangan Avdeevni krepostdan chiqaverishdagi kichkina, taxta tomli binoga o'rnashtirilgan kasalxonaga olib keldilar-da, umumiy palatadagi bo'sh karavotlardan biriga yotqizdilar. Palatada to'rt kasal bor edi: biri - haroratning zo'ridan o'zini bilmay yotgan, terlama, ikkinchisi - rangi o'chgan, ko'zlarining taglari ko'karib ketgan, isitmaning xurujini kutib hadeb esnamoqda bo'lgan bezgak, yana ikkitasi bundan uch hafta burun bo'lgan urushda - biri panjasidan (bunisi turib yurgan edi,) ikkinchisi kaftidan (bunisi karavotda o'tirgan edi) yaralanganlar edi. Terlama kasaldan boshqa hammasi yangi yaradorni o'rab olishib, uni keltirgan kishilardan so'ray ketdilar.

- Ba'zan o'q yomg'irdek yog'sa ham hech narsa bo'lmaydi, bu safar esa hammasi bo'lib besh marta o'q uzildi, xolos,-

keltiruvchilardan biri gapirib berdi.

- Har kimning peshonasida.

Avdeev karavotga yotqizganlarida, og'riqqa chiday olmay qattiq:

- Voy!ВѢ”deb yubordi. Yotqizib bo'lganlaridan keyin esa, qovog'ini soldi-da, ortiq ingramadi, lekin oyoq uchlarini to'xtovsiz qimirlatib yotdi. U yarasini qo'li bilan ushlab, qimirlamasdan qarshisiga tikilmoqda edi. Doktor keldi va o'q orqadan chiqib ketganmi-yo'qmi, ko'rish uchun yaradorni ag'darib yotqizishni buyurdi.

- Bu nima?- doktor Avdeevning yelkasi va orqasidan kattakon, bir-biriga chalishtirilgan oq chiziqlarni ko'rsatib so'radi.

- Bu eski narsa, janob oliylarВѢ” dedi inqillab Avdeev.

Bu chiziqlar ichib bitirilgan pul uchun berilgan jazoning izlari edi. Avdeevni yana ag'dardilar, so'ng doktor zond bilan qornini uzoq kovladi, o'qni axtardi, lekin ololmadi. Doktor yaraga yopishqoq plastirni yopishtirib va uni bog'lab bo'lib ketdi, yarani kovlagan va bog'lagan vaqtda Avdeev tishini tishiga qo'yib, ko'zlarini yumib yotdi. Doktor ketgachgina u ko'zlarini ochdi va

taajjub bilan atrofiga qaradi. Uning ko'zlari kasallarga va fel'dsherga tikilgan, lekin u go'yo ularni ko'rmas, balki qandaydir uni hayron qoldiradigan boshqa bir narsalarni ko'rar edi.

Avdeevning o'rtoqlari - Panov va Seryoginlar kelishdi. Avdeev hamon o'sha holda, taajjub bilan qarshisiga tikilgancha yotardi. U, garchi ko'zlari to'ppa-to'g'ri o'rtoqlariga qarab turgan bo'lsa-da, anchagacha ularni taniy olmadi.

- Pyotrnga, uyingga aytib yuboradigan ishing yo'qmidi? B B dedi Panov.

Avdeev, garchi Panovning yuziga qarab turgan bo'lsa-da, javob bermadi.

- Men, uyingga aytib yuboradigan biror gaping yo'qmi, deya pman,- Panov uning suyagi yo'g'on qo'lini turtib, yana so'radi:

Avdeev xuddi uyg'ongandek bo'ldi.

- Ha, Antonich?

- Ha, mana keldim. Uyingga biror narsa aytib yubormaysanmi? Seryogin yozib yuboradi.

- Seryogin,- dedi Avdeev zo'rg'a Seryoginga boqib,- yozasanmi?.. Ha, xo'p, yoz bo'lmasa: "Sizning o'g'lingiz Petruxa, degin, uzoq umr tilaydi..." Akamga hasad qilgan edim. Men senga burun gapirib edim. Endi bo'lsa, o'zim xursandman. Mayli, yashasin. Tangri unga uzoq umr bersin, men xursandman. Xuddi shunday yoz.

Bu gaplarni aytib bo'lgach, ko'zlarini Panovga tikib, uzoq vaqt jim qoldi.

- Xo'sh, trubkani topdingmi? B B u birdan so'radi. Panov javob bermadi.

- Trubkani, trubkani topdingmi, deya pman,- Avdeev takrorladi.

- Sumkada ekan.

- Ha, ha, qani endi menga sham beringlar, men hozir o'laman,- dedi Avdesv.

Shu vaqtda o'z soldatini ko'rgani Poltoratskiy kelib qoldi.

- Xo'sh, uka, holing og'irmi?- dedi u.

Avdeev ko'zini yumdi va yo'q, deb boshini chayqadi. Uning yonoq suyagi irg'ib chiqqan, yuzi - qonsiz va qat'iy qiyofada edi. U hech qanday javob bermadi va faqat Panovga murojaat qilib:

- Sham ber, o'laman! B B deb takrorladi.

Uning qo'lga sham berdilar, lekin barmoqlari bukilmadi, so'ng shamni barmoqlarining orasiga qistirib ushlab turdilar. Poltoratskiy ketdi, u ketgach, besh minutdan so'ng fel'dsher qulog'ini Avdeevning yuragiga qo'yib ko'rdi-da, uning o'lganini aytdi.

Tiflisga yuborilgan ma'lumotda Avdeevning o'limi quyidagicha ta'rif qilingan edi: "28 noyabrda Kurinskiy polkining ikkinchi rotasi daraxt kesish uchun krepostdan chiqdi. Tush vaqtida tog'liqlar to'dasi daraxt kesuvchilarga qo'qqisdan hujum qildi. Saf chekina boshladi, shu vaqtda ikkinchi rota nayza o'qtalib tog'liqlarni qochirdi. Bu urushda ikki soldat yaralandi va biri o'ldi. Tog'liqlar esa o'lgan va yaralanganlar bo'lib yuzga yaqin kishi yo'qotdilar".

VIII

Petruxa Avdeev Vozdvijenskiy kasalxonasida o'lgan kuni uning chol otasi, kichik akasining xotini va katta akasining birovga unashib qo'yilgan qizi - hammalari xirmonda sulii yanchar edilar. Bir kun burun qalin qor yoqqan va ertalab qattiq sovuq bo'lgan edi. Chol saharlab, xo'rozlar uchinchi chaqirgandayoq turdi, u muzlab qolgan oynadan oyning yorug' shu'lasini ko'rib, pechkadan tushdi, etigini, po'stinini, shapkasini kiydi, so'ng xirmonga qarab ketdi. U yerda ikki soatcha ishlagandan keyin, uyga qaytib keldi va o'g'li bilan xotinlarni uyg'otdi. Xotinlar bilan qiz xirmonga kelganlarida xirmon tozalangan, to'zg'uvchi oppoq qorga suqilgan holda yog'och kurak va uning yonida boshi osmonga qaratilgan supurgi turar, toza xirmon atrofida boshloqlari bir-biriga taqalgan sulii bog'lari uzunasiga ikki qator qilinib terib qo'yilgan edi. Ular to'qmoqlarini oldilar va uch zarbni bir qolipda oldinma-ketin urib, sulini yancha boshladilar. Chol somonlarni parchalab, og'ir to'qmoq bilan qattiq urar, qiz ham bir qolipdagi zarb bilan tepadan urar, kelin bo'lsa ag'darib turar edi.

Oy botib, kun yorisha boshladi, kalta po'stin va shapka kiygan katta o'g'il - Akim, ishlayotganlarning oldiga chiqdi, bu choq yoyib qo'yilgan sulii yanchilib bo'lgan edi.

- Sen nega tanballik qilasan?- deb baqirdi otasi yanchishdan to'xtab, to'qmoqqa suyanib turib.

- Otlarga qarash kerakmi axir.

- Otlarga qarash emish, - dedi otasi zaharxanda bilan. - Kampir qaraydi. To'qmoqni ol. Juda semirib qolibsan, piyanista.

- Nima, sen ichirdingmi,- deb to'ng'illadi o'g'li.

- Nima? B B chol xo'mrayib va yanchishdan to'xtatib turib, po'pisa bilan so'radi.

O'g'li indamasdan to'qmoqni oldi, ish to'rt to'qmoq bilan davom etdi, tap-tapa-tap, tap-tapa-tap..- Tap,- uch zarbdan so'ng cholning og'ir to'qmog'i tushar edi.

- Gardanini qara-ya, xuddi bo'rdoqi qo'ynikideka. Mening bo'lsa lipam ham joyida turmaydi,- dedi chol zarbni o'tkazib va urishning maqomi yo'qolmasin uchun to'qmog'ini havoda aylantirib qo'yib.

Qatorni tamomladilar, so'ng xotinlar tirma bilan somonni ola boshladilar.

- Sening o'rningga ketgan Petruxa ahmoq. Soldatlikka sening ahmoqligingni qoqib qo'ygan bo'lardilar, u bo'lsa uyda sandaqa larning beshtasiga arzir edi.

- Xo'p, bo'ldi, endi, ota,- dedi kelini uzilgan bog'larni nari itarib tashlayotib.

- Ha, ham mangni o'zim boqsamu bittang ham ishlamasang-da? Petruxa bitta o'zi ikkitangning ishini qilar edi, senlardaqa...

Hovlidagi toptalgan yo'ldan, puxta qilinib o'ralgan jun paytava ustiga kiyilgan yangi po'stloq kavush bilan qorni g'irchillatib bosib kimdir keldi. Erkaklar sovrilmagan donni kurak bilan bir yerga to'plamoqda, xotin-qizlar supurmoqda edilar.

- Oqsoqol kirgan edi, hamma xo'jayinga g'isht tashib berishi kerak ekan,- dedi kampir.- Men nonushta hozirladim. Yura qolinglar.

- Xo'p, otni qo'shib bora qol,- dedi chol Akimga.- Menga qara, yana bir kungiday bo'lib, sening uchun javob berib yurmaylik.

Petruxani eslagin.

- Petruxa uyda ekanligida uni so'kar edi, endi,- Akim otasiga o'shqirdi,- u yo'q, meni g'ajiydi.

- O'zingdan ko'r,- dedi onasi ham jahl bilan.- Seni Petruxa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

- Xo'p, bo'ldi!- dedi o'g'li.

- Ha, ha, bo'ldi, unni sotib ichib odoq qilding, endi esa bo'ldi deysan.

- O'tgan ishga salovat,- dedi kelin.

Ota bilan o'g'il o'rtasida kelishmovchilik ko'pdan, deyarli Pyotrni soldatlikka bergan vaqtdan boshlangan edi. Chol o'sha kezdayoq

kakkuni qirg'iyga alishtirganini sezgan edi. To'g'ri, cholning anglashiga ko'ra, qonunga muvofiq bola-chaqalikning o'rniga bolasizning ketishi lozim edi. Akimning to'rt bolasi bor, Pyotrning esa hech kimi yo'q, ammo ish vajidan u ham xuddi chol kabi chaqqon, ziyrak, baquvvat, chidamli va hammadan muhimi ishsevar edi. U tinimsiz ishlardi. Agar u ish qilayotgan kishilarning yonidan o'tgudek bo'lsa, xuddi cholga o'xshab, darrov yordamlasha ketar, yo chalg'i bilan ikki qator borib kelar, yuk ortishib yuborar, yo daraxt kesishar, yoki o'tin yorishib berar edi. Chol unga achinar, ammo hech narsa qilish mumkin emasdi. Soldatlik xuddi o'lim singari narsa edi. Soldat kesilib olingan bir luqma u haqda o'ylash, jon kuydirish - behuda edi. Faqat ahyon-ahyonda katta o'g'lini chimchib olish uchun chol burungi singari, uni eslab qo'yar edi. Ona esa kichik o'g'lini tez-tez o'ylab turar va qariyb ikki yildan beri choldan Petruxaga bir oz pul yuborishni so'rar edi. Lekin chol indamay keldi.

Avdeevlar oilasi boy va cholning bекitib qo'ygan pullari ham bor, ammo u, bu pullarga hech tekisi kelmas edi. Hozir kampir cholning kichik o'g'lini xotirlaganini eshitgach, undan yana sulii sotilganda u o'g'liga hech bo'lmaganda bir so'm yuborishni so'rashga qaror qildi. U shunday ham qildi. Yoshlar xo'jayinning xizmatini qilgani ketganlaridan so'ng, chol bilan ikkisi qolishdi, kampir sulining pulidan Petruxaga bir so'm yuborishga erini ko'ndirdi. Sovurilgan xirmondan o'n ikki chorak sulii uch chanaga mo'ljallanib qanorlarga solingan va qanorlarning og'zi yog'och to'g'nag'ichlar bilan puxta qilinib to'g'nalgach, kampir o'zi aytib turib xalfaga yozdirgan xatni cholga berdi, chol shaharda xatning yoniga bir so'm qo'shib adres bo'yicha yuborishga va'da qildi. Yangi po'stin va kamzul kiygan, toza oq jun paytava o'rab olgan chol xatni olib hamyoniga joyladi va tangriga ibodat qilib, oldingi chanaga o'tirdi-da, shaharga qarab jo'nab ketdi. Keyingi chanalarda nabirasi kelardi. Chol shaharda saroybonga xatni o'qitib ko'rdi va uni ma'qullab diqqat bilan tingladi.

Onasining Petruxaga yuborgan xatida, birinchidan, duo, ikkinchidan, hammadan salom, Petruxani chaqaloq kezida cho'qintirgan kishining o'lganligi haqidagi xabar va eng oxirida Aksin'ya (Pyotrning xotini)ning ular bilan birga turishni istamagani va boshqa yerga xizmatchi bo'lib ketib ham, eshitishlariga qaraganda, yaxshi yashayotgani to'g'risida yozilgan edi. Xatda, kampirning yig'lab turib, to'g'ridan-to'g'ri o'z og'zidan xalfaga aytib turib so'zma-so'z yozdirgan tubandagi gaplari ham ilova qilingan edi.

"Yana so'z shulki, jonim bolam, qo'zichog'im Petrushkam, seni sog'inib yig'lay-yig'lay ko'zim ko'r bo'ldi. Oftobim, sen meni kimlarga qoldirib ketding..." Shu yerga kelganda kampir ho'ngrab yig'lab yubordi-da:

- Bo'ldi,- dedi.

Xatda ham xuddi shunday bo'lib qoldi, lekin na xotinining uydan ketib qolganligi haqidagi xabarni, na bir so'm pulni olish va na onasishshg so'nggi so'zlarini o'qish Petruxaga nasib qildi. Bu xat va pul, Petruxa podshoni, vatanni va xristian dinini himoya qilib, urushda o'ldi, degan xabar bilan birga qaytib keldi. Harbiy mirza shunday deb yozgan edi.

Kampir bu xabarni eshitib, toza dodladi, keyin yana ishga tushib ketdi. Birinchi yakshanbadayoq u cherkovga bordi, aza tutdi. Pyotrni o'lganlarning ro'yxatiga yozdirib qo'ydi va tangrining qo'li Pyotrning xotirasi uchun xayrli kishilarga "tabarruk" nonni maydalab ulashdi.

U bilan faqat bir yilgina umr ko'rgan Aksin'ya ham sevgili erining o'lganini eshitib dod soldi. U ham eriga, ham o'zining xarob bo'lgan butun turmushiga achinar va faryod ichida Pyotr Mixaylovichning chiroyli sochini, uning muhabbatini, ham o'zining yetim Van'ka bilan o'tkazgan achchiq turmushini xotirlar va har kimning eshigida sargardon bo'lib yurgan sho'rlik xotiniga emas, balki akasiga achinganligi uchun Petrushkadan qattiq o'pka qilar edi.

Yuragining teran joyida esa Aksin'ya Pyotrning o'lganiga xursand edi. U, hozir uyida yashab turgan prikazchikdan yana bo'yida bo'lib qolgan, endi uni hech kim urisha olmas ham prikazchik, uning ko'nglini topgan vaqtda aytganiga qaraganda, unga uylanishi mumkin edi.

IX

Angliyada tarbiyalangan, rus elchisining o'g'li Mixail Semyonovich Voronsov, yuqori rus mansabdorlari orasida o'sha vaqtlarda kam uchraydigan Yevropa tahsilini ko'rgan, shuhratparast, o'zidan past darajadagi kishilarga nisbatan muloyim, mehribon va o'zidan yuqori bo'lganlarga, nisbatan maxsus nozik muomala qiluvchi kishi edi. U hokimliksiz va mahkumliksiz hayotni tan olmas edi. U barcha yuqori mansablarga va ordenlarga ega usta harbiy bo'lib, hatto Kraon yaqinidagi Napoleonni yenggan kishi sanalar edi. U 51-yilda yetmishdan oshgan bo'lsa-da, hali baquvvat, tetik harakat qilar va hammadan muhimi, o'z hukmronligini saqlash va o'z shuhratini barqaror qilish ham taratishga qaratilgan nozik va o'tkir aqlning butun mahoratiga ega edi. U katta boylikka - ham o'ziniki, ham xotini grafinya Branitskayaga qarashli boylikka va podshoh vakili sifatida oladigan juda ko'p maoshga ega bo'lib, o'z mablag'ining ko'p qismini Qrimning janubiy sohilida bino qilinayotgan saroy va bog' qurilishiga sarf qilar edi.

1851 yilning 7 dekabrda kechqurun uning Tiflisdagi saroyi oldida uch ot qo'shilgan xabarchi arava kelib to'xtadi. Charchagan, jangdan tamom qorayib ketgan, Hojimurodning ruslarga qo'shilganligi haqida general Kozlovskiydan xabar keltirgan ofitser, uvishib qolgan oyoqlarini uqalab, qorovullarning yonidan o'tib, saroyning keng zinasidan ichkariga kirib ketdi. Voronsovg a xabarchi kelganligini aytganlarida kechqurun soat olti bo'lib, u ovqat qilgani ketmoqda edi. Voronsov xabarchini darhol qabul qildi, shuning uchun ham ovqatga bir necha minut kechikdi.

U mehmonxonaga kirgan vaqtda, stolga taklif qilingan knyaginya Yelizaveta Ksaver'evnaning atrofida o'tirishgan o'ttiztacha kishi va to'dalashib derazalar oldida turganlar o'rinlaridan qo'zg'aldilar-da, yuz o'girib, kiruvchiga qaradilar. Voronsov o'zining odatdagi qora harbiy epoletisiz, yarim pogon taqilgan syurtugida bo'lib, bo'yniga oq but taqib olgan edi. Uning qirilgan yuzi muloyimgina jilmayar va ko'zlari atrofda qilarga qarab suzilar edi.

U sharpasiz ildam bosib ichkariga kirdi va kechikib qolgani uchun xotinlardan uzr so'radi, erlar bilan salomlashdi, so'ng 45 yoshli sharqliklarga o'xshab ketadigan to'la, novcha gruzin knyaginyasi go'zal Manana Orbelianining oldiga kelib, uni stolga olib borish uchun qo'l berdi. Knyaginya Yelizaveta Ksaver'evna tikandek dag'al mo'ylovli, malla kelgindi generalga o'zi qo'l uzatdi. Gruzin knyaz', knyaginyaning o'rtog'i grafinya Shuazyolga qo'lini berdi. Doktor Andreevskiy ad'yutantlar va boshqalar,- kimlar xonimlar bilan, kimlar shunday o'zlari oldingi ikki juftning orqasidan ketdilar. Kaftan, paypoq va boshmoq kiygan lakeylar, stullarni nari-beri surib o'tirayotganlarga yordamlashdilar, metrdotel' kumush kashkuldan bug'i chiqib turgan sho'rvani tantana bilan idishlarga quya boshladi.

Voronsov uzun stolning o'rtasiga o'tirdi. Uning qarshisida xotini knyaginya general bilan o'tirdi. Uning o'ng tomonida go'zal Orbeliani, chap tomonida - qomati zebo, qora, ikki beti qip-qizil, yaltiroq zebu ziynatlar taqingan, hech to'xtovsiz jilmayuvchi gruzin knyajnasi o'tirdi.

- Yexsellentes, chere amie, - knyaginyaning qanday xabar keltirildi, degan savoliga javob berib, - Simon a eu de la chance , - dedi.

Keyin u stol atrofida o'tirganlarning hammasi ham eshita oladigan qilib, Shomilning mashhur va eng bahodir yordamchisi bo'lgan Hojimurod ruslar tomoniga o'tibdi, u bugun-erta Tiflisga keltiriladi, degan ajoyib yangilikni gapirib bera boshladi. Bu faqat uning uchungina unchalik yangilik emasdi. Chunki Hojimurod bilan bo'lgan muzokara ko'pdan beri davom etardi.

Ovqat qilayotganlarning hammasi, hatto stolning uzoq burchagida o'tirishgan va bungacha allanima to'g'risida gapirishib, sekin kulishayotgan yoshlar, ad'yutantlar va ma'murlar jim bo'lib quloq soldilar.

- Xo'sh, general, Hojimurodni sira uchratganmisiz?- knyaz' gapini tugatgach, knyaginya yonida o'tirgan tikandek dag'al mo'ylovli, malla generaldan so'radi.

- Bir necha marta uchratganman, knyaginya.

So'ng general 43-yili tog'liklar Gergebilni olganlaridan keyin, Hojimurodning general Passekning otryadiga to'qnash kelganini va ularning ko'z oldida polkovnik Zolotuxinni o'ldirib qo'yishiga oz qolganini aytib berdi.

Voronsov, generalning gapga kirishib ketganidan mamnun bo'ldi chog'i, uning so'zlarini iljayib turib tingladi. Lekin Boronsovning chehrasi birdan parishon va ma'yus bir ifoda kasb etdi.

Gapga tushib ketgan general Hojimurod bilan bo'lgan yana boshqa to'qnashuvi to'g'risida so'zlab bera boshladi.

- Axir,- dedi general,- janobi oliylari, esingizdami, oziq ekspeditsiyasi vaqtidagi bizni qamal qilgan va qutqazib olishga majbur qilgan shu edi-da.

- Qayerda?- Voronsov ko'zlarini suzib, takroran so'radi.

Botir general "qutqazib" olish deb talafotli Darg'in yurishida yuz bergan ishni aytardi. Haqiqatan ham bu yurishda, agar madadga kelgan qo'shin qamalda qolganlarni qutqazib olmasa, butun askar, ularga qo'mondonlik qiluvchi knyaz' Voronsov bilan birga halok bo'lardi. Ruslardan talay kishi o'lgan va yarador bo'lgan, bir qancha to'p boy berilgan. Voronsov boshchiligi ostida Darg'in yurishining sharmandali bir voqea bo'lgani hammaga ma'lum edi, shuning uchun ham biror kishi Voronsov oldida bu yurish haqida gapirgunday bo'lsa, faqat Voronsov bu yurish yuzasidan podshoga yozgan ma'lumot mazmunida, ya'ni bu yurish rus qo'shinining mumtoz muzaffariyati edi, degan mazmunda gapirar edi. "Qutqazib olish" so'zi esa to'g'ridan-to'g'ri bu yurishning mumtoz qahramonlik emas, balki ko'p kishilarni halok qilgan yanglishuv ekanini ko'rsatardi. Buni hamma angladi, lekin bu yerdagilarning ba'zilar general tomonidan gapirilgan so'zlarning ahamiyatini tushunmaganday bo'lib ba'zilar esa iljaygan holda bir-birlariga qarashib oldilar.

Faqat qattiq qilmo'ylov sariq generalgina hech narsani payqamadi va o'z hikoyasiga qiziqib ketib, bahuzur javob berdi:

- Qutqazib olgan-da, janob oliylari.

So'ng sevgan mavzuga berilib ketgan general mufassal ravishda Hojimurodning juda chaqqonlik bilan otryadni ikkiga bo'lib yuborganini, agar qutqazib olgani,- u alohida bir muhabbat bilan "qutqazib olgani" so'zini takrorladi,- kelmaganlarida butun otryad o'sha yerda qolishini so'zlab berdi.

General aytmoqchi bo'lgan narsaning hammasini aytib ulgura olmadi, chunki Manana Orbeliani, gapning nimadan iborat ekanini anglab, generalga Tiflisdagi imoratning qulayliklari haqida savol berib, uning so'zini bo'ldi. General hayron bo'ldi, hammaga va stolning oxirida o'tirgan, ma'noli ko'z qisib astoydil tikilmoqda bo'lgan o'z ad'yutantiga qarab chiqdi va birdan masalani angladi. U knyaginyaning savoliga javob bermasdan, qovog'ini soldi, jim bo'ldi va oldidagi tarelkada turgan, uning uchun ko'rinishi va hatto mazasi ham yot bo'lgan, nozik taomni shoshilgan holda, chaynamasdan yuta boshladi. Hamma o'ng'aysizlandi, lekin vaziyatning noqulayligini knyaginya Voronsovaning narigi tomonida o'tirgan, saroy korchalonlaridan biri bo'lmish gruzin knyazi to'g'rilab yubordi. Bu tabiatan kaltafahm bo'lsa-da, tilyog'lamalik qilishga juda usta edi. U, go'yo hech narsani sepmaganday bo'lib qattiq ovoz bilan Hojimurodning mextulilik Ahmadjonning xotinini o'g'irlaganini aytib bera boshladi.

- Kechasi qishloqqa kirib o'ziga kerak narsani olganda, o'z askarlari bilan jo'nab qolgan.

- Nima uchun unga xuddi o'sha xotin kerak bo'libdi?БѢ”deb so'radi knyaginya.

- Chunki Hojimurod uning eriga dushman bo'lgan, uni ta'qib qilib yurgan, ammo xonni to'lgunigacha hech yerda duch keltira olmagan, shundan keyin o'chini bevadan olgan.

Knyaginya bu gapni, gruzin knyazining yonida o'tirgan eski o'rtog'i grafinya Shuazyolga fransuzcha tarjima qilib berdi.

- Quell horreur! janob, - dedi grafinya ko'zlarini yumib va boshini chayqatib.

- O, yo'q,- dedi Voronsov iljayib,- menga, "u, asirga olijanob hurmat bilan muomala qilgan, so'ng bo'shatib yuborgan" deb aytdilar.

- Ha, aqcha barobariga.

- Ha, turgan gap, lekin u har holda bama'ni ish qilgan.

Knyazning bu so'zlari Hojimurod haqidagi bundan keyingi gaplarga yo'l ochdi. Saroyga mansub bo'lgan kishilar Hojimurodga qancha ko'p ahamiyat bersalar, knyaz' Voronsovga shuncha ko'ngilli bo'lishini angladilar.

- Bu kishida juda ajoyib jasorat bor. Juda mumtoz odam!

- Bo'lmasa-chi, u 49-yilda kuppa-kunduzi Temirxon-Shuraga bostirib kirib, do'konlarni talagan.

Stulning oxirida o'tirgan, o'sha vaqtda Temirxon-Shurada bo'lgan armani, Hojimurodning bu qahramonligi haqidagi tafsilotlarni so'zlab berdi. Umuman, butun ziyofat Hojimurod haqida hikoya qilish bilan o'tdi. Hamma bir og'izdan uning botirligini, aqlli, olijanobligini maqtashdi. Kimdir biron uning yigirma olti asirni o'ldirishga buyurganini gapirdi, ammo bunga ham odatdagicha e'tiroz bildirildi.

- Nima qilsin. A la guerre comme a la guerre .

- U zabardast.

- Agar u Yevropada tug'ilgan bo'lsa, ehtimol yangi Napoleon bo'lar edi,- dedi xushomadgo'y esi past gruzin knyazi.

U Napoleonni har qanaqasiga xotirlash ham, uning ustidan g'alaba qozongani uchun oq but taqib yurgan Voronsovga xush kelishini bilardi.

- Ha, garchi Napoleon bo'lmasa-da, chaqqon otliqlar generali bo'lar edi,- dedi Voronsov.

- Agar Napoleon bo'lmasa Myurat bo'lardi.

- Ha, uning nomi ham Hojimurod.

- Hojimurod bizga qo'shilgan bo'lsa, Shomil ham tugadi, deyavering,- dedi allakim.

- Ular endi (bu "endi" so'zi Voronsov vaqtida degan ma'noni berardi) chidash berolmaydilar,- dedi boshqa biron.

- Tout cela est grace a vous , - dedi Manana Orbel'yani.

Knyaz' Voronsov o'zini ko'mib yubormoqda bo'lgan xushomadgo'yliklarni bosmoqqa urindi. Lekin bu xushomadlar unga xush yoqardi va u g'oyat xursand holda o'z xonimini stol yonidan mehmonxona tomon olib ketdi.

Knyaz' ovqatdan so'ng, mehmonxonaga kofe olib kirilganda, hamma bilan ham juda xushmuomalada bo'ldi va tikanday dag'al mo'ylovli malla generalning yoniga kelib, uning noqulay vaziyatda qolganini sezmaganligini ko'rsatishga urindi.

Hamma mehmonlarni aylanib o'tgandan so'ng, knyaz' karta o'ynagani o'tirdi. U faqat juda eski o'yin bo'lgan lumber o'yininigina o'ynar edi. Knyazga gruzin knyazi, keyin, knyazning xizmatchisidan lumber o'yinini o'rganib olgan arman generali va to'rtinchi - o'z hukmronligi bilan dong chiqargan doktor Andreevskiy ulfat bo'ldilar.

Xizmatchi, ital'yan Jovani kumush patnisda xat olib kirgan vaqtda Voronsov, oldiga Aleksandr I ning rasmi solingan oltin tamaki qutini qo'yib, atlas kartani shilib, uni endi suzmoqchi bo'lib turgan edi.

- Yana xabarchi keldi, janob oliylari.

Voronsov kartani yerga qo'ydi va avf so'rab, xatni olib o'qiy boshladi.

Xat o'g'lidan edi. U, xatida Hojimurodning qo'shilganligini va Meller-Zakomel'skiy bilan bo'lgan mojaroni yozgan edi.

Knyaginya erining yoniga kelib, o'g'lining nima yozganligini so'radi.

- Yana o'sha haqda. Al a eu quelques desagrements avec le commandaut de la place. Simon a eu tort . But all is well what ends well - dedi knyaz', xatni xotiniga berib, so'ng odob bilan uni kutib turishgan ulfatlariga murojaat qilib, kartani qo'llariga olishlarini so'radi.

Birinchi qo'lni berib bo'lgandan so'ng, Voronsov tamaki qutisini ochdi va juda xursand vaqtlarida qiladigan qilig'ini qildi, qarilarga xos ravishda ajin bosib ketgan oppoq qo'li bilan bir chimdim fransuz tamakisidan oldi-da, burnining tagiga olib kelib iskadi.

X

Ertasi Hojimurod Voronsovning oldiga kelganida knyazning qabulxonasi odam bilan liq to'la edi. Bu yerda formasini to'la kiygan va ordenlarini taqib, knyazni ziyorat qilib ketgani kelgan tikanday dag'al mo'ylovli kechagi general ham; yana polkning oziq-ovqatini suiste'mol qilgani uchun sudga tushish xavfi bo'lgan polk komandiri ham; davlatdan mayxonalarni sotib olgan va endi shartnomani yangilash uchun harakat qilib yurgan, doktor Andreevskiy tomoni himoya qilinadigan boy armani ham hozir edi. Bu yerda, boshdan-oyoq qora kiygan - pensiya yoki bolalarini yetimxonaga joylashtirishni so'rab kelgan, o'ldirilgan bir ofitserning beva xotini ham bor edi. Bu yerda xonavayron bo'lgan, yopilgan cherkov yerlarini o'ziga olmoq uchun harakat qilib yurgan, bashang kiyingan gruzin knyazi ham bor edi. Bu yerda Kavkazni bo'ysundirishning yangi loyihasini ko'tarib kelgan pristav ham hozir edi. Bu yerda uyiga borib, men knyazning huzurida bo'ldim, deb maqtanish uchungina kelgan bir xon ham bor edi. Hamma navbat kutmoqda va chiroyli, malla sochli yosh yigit - ad'yutant ularni birin-sirin knyazning kabinetiga olib kirib turmoqda edi.

Qabulxonaga zalvarli dadil qadam tashlab, sal oqsoqlanib Hojimurod kirib keldi, hamma unga qaradi va u har tarafdan shivirlab aytilayotgan o'z nomini eshitdi.

Hojimurod, yoqasiga kumush jiyak tutilgan jigarrang kamzul ustidan uzun oq cherkaska kiyib olgan edi. Oyog'ida qora nogovitsa va xuddi qo'lqop singari tovoniga tarang bo'lib yopishib turgan chuvak, boshida - papaxga o'ralgan salla bor edi, salla - Ahmadxonning chaqig'i bilan Hojimurodning general Klyugenau tomonidan qamalishiga va Shomilga o'tib ketishiga sabab bo'lgan - hov, o'sha salla edi. Hojimurod kaltaroq oyog'iga sal oqsoqlanganidan butun kelishgan qomati bilan chayqalib, qabulxonaning parket polidan tez qadam tashlab kelardi. Uning katta-katta ko'zlari ilgariga jo'ngina qarar va hech kimni ko'rmayotganga o'xshar edi.

Xushbichim ad'yutant, ko'rishib bo'lib, Hojimuroddan knyazga xabar berguncha o'tirib turishlikni so'radi. Lekin Hojimurod o'tirmadi, u qo'lini xanjariga tirab, oyoqlarini kergan holda, atrofdagilarga rashk bilan qarab tikka turaverdi.

Tarjimon knyaz' Tarxanov Hojimurodning yoniga kelib, u bilan gaplasha boshladi. Hojimurod istamasdan, kalta-kalta javob berdi. Pristavning ustidan arz qilib kelgan qo'miq knyazi kabinetdan chiqdi, uning orqasidan ad'yutant Hojimurodni chaqirdi va uni kabinetning eshigiga olib keldi-da, ichkariga kirgizib yubordi.

Voronsov Hojimurodni stolning chekkasida tikka turib qabul etdi. Bosh qo'mondonning kekxa oq yuzi kechagiga o'xshash tabassum qiluvchi emas, balki ko'proq jiddiy va tantanali edi.

Hojimurod katta stol o'rnatilgan va zangori jaluzalar tutilgan zo'r derazalari bor ulkan xonaga kirgach, oftobda kuylan rosmama qo'llarini ko'kragiga qo'yib o'tirib, o'zi yaxshi gapiradigan qo'miq lahjasida ko'zlarini pastga olib, shoshilmasdan, dona-dona qilib, hurmat bilan dedi:

- Ulug' podshoh va sizning himoyalarigizga sig'inib keldim. Sadoqat bilan, bir tomchi qonim qolguncha oqpodshohga xizmat qilishga va'da beraman va sizning ham, mening ham dushmanimiz bo'lgan Shomil bilan bo'lajak urushda foydam tegar, deb umid qilaman.

Voronsov tarjimonning so'zini eshitib bo'lgach, Hojimurodga qaradi, Hojimurod ham Voronsovning yuziga boqdi.

Bu ikki kishining ko'zlari bir-birlari bilan uchrashdilar va bir-birlariga ko'p so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydigan va tarjimon aytgan gaplardan tamom boshqa narsalarni gapirdilar. Ular bir-birlariga to'g'ridan-to'g'ri, so'zsiz hamma haqiqatni aytib berdilar:

Voronsovning ko'zlari Hojimurod gapirgan so'zlarning bittasiga ham ishonmasligini, Hojimurod butun ruslarning dushmani ekanini va doimo shunday bo'lib qolishligini, hozir esa bo'ysunishga majbur bo'lgani uchun taslim bo'layotganini bilganini gapirardi. Hojimurod ham buni anglar va har holda o'zining sodiq ekanligini inontirishga tirishar edi. Hojimurodning ko'zlari esa, bu chol rus urushi haqida emas, balki o'lim haqida o'ylashi kerak, ammo u, garchi qari bo'lsa-da, hiylakordir, u bilan ehtiyot bo'lib muomala qilish kerak, deb gapirar edi. Voronsov ham buni anglar va har holda Hojimurodga, urushning muvaffaqiyati uchun kerak deb qaraganini bildirar edi.

- Unga aytgin,- dedi Voronsov tarjimonga (u yosh ad'yutantularni sensirab gapirardi)«Б”bizning podshohimiz qudratli bo'lgani singari, shafqatli hamdir, ehtimol, mening iltimosim bilan uni kechirar ham xizmatga olar. Aytdingmi?»«Б”deb so'radi u tarjimondan Hojimurodga qarab turib.«Б”Unga ayt, podshohimning marhamatli qarorini olganimga qadar, uni qabul qilishni va biznikida o'tkazadigan umrini ko'ngilli qilishni o'z ustimga olaman.

Hojimurod yana bir marta ta'zim qildi va qizg'inlik bilan nimanidir gapira ketdi.

Tarjimonning tarjima qilib berishiga ko'ra, u ilgari 39-yillarda, Avariyan idora qilgan vaqtlarida ham ruslarga sodiq bo'lib xizmat qilganini va mabodo uni halok qilmoqchi bo'lgan va general Klyugenau oldida unga bo'hton qilgan dushmani Ahmadxon bo'lmasa, ruslarga hech qachon xiyonat qilmagan bo'lishini gapirdi.

- Bilaman, bilaman,«Б”dedi Voronsov, garchi u bularning hammasini bilgan bo'lsa ham allaqachon unutgan edi.- Bilaman,- dedi u,

o'tirib va Hojimurodga devor yonidagi taxtadan joy ko'rsatib. Lekin Hojimurod Voronsovday obro'li kishining huzurida o'tirishga jur'at etolmaganining ishorasi qilib, kuchli yelkalarini qisib, o'tirmadi.

- Ahmadxon ham, Shomil ham - mening dushmanlarim,- u tarjimonga murojaat qildi va so'zida davom etdi.- Knyazga ayt, Ahmadxon o'ldi, men undan o'chimni ololmadim, ammo Shomil hali tirik va men undan o'chimni olmay turib o'lmayman,- dedi u qovog'ini solib va jag'larini mahkam qisib.

- Xa, ha, Ъ Ъ”dedi Voronsov sekin,- u Shomildan qanday qilib o'ch oladi? Ъ Ъ”dedi u tarjimonga.- Aytgin axir, o'tirishi mumkin. Hojimurod yana o'tirmadi va o'ziga berilgan savolga: "Shomilni yo'qotishda yordam berish uchun ruslarga qo'shildim",- deb javob berdi.

- Yaxshi, yaxshi,- dedi Voronsov.- U, xullasi kalom, nima qilmoqchi axir? O'tir, o'tir...

Hojimurod o'tirdi va agar uni lazgi tomoniga yuborsalar va unga qo'shin bersalar, butun Dog'istonni oyoqqa turg'izishga va Shomilning bunga dosh bera olmasligiga kafil ekanini aytdi.

- Bu yaxshi gap. Buni qilish mumkin.- dedi Voronsov.- O'ylab ko'raman.

Tarjimon Voronsovning so'zlarini Hojimurodga tarjima qilib berdi. Hojimurod o'yga toldi.

- Sardorga ayt,- dedi u yana,- mening oilam dushmanimning qo'lida va qachonki, mening oilam tog'da ekan, men to'ppa-to'g'ri unga qarshi borsam, u mening xotinimni, onamni, bolalarimni o'ldiradi. Knyaz' mening oilamni qutqazsin, uni asirlarga almashtirsin, u vaqtda men yo o'laman, yo Shomilni yo'qotaman.

- Yaxshi, yaxshi,- dedi Voronsov.- Bu haqda o'ylab ko'ramiz. Endi u shtab boshlig'ining oldiga borsin va unga o'z vaziyati, niyati va xohishini batafsil aytib bersin.

Hojimurodning Voronsov bilan bo'lgan birinchi uchrashuvi shu bilan tugadi.

O'sha kuni kechqurun Sharq uslubida, yangidan ishlangan teatrdagi ital'yancha opera qo'yilmoqda edi. Voronsov o'z lojasida edi, shu vaqt parterda salla o'ragan holda, ko'zga tashlanib turgan qomati bilan oqsoq Hojimurod paydo bo'ldi. Hojimurod, o'z yoniga qo'shib qo'yilgan Voronsovning ad'yutanti Loris-Melikov bilan birga kirib birinchi qatorga joylandi. Hojimurod birinchi parda tamom bo'lguncha, sharqqa, musulmonlarga xos bosiqlik bilan, betaajjub, hatto beparvo ko'rinish bilan tomosha qilib o'tirib, so'ng o'rnidan turdi va tomoshabinlarga sekin ko'z yugurtirib chiqib, butun kishilarning diqqatini o'ziga qaratib, zaldan chiqib ketdi.

Ertasi dushanba Voronsovnikida bazm bo'ladigan kun edi. Katta, ko'zni qamash tiradigan darajada yoritilgan zalda, qishki bog'cha orasiga yashirilib muzika o'ynar edi. Bo'yinlarini, qo'llarini va ko'kraklarini ochib turadigan kiyimlar kiygan yosh, navqiron va shuningdek, uncha yosh bo'lmagan xotinlar rangdor mundirlar kiyib olishgan erkaklarning quchog'ida aylanmoqda edilar. Bufetda qizil frak, paypoq va boshmoqlar kiyib olgan lakeylar qadahlarga shampanskiy quymoqda va xotinlarga konfetlar olib borib tutmoqda edilar. "Sardor"ning xotini ham yoshi o'tib qolganiga qaramasdan, boshqalarga o'xshash yarim yalang'och holda salom va tabassumlar bilan mehmonlar orasida yurardi. U tarjimon orqali, xuddi kecha teatrdagi singari, beparvolik bilan mehmonlarga ko'z tashlagan Hojimurodga bir qancha iliq so'z aytdi. Qnyaginyaning orqasidan Hojimurodning yoniga boshqa xotinlar ham kelishdi va hammasi ham uyalishmasdan uning ro'baro'sida turishib, jilmayishib bir narsani: Hojimurodning bu yerda ko'rayotgandari unga yoqish-yoqmasligini so'rashdi. Voronsovning o'zi oltin epoletlar va aksel'bantlarda, bo'yniga oq but taqib olgan holda Hojimurodning yoniga keldi va u ham muqarrar, boshqa so'rovchilar singari Hojimurodga, bu yerda ko'rgan narsalarining yoqmasligi mumkin emas deya ishonib, o'sha savolni berdi. Hojimurod Voronsovga ham hammaga qilgan javob qildi: yaxshimi yo yomonmi, buni gapirmasdan,- bizda bunaqa narsalar yo'q,- deb aytdi.

Hojimurod shu yerda, balda Voronsov bilan o'z ishi, oilasini asirlar barobariga sotib olish to'g'risida so'zlashmoqchi bo'lgan edi, lekin Voronsov, uning so'zlarini eshitmaganlikka solib nari ketdi. Keyin Loris-Melikov Hojimurodga, bu yer ish to'g'risida gapirishadigan joy emasligini aytdi.

Soat o'n birga jom chalganda Hojimurod vaqtini Mariya Vasil'evna hadya qilgan soatga qarab tekshirib ko'rib, Loris-Melikovdan ketish mumkinmi, deb so'radi. Loris-Melikov mumkin ekanini, biroq qolsa yaxshi bo'lishini aytdi. Bunga qaramasdan Hojimurod qolmadi va uning ixtiyoriga topshirilgan fayton bilan o'ziga berilgan uyga qarab jo'nadi.

XI

Hojimurod Tiflisga kelganining beshinchi kuni noibning ad'yutanti Loris-Melikov, bosh qo'mondonning topshirig'i bilan Hojimurod oldiga keldi.

- Boshim ham, qo'llarim ham sardorga xizmat qilishga tayyor,- dedi Hojimurod o'zining odatiy diplomatik qiyofasi bilan qo'li ko'ksida bosh egib.- Buyur,- dedi Loris-Melikovning ko'zlariga muloyimgina qarab.

Loris-Melikov, stolning yonida turgan kresloga o'tirdi. Hojimurod uning qarshisidagi past taxtaga o'tirdi va qo'llarini tizzasiga tirab, boshini quyi soldi-da, Loris-Melikovning aytayotgan gaplarini tinglay boshladi. Tatarchani erkin gapira oladigan Loris-Melikov, knyaz', garchi Hojimurodning o'tmishini bilsa-da, uning butun tarixini o'z og'zidan eshitishni istaganini aytdi.

- Sen menga gapirib ber,- men yozib olaman, keyin ruschaga tarjima qilaman, undan keyin knyaz' podshohga yuboradi,- dedi Loris-Melikov.

Hojimurod picha jim qoldi (u hech qachon gapni bo'lmas, edigina emas, balki hamma vaqt hamsuhbat yana biror narsa aytmasmikan, deb kutib turardi), keyin boshini ko'tardi, papaxini orqaga surib qo'ydi va Mariya Vasil'evnani maftun etgan bola tabassumi bilan iljaydi.

- Bajonu dil,- dedi u, aftidan, mening tarixim podshohga o'qib beriladi, degan fikrdan quvonib.

- Menga shoshilmasdan, hammasini bir boshidan so'zlab ber, Ъ Ъ”dedi Loris-Melikov yonidan daftarchasini olib.

- Xo'p bo'ladi, ammo aytib beradigan narsa juda ko'p-da. Ko'p ishlar bo'lgan,- dedi Hojimurod.

- Agar bir kunda aytib bitirolmasang, qolganini ertaga aytib bitirasan,- dedi Loris-Melikov.

- Boshidan boshlaymi?

- Ha, eng boshidan, qayerda tug'ilding, qayerda yashading, shundan.

Hojimurod boshini eggan ko'yi uzoq o'tirdi; keyin taxtada yotgan kichkina bir yog'ichni oldi, xanjarining ostidan, sopi fil suyagidan qilingan tilla suvi yugurtirilgan ustara day o'tkir po'lat pakkisini chiqardi-da, yog'ichni yo'nib o'tirib gapira boshladi.

- Yoz: Sel'mesda, tog'liklarning tili bilan aytisak, eshakning boshidek kichkina bir qishloqda tug'ilganman,- deb boshladi u.- Xonlar yashagan Xunzax bizdan uncha uzoq emas, ikki miltiq otimcha kelar edi. Bizning oilamiz ular bilan yaqin edi. Chunki mening onam xonning katta o'g'li Abununsalxonni emizib katta qilgan.

Xonzodalar uchta edi: akam Usmonning emishgan og'aynisi Abununsalxon, mening tutingan og'aynim Ummaxon va kichigi Bulachxon, uni Shomil jordan tashlab yuborgan. Bu voqea keyin bo'lgan edi. Muridlar ovullarni oralab yura boshlagan vaqtlarida, men o'n besh yoshlarga borib qolgan edim. Ular yog'och qilichlarni toshlarga urishar va: "Musulmonlar, g'azavot!" deb qichqirishar, edilar. Chechenlarning hammasi muridlar tomonga o'tdilar, keyin avarlar ham ular tomoniga o'ta boshladilar. Men u vaqtlarda saroyda yashar edim. Men xuddi xonning og'aynisiday edim: nima istasam shuni qilardim, men boy bo'lib ketdim. Menda ot ham, qurol ham bor edi. Kayfi safo ichida yashar va hech narsa to'g'risida o'ylamas edim. Shu taxlitda to Qozimulla o'ldirilib, uning o'rniga G'amzat o'tirgan vaqtga qadar yashadim. G'amzat xonlarga vakil yuborib, agar ular g'azavotni qabul qilmasalar, Xunzaxni xarob qilishini bildirdi. Bosh qotar edi. Xonlar g'azavotni qabul qilishda ruslardan qo'rqardilar. Shunda malika ruslarning eng katta boshlig'idan G'amzatga qarshi yordam so'rash uchun ikkinchi o'g'li Ummaxon bilan birga meni Tiflisga yubordi. Eng katta boshliq baron Rozen edi. U meni ham, Ummaxonni ham qabul qilmadi, yordam beramiz, deb aytibdi, lekin hech narsa qilmadi. Faqat uning ofitserlari bizning oldimizga kelib, Ummaxon bilan karta o'ynashadigan bo'lib olishdi. Ular Ummaxonni vino ichirib mast qilishar va yomon yerlarga olib borishar edi. Ummaxon ularga qartada bor-yo'g'ini yutqazib qo'ydi. U buqadek kuchli, sheryurak, ammo qalbi esa suvdek bo'sh edi. Agar men uni olib ketmasam, u so'nggi otini ham, qurolini ham yutqazib qo'ygan bo'lardi. Tiflisga borib kelgandan so'ng mening fikrim o'zgardi, men g'azavotni qabul qilish kerak, deb malika va yosh xonlarni tashviq qila boshladim.

- Nima sababdan fikring o'zgardi? deb so'radi Loris-Melikov.- Ruslar yoqmadimi?

Hojimurod bir oz jim qoldi.

- Yo'q, yoqmadilar,- dedi qat'iy, keyin ko'zlarini yumdi.- Buning ustiga yana shunday bir ish bor edi, men g'azavotni qabul qilgim keldi.

- Qanday ish?

- Sel'mesning ostida biz xon ikkimiz uchta murid bilan to'qnashdik, ikkitasi qochib ketdi, uchinchisini to'pponcha bilan otib o'ldirdim. Men qurollarini yechib olay deb uning yoniga kelsam, u tirik ekan. U menga qaradi: "Sen meni o'ldirding, men uchun yaxshi. Sen esang musulmon, yosh, kuchli ekansan: g'azavotni qabul et. Tangri shunday buyuradi", dedi.

- Xo'sh, shu bilan sen qabul qildingmi?

- Qabul qilganim yo'q, ammo o'ylay boshladim,- dedi Hojimurod va o'z hikoyasini davom ettirdi.

- G'amzat Xunzaxga yaqinlashib kelib qolganda, biz uning oldiga qariyalarni yubordik va ularga g'azavotni qabul qilishga rozi ekanimizni, faqat uni yaxshilab tushuntirib beradigan bir olim kishi yuborishini aytishlikni buyurdik. G'amzat chollarning mo'ylovlarini qirqib tashlash, burunlarining teshigini bekitish, burunlariga non osish va shu holda ularni qaytarib yuborishni buyuribdi. Chollar kelib, malikaga omonat sifatida kenja o'g'lini G'amzatning yoniga yuborish sharti bilan ular oldiga g'azavotni o'rgatish uchun bir shayx yuborishga uning roziligini aytdilar. Malika bunga ishonib Bulachxonni G'amzatning oldiga yubordi. G'amzat Bulachxonni yaxshi qarshi oldi va uning yoniga akalarini ham olib kelish uchun bizga kishi yubordi. G'amzat, o'z otasi ularning otasiga xizmat qilgani singari, u ham xonlarga xizmat qilmoqchi bo'lganini aytishni buyuribdi. O'z boshlaricha yashagan vaqtlarida hamma xotinlar qanday bo'lsa malika ham shunday bo'sh, ahmoq va orsiz xotin edi. U ikkala o'g'lini yuborishdan qo'rqib, yolg'iz Ummaxonni yubordi. Men u bilan birga bordim. Bizni bir chaqirimcha joyda muridlar kutib olib, zikr tushdilar, miltiq otdilar va atrofimizda ot o'ynatdilar. Biz yaqinlashib qelayotgan vaqtimizda G'amzat chodiridan chiqib Ummaxonning uzangilariga yonashib keldi va uni xon sifatida qarshi oldi. U: "Men sizning xonadoningizga hech qanday yomonlik qilganim yo'q va qilishni ham istamayman. Siz faqat meni o'ldirmang va odamlarni g'azavotga olib borish uchun xalaqit bermang. Men esa, otam otangizga xizmat qilgani kabi, butun qo'shinim bilan sizga xizmat qilaman. Meni uyingizda yashagani qabul qiling. Men, maslahatlarim bilan sizga yordam beraman, siz esangiz bilganingizni qilavering", dedi. Ummaxon so'zga juda no'noq edi. U nima deyishini bilmasdan, jim turib qoldi. Shundan keyin men, gap shu bo'lsa G'amzat Xunzaxga borsin, malika va xon uni hurmat bilan qabul qiladi, dedim. Lekin mening gapimni tugattirmadilar va men bu yerda birinchi marta Shomil bilan to'qnashdim. U shu yerda, imomning yonida edi. "Sendan emas, xondan so'rayotibdilar",- dedi u. Men jim bo'ldim, G'amzat esa Ummaxonni chodirga olib ketdi. Keyin G'amzat meni chaqirib olib, o'zining elchilari bilan birga Xunzaxga borishga buyurdi. Men ketdim. Elchilar G'amzatning oldiga katta xonni ham yuboravering, deb malikani tashviq qila boshladilar. Men xiyonatni payqadam va malikaga: o'g'lingizni yubormang, dedim. Lekin tuxumda qancha tuk bo'lsa, xotinlarning boshida ham shuncha aql bo'ladi. Malika elchilarning gapiga ishonib o'g'lini borishga buyurdi. Abununsalxon istamadi. Shunda malika: "Ko'rinib turibdi, sen qo'rqayotibsan", dedi. U xuddi ariga o'xshab o'g'lining jon joyini topib chaqishni yaxshi bilardi. Abununsalxon qizib ketdi, onasi bilan ortiq gaplashib o'tirmadi-da, otini egarlashga buyurdi. Men u bilan birga ketdim. G'amzat bizni Ummaxondan ham yaxshiroq qilib kutib oldi. Uning o'zi ikki miltiq otimi qadar yerga kelib bizga peshvoz chiqdi. Uning orqasidan nishon taqqan otliqlar birga keldilar, takbir aytdilar, o'q uzdilar, ot o'ynatdilar. Biz lagerga kelganimizda, G'amzat xonni chodirga olib kirib ketdi, men esa otlarning yonida qoldim. G'amzatning chodiridan o'q ovozi eshitila boshlagan vaqtda, men tog'ning ostida edim. Men chodirning oldiga chopib keldim. Ummaxon mukkasidan tushib qonga belanib yotar, Abununsalxon esa muridlar bilan solishmoqda edi. Yuzining yarmi chopib tashlangan bo'lib, osilib turardi. U bir qo'li bilan chopilgan yuzini ushlagan, ikkinchi qo'lidagi xanjar bilan yaqinlashganlarni urib turar edi. U mening huzurimda G'amzatning ukasini chopib tashladi va boshqasiga qarab intildi, ammo shu vaqtda muridlar unga qarab o'q uza boshladilar, u yiqildi.

Hojimurod to'xtadi, uning oftobda kuygan yuzi qip-qizarib ketdi, ko'zlariga qon quyildi.

- Meni dahshat bosdi, qochib ketdim.

- Shunaqami?- dedi Loris-Melikov.- Men seni hech qachon hech narsadan qo'rqmagan, deb o'ylagan edim.

- Keyin hech qachon qo'rqqan emasman. O'shandan beri men bu voqeani hamma vaqt xotirlab kelaman va eslagan vaqtimda hech narsadan qo'rqmayman.

XII

- Endi bas. Namoz o'qish kerak,- dedi Hojimurod, u cherkaskasining ko'krak cho'ntagidan Voronsovning bregetini chiqardi, ehtiyot bilan murvatini bosdi va boshini qiyshaytirib quloq soldi. Soat o'n ikkiyu chorakni urdi.

- Mehmondo'st Voronsovdan peshkash,- dedi u iljayib,- Yaxshi odam.

- Ha, yaxshi soat,- dedi Loris-Melikov.- Xo'p bo'lmasa, sen namozingni o'qi, men kutib turaman.

- Xo'p,- dedi Hojimurod va yotoqxonasiga kirib ketdi.

Loris-Melikov yolg'iz o'zi qolgach, Hojimurod gapirib bergan voqealarning eng muhimlarini daftarchasiga yozib qo'ydi, so'ng papiros chekdi-da, uying u boshidan bu boshiga yura boshladi. Loris-Melikov, yotoqxonaning qarshisidagi eshik oldiga kelib, tatarchalab nima to'g'risidadir tez va qizg'in gaplashayotgan kishilarning ovozlari eshitdi. U, bular Hojimurodning muridlari ekanini bildi-da, eshikni ochib ular oldiga kirdi.

Uyda tog'liklarga xos nordon teri hidi bor edi. Qiyshiq, sariq Gamzalo, yog'i chiqib ketgan juldur kamzul kiyib olgani holda, deraza yoniga solingan chakmon ustida o'tirib yugan to'qimoqda edi, lekin Loris-Melikov kirishi bilan jim bo'ldi va unga e'tibor qilmasdan bemalol ishini davom ettirdi. Uning ro'parasida xushchaqchaq Xon-Magoma turar va oq tishlarini irjaytirib, kipriksiz qora ko'zlarini yaltiratganicha bir so'zni takrorlamoqda edi. Go'zal Eldor yenglarini kuchli qo'llariga shimarib olib, egarning mixiga ilinib qo'yilgan ayilni artar edi. Bosh xodim va xo'jalik mudiri Hanafiy uyda yo'q, u oshxonada ovqat pishirmoqda edi.

- Nima to'g'risida munozara qilayotibsizlar? Ё Ё”Loris-Melikov Xon-Magoma bilan ko'rishayotib so'radi.

- E, anavi hadeb Shomilni maqtaydi,- dedi Xon-Magoma Lorisga qo'lini berayotib,- Shomil - katta odam. Ham oliy, ham avliyo, ham botir, deydi.

- Uni hadeb maqtaydigan bo'lsa, nima uchun undan ajralib ketadi?

- Undan ketganu, lekin hamon uni maqtaydi,- dedi Xon-Magoma tishlarini irjaytirib va ko'zlarini yaltiratib.

- Nima, uni avliyo deb hisoblaysanmi?- so'radi Loris-Melikov.

- U avliyo bo'lmasa, xalq uning so'ziga kirmagan bo'lardi,- Gamzalo tez gapirdi.

- Shomil emas, Mansur avliyo edi,- dedi Xon-Magoma.- U haqiqiy avliyo edi. U imomlik qilganda, butun xalq boshqacha edi. U ovullarni kezib yurarkan, xalq cherkaskasining etagini o'pish uchun uning oldiga chiqar va gunohlariga tavba qilar ham yomon ish qilmaslikka ont ichar edi. Chollar: u vaqtda hamma odam avliyoga o'xshab yashar - chekmas, ichmas, namozini kanda qilmas, bir-birining jabrini kechirar, hatto qon to'kkanni ham kechirar edi, deb gapiradilar. U vaqtlarda pul yoki buyum topib olinsa, xodaga bog'lab yo'lga qo'yadilar. U vaqtlarda, hozirdagiday emas, xudo ham hamma narsada xalqqa madadkor edi,- dedi Xon-Magoma.

- Hozir ham tog'liklar ichmaydilar va chekmaydilar,- dedi Gamzalo.

- Sening Shomiling Lamaroy,- dedi Xon-Magoma Loris-Melikovga ko'zini qisib qo'yib.

"Lamaroy" tog'liklarning yomon laqabi edi.

- Lamaroy - tog'lik,- Gamzalo javob berdi.- Tog'da burgutlar yashaydi.

- O, balo ekansan, qotirib javob berding,- dedi Xon-Magoma tishlarini irjaytirib o'z muxolifining o'tkir javobidan xursand bo'lib.

U Loris-Melikovning qo'lidagi kumush papiros qutini ko'rib, papiros so'radi. Loris-Melikov, ularga chekish man qilinganini aytgach, u bir ko'zini qisdi-da, Hojimurodning yotog'i tomon boshini burib, u yo'qligi-da chekish mumkin ekanini aytdi. Qeyin shu zamoniyoq tutunni ichiga tortmasdan sirtga puflab, qizil lablarini o'xshovsiz bir ravishda cho'chchaytirib cheka boshladi.

- Bu ishing yaxshi emas,- dedi Gamzalo jiddiy, keyin uydin chiqib ketdi.

Xon-Magoma uning orqasidan ko'zini qisib qo'ydi va papirosini cheka turib Loris-Melikovdan, shohi kamzul va oq papaxni qayerdan sotib olish yaxshiroq ekanini so'radi.

- Xo'sh, aqchang shunaqa ko'pmi?

- Bor, yetadi.- Xon-Magoma ko'zini qisib javob berdi.

- So'ragin-chi, aqchani qayerdan oldi ekan,- dedi Eldor o'zining chiroyli, kulib turuvchi yuzini Loris-Melikovga tomon burib.

- Yutib oldim,- dedi tez Xon-Magoma.

So'ng u, kecha Tiflis ko'chalarida tomosha qilib yurib, tanga otib qimor o'ynayotgan bir to'da rus va armanlarga duch kelib qolganini gapirib berdi. Tikilgan pul katta: uchta tilla va ko'p kumush bor ekan. Xon-Magoma birpasdayoq o'yinning nimadan iborat ekanini angelaydi va cho'ntagidagi chaqalarni shildiratib, davraga kiradi-da, o'rtadagi hamma pulga otishligini bildiradi.

- Qanday qilib hammasiga otasan? Puling bormidi? Ё Ё”Loris-Melikov so'radi undan.

- Menda hammasi bo'lib o'n ikki tiyin bor edi,- dedi Xon-Magoma tishlarini irjaytirib.

- Xo'sh, yutqizib qo'ysang nima qilar eding?

- Bu-chi,- deya Xon-Magoma to'pponchasini ko'rsatib qo'ydi.

- Nima, to'pponchangni berarmiding?

- Nega berayin, qochar edim, agar bitta-yarimtasi ushlasa otib o'ldirar edim. Tamom - vassalom.

- Xo'sh, shunday qilib yutib oldingmi?

- Ha, hammasini shipirdim-da, ketaverdim.

Loris-Melikov Xon-Magoma bilan Eldorni yaxshilab bilib oldi. Xon-Magoma oshib-toshib ketgan kuchini qayerga sarf qilishini bilmagan, o'yin-kulgini, aysh-ishratni yaxshi ko'ruvchi, doim shod, yengiltak, o'zining va boshqalarning hayoti bilan o'ynovchi va bu o'yin orqasida hozir ruslarga kelib qo'shilgan va xuddi shuningdek, ertaga shu o'yin orqasida yana Shomilga o'tib ketishi mumkin bo'lgan kishi edi. Eldor ham tamom anglashilarli edi. Loris-Melikov faqat sariq Gamzaloga tushunolmas edi. Loris-Melikov, bu odamning faqat Shomilga berilgangina emas, balki barcha ruslarga nisbatan qattiq nafrat, jirkanuv, qabohat va dushmanlik tuyg'ulari bilan to'lgan ekanini ham bilar, shuning uchun ham Loris-Melikov, uning nima uchun ruslarga o'tganiga tushunolmas edi. Loris-Melikov, ba'zi bir boshliqlar tarafidan ham ma'qullangan fikrga, ya'ni Hojimurodning ruslarga o'tishi va Shomil bilan bo'lgan dushmanligi haqidagi gaplarni aldashdan iborat, u faqat ruslarning zaif yerlarini ko'rib olish va qaytadan toqqa qochib ketib, ruslarning zaif yerlariga kuch yuborish uchungina ruslarga qo'shilgan, degan fikrga keldi. Gamzalo o'zining butun turish-turmushi bilan bu fikrni quvvatlar edi. Loris-Melikov: "Manavlar va Hojimurodning o'zi, o'z niyatlarini yashirishni biladilar, ammo manavi esa, o'zining oshkora dushmanligi bilan o'zini oshkor qilib qo'ydi", deb o'yladi.

Loris-Melikov u bilan gaplashishga harakat qilib "o'rib, zerikmay yotibsizmi, deb so'radi. Ammo u, qilib turgan ishini to'xtatmay Loris-Melikovga ko'z qirini soldi-da, xirillab va kalta qilib:

- Zerikayotganim yo'q,- deb javob berdi.

Boshqa savollarga ham shunday javob berdi. Loris-Melikov hali navkarlar uyida ekan, Hojimurodning to'rtinchi muridi, yuz va bo'ynini soqol bosib ketgan, serjun ko'kragi do'ng avariyalik Hanafiy ichkariga kirdi. Bu kishi muhokama qilib o'tirmaydigan, hamma vaqt o'z ishi bilan band, Eldorga o'xshash muhokamasiz, o'z xo'jasiga bo'ysunuvchi zo'r xizmatchi edi.

U guruch olgani navkarlar uyiga kirganida Loris-Melikov uni to'xtatib, qayerlik ekanini va Hojimurodga qachondan beri xizmat qilishini so'radi.

- Besh yildan beri, Ё Ё”deya Hanafiy Loris-Melikovning savoliga javob berdi.- Men u bilan bir ovuldanman. Mening otam uning amakisini o'ldirib qo'ygan edi. Ular ham meni o'ldirmoqchi bo'ldilar,- dedi u tinchgina o'siq qoshlarining ostidan Loris-

Melikovning yuziga qarab turib.- Shunda meni og'ayni qilib qabul etishlarini so'radim.

- Og'ayni qilib qabul etish deganing nima?

- Men ikki oy tirnoqlarimni olmasdan yurib, ularnikiga keldim. Ular meni onalari Fatimatning yoniga kirgizdilar. Fatimat meni emizdi, shunday qilib men uning ukasi bo'lib qoldim.

Qo'shni xonadan Hojimurodning ovozi eshitildi. Eldor shu zamoniyiq xo'jayinining chaqirganini bildi va qo'llarini artib, keng qadamlar tashlab mehmonxonaga kirib ketdi.

- Sizni chaqirayotibdi,- dedi u qaytib kelib. Shundan so'ng Loris-Melikov xushchaqchaq Xon-Magomaga yana bir dona papiros berib, mehmonxonaga qarab ketdi.

XIII

Loris-Melikov mehmonxonaga kirganida Hojimurod uni shod chehra bilan qarshi oldi.

- Xo'sh, davom ettiramizmi?- dedi u taxtaga o'tirayotib.

- Ha, shubhasiz,- dedi Loris-Melikov.- Men navkarlarningning yoniga kirib, ular bilan picha gaplashdim. Bittasi juda xushchaqchaq yigit ekan,- deb ilova qildi.

- Ha, Xon-Magoma hazilkash odam,- dedi Hojimurod.

- Menga chiroyli yosh yigit juda yoqdi.

- U Eldor. O'zi yosh, ammo temirdek qattiq.

So'ng jim bo'ldilar.

- Gapni davom ettiraymi?

- Ha, ha.

- Men xonlarni qanday o'ldirganlarini aytdim. Xo'sh, ularni o'ldirdilar. Shundan so'ng G'amzat Xunzaxga borib xon saroyiga kirib oladi,- deb boshladi Hojimurod.- Ona - malika hali tirik edi, G'amzat uni o'z oldiga chaqirtiradi. Malika uni ayblab gapira boshlaydi. G'amzat o'z muridi Asldorga qarab ko'zini qisib-qo'ydi, shunda Asldor orqasidan urib malikani o'ldiradi.

- U malikani nega o'ldiradi axir?- so'radi Loris-Melikov.

- Bo'lmasa qanday qilsin. Boshlagan ishini oxirigacha yetkazish kerak-da. Butun urug'ini quritish kerak edi. Shunday qildilar ham. Shomil jordan tashlab kichik xonni ham o'ldirdi. Butun Avariya G'amzatga bo'ysundi, faqat biz; men va akamgina bo'ysunishni istamadik. Biz undan xonlar uchun xun olishimiz kerak edi. Biz; ko'rinishda bo'ysunganday bo'lib yurdik, lekin faqat qanday qilib undan xun olishni o'ylardik. Bobomiz bilan maslahatlashdik va G'amzatning saroydan chiqish vaqtini poylashga ham pistirmada turib uni o'ldirishga qaror qildik. Kimdir bizning so'zlarimizni eshitib olib, G'amzatga aytibdi, u bobomni oldiga chaqirtirib:

"Menga qara, agarda nabiralarningning menga qarshi yomonlik o'ylab yurgani rost bo'lsa, sen ham ular bilan birga bitta dorga osilasan. Men tangrining ishini qilib yuribman, menga xalaqit berishi mumkin emas. Bor, aytgan so'zlarimni xotiringda tut, debdi. Bobom uyga kelib bu so'zlarni bizga aytib berdi. Shundan keyingina biz kutmay, ishni hayitning birinchi kuniyoq machitda bitirishga qaror berdik, o'rtoqlarimiz aynib qoldilar,- akam ikkalamizgina qoldik. Biz ikkitadan to'pponcha oldik, chakmonlarimizni kiydik, so'ng machitga bordik. G'amzat o'ttitztacha muridi bilan machitga kirib keldi. Hamma muridlar qilichlarini yalang'ochlab ushlab olishgan edi. G'amzat bilan bir qatorda uning yaxshi ko'rgan muridi, malikaning boshini chopib tashlagan - Asldor kelmoqda edi. U bizni ko'rib chakmonlarningni yechinglar, deb qichqirib mening oldimga keldi. Xanjar qo'limda edi, men uni o'ldira solib, G'amzatga tashlandim. Lekin akam Usmon uni allaqachon otib qo'ygan edi. G'amzat hali tirik edi, u xanjar bilan akamga tashlandi, ammo men boshiga urib ishini tugatdim. Muridlar o'ttiz choqli kishi, biz esa ikkita edik. Ular akam Usmonni o'ldirdilar, men bo'lsam, derazaga sakrab chiqdim-da, qutulib ketdim. G'amzatning o'ldirilganini eshitgach, butun xalq ko'tarildi, muridlar qochib ketdilar, qochmay qolganlarini olomon urib o'ldirdi. Hojimurod gapdan to'xtab og'ir bir nafas oldi.

- Bu "ishlarning hammasi yaxshi edi-yu,- u davom etdi,- keyin hamma ish buzilib ketdi. G'amzatning o'rniga Shomil chiqib oldi. U mening oldimga vakillar yuborib, u bilan birga ruslarga qarshi borishim kerakligini, agar men rad etsam, u vaqtda Xunzaxni vayron qilib, meni o'ldirishini aytibdi, men uning yoniga bormasligimni va uni o'z yonimga yo'latmasligimni aytdim.

- Nima sababdan uning yoniga bormading?B”Loris-Melikov so'radi.

Hojimurod qovog'ini soldi, u darrov javob bermadi.

- Mumkin emas edi. Shomilda - ham akam Usmonning, ham Abununsalxonning xuni bor edi. Men uning oldiga borganim yo'q.

General Rozin, menga ofitserlik mansabini berib, Avariya boshliq bo'lishimni taklif etdi. Hamma ish joyda edi, lekin Rozin Avariya ustidan avvalo qozoqo'miq xoni Muhammad Mirzoni, keyin Ahmadxonni tayinladi. Ahmadxon meni ko'rolmas edi. U o'g'li uchun malikaning qizi Saltanatga sovchi yuborgan edi; qizni unga bermadilar. U meni bu masalada aybdor deb o'ylagan. U meni ko'rolmasdi va yashirin ravishda o'z navkarlarini yuborib, meni o'ldirmoqchi ham bo'ldi, lekin men ulardan ketib qoldim.

Shundan so'ng u meni general Klyugenauga chaqibdi, meni avariyaaliklarga soldatlarga o'tin bermanglar, deb buyurgan, dedi. U, generalga yana, mana bu sallamni,- dedi Hojimurod papaxiga o'ralgan sallani ko'rsatib,- o'raganimni aytibdi va bu, Hojimurodning Shomilga sadoqatini bildiradi, debdi. General bu so'zlarga ishonmagan va menga tegmaslikni buyurgan. Lekin general Tiflisga ketgach, Ahmadxon o'z bilganini qildi: bir rota soldat bilak meni ushlab oldi va zanjirband qilib to'pga bog'lab qo'ydi. Shu ko'yi meni olti kechayu olti kunduz ushlab turdilar. Yettinchi kuni bo'shatib, Temirxon-Shuraga olib ketdilar. Qirq soldat multiqlarini o'qlab olib borardi. Qo'llarim bog'langan va qochmoqchi bo'lsam meni o'ldirish buyurilgan edi. Men buni bilar edim. Moksox yonidan o'ta boshlaganimizda so'qmoq yo'l juda tor, o'ng taraf ellik sajinlar keladigan tikka jar edi. Men bir soldatning o'ng tomoniga, jar yoqasiga o'tdim. Soldat meni to'xtatmoqchi bo'ldi, lekin men jarlikka qarab irg'idim va o'zim bilan birga soldatni ola ketdim. Soldat parcha-parcha bo'ldi, men esam mana - tirik qoldim. Qovurg'alarim, boshim, qo'llarim, oyoqlarim hammasi singan edi. Sudralmoqchi bo'ldim, mumkin bo'lmadi. Boshim aylandi, so'ng uxlab qolibman. Uyg'onsam, qonga belanib yotibman. Cho'pon meni ko'rib odamlarni chaqirdi, meni ovulga olib keldilar. Singan qovurg'alarim tuzaldi, oyog'im ham tuzaldi, faqat qisqa bo'lib qoldi. Shunday deb turib Hojimurod qiyshiq oyog'ini ilgariga cho'zdi.

- Ishlaydi, shunisi ham katta gap,- dedi u.- Xalq meni tanib oldimga kela boshladi. Men sog'aydim, Sel'mesga ko'chib keldim.

Avariyaaliklar meni yana o'zlarini idora qilish uchun chaqirdilar,- Hojimurod osoyishta, ishonchli g'urur bilan aytdi.- Men ham rozi bo'ldim.

Hojimurod tez o'rnidan turdi-da, xurjundan portfelini oldi, undan ikkita sarg'ayib ketgan xat chiqarib, Loris-Melikovga berdi.

Xatlar Klyugenaudan kelgan edi. Loris-Melikov o'qidi. Birinchi xatda shunday gaplar yozilgan edi:

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

"Praporshik Hojimurod! Sen menda xizmat qilding, men sendan mamnun edim va seni yaxshi kishi deb bilgan edim. Yaqinda general-mayor Ahmadxon menga, seni xoin salla o'radi. Shomil bilan aloqasi bor, xalqni rus boshliqlariga quloq solmaslikka o'rgatdi, deb xabar yetkazdi. Men seni hisbga olib, oldimga keltirishlikni buyruq bergan edim - sen qochibsan; bilmadim - bu narsa yaxshiliklarni yoki yomonliklarni, chunki sen aybdorsanmi, yo'qmi - bilmayman. Endi gapimga quloq sol. Agarda buyuk podshoh oldida vijdoning pok bo'lsa, agar hech bir narsadan aybdor bo'lmasang, mening oldimga kel. Hech kimdan qo'rqma, sening himoyaching menman. Xon senga hech narsa qilmaydi, uning o'zi mening qo'l ostimdagi kishi. Shuning uchun ham hech narsadan qo'rqma".

Bundan so'ng Klyugenu, hamma vaqt o'z so'zining ustidan chiqqanini va haqqoniy bo'lganini yozgan va Hojimurodga, o'z yoniga kelish uchun yana nasihat qilgan edi.

Loris-Melikov birinchi xatni tugatgach, Hojimurod ikkinchi xatni oldi, lekin uni Loris-Melikovning qo'lga bermay turib, birinchi xatga qanday javob yozganini gapirib berdi.

- Men unga salla o'raganim rost, lekin Shomil uchun emas, balki o'z jonimni qutqazish uchun o'raganman, deb xat yozdim. Men Shomil tarafiga o'tishni istamayman, o'ta olmayman ham, chunki uning dastidan mening otam, akalaram va qarindoshlarim o'ldirilganlar, ammo ruslarga ham bora olmayman, chunki meni obro'sizlantirdilar. Xunxaxda tutqun ekanimda, bir yaramas mening ustimga ...di. To bu odam o'ldirilmaguncha, men sizlarning oldingizga bora olmayman. Hammadan muhimi esa aldamchi Ahmadxondan qo'rqaman, deb yozdim. Shundan keyin general menga mana bu xatni yubordi,- dedi Hojimurod Loris-Melikovga sarg'ayib ketgan ikkinchi xatni berayotib.

"Sen mening xatimga javob yozibsan, rahmat,- deya Loris-Melikov o'qiy boshladi.- Sen, qaytib borishdan qo'rqmayman, lekin bir kofir tomonidan menga qilingan hurmatsizlik buni man qiladi, deb yozibsan; men seni ishontiramanki, rus qonuni odil, o'z ko'z oldingda seni haqorat qilishga jur'at etgan kishining jazolanishini ko'rasan. Men allaqachon bu ishni tekshirishni buyurganman. Hojimurod, quloq sol. Sendan ranjishga haqqim bor, chunki menga va mening vijdonimga ishonmaysan, biroq ishonmaslik butun tog'liklarning odati ekanini bilganim uchun seni kechiraman. Agar vijdonan toza bo'lsang, agar sen sallani faqat joningni qutqazish uchun o'ragan bo'lsang, u holda sen haqlisan va rus hukumatining ko'ziga va mening ko'zlarimga qo'rqmasdan qaray bilasan, seni obro'sizlantirgan kishi bo'lsa, seni ishontiramanki, jazosini tortadi, mol-mulking o'zingga qaytariladi va ruslarning qonuni nimadan iborat ekanini ko'rasan ham bilasan. Ayniqsa, ruslar hamma narsaga boshqacha qaraydilar, seni bir yaramas obro'sizlantirgani uchun sen ularning ko'zida o'z e'tiboringni tushirgan bo'lmaysan. Men o'zim gimriliklarga salla o'ragani ruxsat berdim, men ularning harakatlariga keragicha yaxshi qarayman, demakg takroran aytaman, qo'rqishingga hech o'rin yo'q. Sen, hozir yoningga yuboradigan kishim bilan birga mening oldimga kel; u menga sodiq, u dushmanlarning quli emas, balki hukumat oldida alohida e'tiborga sazovor bo'lgan kishining do'stidir".

Undan keyin Klyugenu Hojimurodni yana qo'shilishga tashviq qilgan.

- Men bunga ishonmadim,- dedi Hojimurod Loris-Melikov xatni tugatgach,- va Klyugenauning oldiga bormadim. Men, hammadan muhimi, Ahmadxondan o'ch olishim kerak edi, bu ishni esa ruslar orqali qilib bo'lmas edi. Bu vaqtda esa Ahmadxon Sel'mesni o'rab olgan va meni ushlab olmoqchi yoki o'ldirmoqchi edi. Mening odamlarim juda oz edi, men uning qo'lidan qutulib chiqib ketolmay turdim. Xuddi mana shu vaqtda xat bilan Shomildan elchi keldi. U menga Ahmadxonning qo'lidan qutulib chiqishga va uni o'ldirishga yordam berishga va'da qilibdi va butun Avariyaning idora qilishni menga topshiribdi. Men uzoq o'yladim va nihoyat Shomilga o'tdim. Mana, o'shandan beri hech to'xtovsiz ruslar bilan urishib keldim.

Bu yerda Hojimurod o'zining barcha harbiy ishlarini hikoya qilib berdi. Uning harbiy ishlari juda ko'p bo'lib, Loris-Melikov bularni qisman bilar edi. Uning barcha yurishlari va hamlalari haddan tashqari tezligi va hamma vaqt muvaffaqiyat qozonadigan mardonaligi bilan hayron qolarli edi.

- Men bilan Shomil o'rtasida hech qachon do'stlik bo'lgan emas,- Hojimurod o'z hikoyasini tamomladi,- lekin u mendan qo'rqar va men unga kerak edim. Biroq bir kuni bir voqea yuz berdi, mendan, Shomildan keyin kim imom bo'lishi kerak, deb so'radilar. Men kimning qilichi o'tkir bo'lsa, o'sha imom bo'ladi, dedim. Buni Shomilga aytibdilar, shunda Shomil mendan qutulmoqchi bo'libdi. U meni Tabasaranga yubordi. Men borib mingta qo'y, uch yuz otni qaytarib oldim. Lekin u, aytganimni qilmabsan deb, meni noiblikdan bo'shatib va butun aqchani yuborishimni buyurdi. Men ming tilla yubordim. U o'z muridlarini yuborib, butun mulkimni olib qo'ydi. U meni o'z oldiga chaqirtirdi, meni o'ldirmoqchi bo'lganini bilib bormadim. U tutib olib ketgani odamlar yubordi, ulardan qutulib chiqib, Voronovning oldiga keldim. Faqat oilamni o'zim bilan birga olib kela olmadim. Onam ham, xotinim ham, o'g'lim ham uning qo'lida. Sardorga ayt: oilam u yerda ekan, hech narsa qila olmayman.

- Men aytaman,- dedi Loris-Melikov.

- Urinib ko'r, harakat qil. Nimaiki narsam bo'lsa, hammasi seniki, faqat knyaz' oldida yordam ber. Men bog'langanman, arqonning uchi Shomilning qo'lida.

Shu so'zlari bilan Hojimurod Loris-Melikovga so'zlab bergan hikoyasini tugatdi.

XIV

Voronov, 20 dekabrda harbiy ministr Chernishevga tubandagi xatni yozdi. Xat fransuzcha edi.

"Suyukli knyaz', men avvalo Hojimurodni nima qilish kerakligi haqida bir fikrga kelishni istab, so'nggi pochta bilan sizga xat yozmadim. O'zimni ikki-uch kundan beri bir oz betob his qilib turibman. Men so'nggi xatimda Hojimurodning bu yerga kelganligini sizga xabar qilgan edim: U Tiflisga sakkizinchida keldi, ertasiga u bilan tanishdim va sakkiz yoki to'qqiz kun mobaynida u bilan so'zlashdim, oqibatda uning biz uchun nima qila olishligi va ayniqsa, hozir uni nima qilishimiz kerakligi haqida o'yladim, negaki, u o'z oilasining taqdiri to'g'risida juda qattiq tashvish tortmoqda va ochiqdan-ochiq, uning oilasi Shomilning qo'lida ekan, oyoq-qo'li bog'liq ekanini ham bizga xizmat etishdan va shafqat bilan qarshi olganligimiz, gunohlarini kechirganimiz uchun minnatdor ekanini isbot qilishdan o'zligini aytdi. Uning uchun qiymatli bo'lgan kishilar haqida ochiq bir xabar bo'lmasligi uni tashvishga soladi va bu yerda u bilan birga turish uchun mening tomonimdan qo'yilgan kishilar, kechalari uning uxlamasligini, deyarli hech narsa yemasligini, doimo namoz o'qishini va faqat bir qancha kazaklar bilan birga uzoq yillik odat natijasida zaruriy bo'lib qolgan - otda tomosha qilib kelish uchun ruxsat berilishini so'raganini aytdi. U oilasi to'g'risida biror xabar olgan-olmaganimni bilish uchun har kuni oldimga keladi va mendan, oilasini ayirboshlash maqsadida Shomilga taklif qilish uchun bizning ixtiyorimizda bo'lgan, harbiy yo'llarimizdagi barcha asirlarni to'plashga buyruq berishimizni iltimos qiladi va bu asirlarning yoniga yana bir oz pul qo'shib yuborishni gapiradi. Buning uchun unga pul beradigan kishilar bor. U menga hadeb:

mening oilamni qutqazing va undan so'ng sizga xizmat qilish uchun menga imkoniyat bering, ana undan keyin, bir oy mobaynida sizga katta xizmat qilib bermasam, meni qanday lozim topsangiz, shunday jazolang, deb takrorlaydi.

Men unga, bu talablarning hammasi ham haqli ekanini, agar uning oilasi qo'limizda garovda bo'lmay, tog'da tursa, bizda unga ishonmaydigan juda ko'p kishi topilishini, bizning chegaramizdagi asirlarni to'plash uchun mumkin bo'lgan hamma narsa qilishimni va oilasini sotib olish uchun, u o'zi topadigan pul yoniga qo'shishlikka ustavimiz bo'yicha haqim bo'lmaganidan, unga yordam berish uchun ehtimol boshqa mablag' topishimni aytdim. Shundan keyin men unga o'z fikrimni ochiq qilib dedim: Shomil hech qachon senga oilangni bermaydi, u ehtimol buni senga ochiqdan-ochiq aytar ham seni tamom kechirishga va ilgari mansabingni qaytib berishga va'da qiladi, agar sen qaytmasang, onangni, xotiningni va olti bolangni o'ldiraman, deb qo'rqitadi, dedim. Men undan, agar Shomildan shunday mazmunda xabar olgan taqdiringda nima qilishingni ochiq aytalasammi, deb so'radim. Hojimurod ko'zlarini va qo'llarini osmonga ko'tarib turib, menga, hammasi xudoning ixtiyorida, lekin men hech qachon o'z dushmanimga taslim bo'lmayman, chunki men, Shomilning meni kechirmasligiga va borgan vaqtda tirik qolmasligimga tamom ishonaman, dedi. Oilasining o'ldirilish masalasiga kelgan vaqtda, u Shomil bu qadar yengiltak ish qilmas, deb o'ylaydi: birinchidan, Shomil meni o'ziga yana ham g'azabli va xavfli dushman qilmaslik uchun bunday qilmaydi, ikkinchidan, Dog'istonda Shomilni bu ishdan qaytaradigan juda ko'p kishilar bor, deydi. Nihoyat u menga, kelgusi uchun, tangrining xohishi qanday bo'lmasin, uni hozir faqat o'z oilasini sotib olish haqidagi fikr band qilayotganini bir necha bor takrorladi, u mendan tangri haqqi uchun, unga yordam berishni va unga, Chechen atroflariga qaytib borishga ruxsat etishni qayta-qayta so'radi ham, u yerda boshliqlarimizning vositachiligi va ruxsati orqali o'z oilasi bilan aloqa qilish, ularning hozirgi ahvoli va ularni qutqazib olish vositalari haqida xabar olib turish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkinligini dushman o'lkasining bu qismidagi ko'p shaxslarning va hatto noiblarning ham ozmi-ko'pmi unga bog'liq bo'lganini, bajarilishi uni xotirjam qiladigan va unga bizning foydamiz uchun xizmat qilishga va bizning ishonchimizni qozonishga imkon beradigan va uning o'zini kechayu kunduz ta'qib qilayotgan maqsadga erishish uchun bizning yordamimiz bilan, shu ruslarga ko'pdan bo'ysungan yoki betaraf bo'lgan hamma aholi bilan g'oyat foydali, aloqa bog'lay olishi mumkin ekanini aytadi. U, o'zini, dushmanlardan saqlab yurgani, bizga esa - u aytgan niyatlarining rost ekaniga kafolat bo'lsin uchun yigirma yoki o'ttiz choqli botir kazaklardan iborat konvoy bilan yana Grozniyga yuborishini so'raydi. Sevikli knyaz', bularning hammasi boshimni qotirib qo'ygani angarsiz, chunki qanday bo'lmasin, mening ustimda kattakon javobgarlik yotadi. Unga tamom ishonib yuborish g'oyat darajada ehtiyotsizlik bo'lar edi, lekin biz undagi qochish uchun lozim bo'lgan vositalarni tortib olmoqchi bo'lsak, u holda uni qamashimiz kerak bo'lar edi, bu esa, mening fikrimcha, adolatsizlik va siyosiy jihatdan noto'g'ri bo'lardi. Bunday chora to'g'risidagi xabar darrov butun Dog'istonga tarqalar va barcha Shomilga qarashli ochiq ravishda borishga tayyor turgan ozmi-ko'pmi kishilarning (bundaylar esa juda ko'p) ham imomning o'zini bizga berilishiga majbur his etgan bir botir va epchil yordamchisining bizdagi ahvoli bilan juda qattiq qiziqsinuvchi kishilardagi havasni tortib olib, bizga juda katta zarar qilgan bo'lardi. Agar biz Hojimurodga, asirlarga qilinadigan munosabatni qilsak, uning Shomilga qilgan xiyonatidan kelib chiqadigan barcha foydali natijalar, biz uchun yo'qolgan bo'lardi.

Shuning uchun Hojimurod yangidan qaytib ketishni o'ylagan bo'lsa, meni katta xato qilishda ayblashlari mumkin ekanligini sezganim holda, Hojimurodga hozirgi munosabatdan boshqacha munosabat qila olmas edim, deb o'ylayman. Xizmatda va bunaqangi chalkash ishlarda xato qilishdan qo'rqib va o'z ustingga javobgarlikni olmasdan turib, bitta to'g'ri yo'ldan ketish mumkin emas, deb aytmay iloj yo'q; lekin modomiki yo'l to'g'ri bo'lib ko'rinar ekan, o'sha yo'ldan ketish kerak,- mayli, nima bo'lsa bo'lsin. Sevimli knyaz', bu fikrlarni baland martabali imperator janoblarining muhokamasiga topshirishingizni iltimos qilaman, agar janobi oliylari bu ishimni ma'qul ko'rsalar, men baxtiyor bo'laman. Yuqorida sizga yozganlarimning hammasini, general Zavadovskiy va general Kozlovskiy larga ham yozib yubordim. Hojimurodga Kozlovskiyning roziligisiz hech narsa qilish va hech yoqqa borishi mumkin emasligini aytib qo'ydim. Men unga, Hojimurod bizning konvoyimiz bilan yursa, biz uchun yana yaxshi ekanini, bo'lmasa Shomil "ruslar Hojimurodni qamoqda saqlaydi", deb gap tarqata boshlashini aytdim; lekin men bu bilan birga hech qachon Vozdvijenskiyga bormasligi uchun undan va'da oldim, negaki, u birinchi marta bosh egib kelgan va o'zining oshnasi deb hisoblagan kishisi - mening o'g'lim, u joyning boshlig'i emas, shuning uchun ham biror anglashilmovchilik yuz berishi mumkin ekanini gapirdim. Shunisi ham borki, Vozdvijenskiy bir talay bizga yov bo'lgan qishloqlarga juda ham yaqin, holbuki, u, o'zining ishonchli kishilari bilan olib borishni istagan aloqalar uchun Grozniy har jihatdan qulay.

Tanlab olingan va uning o'z so'rovi bo'yicha undan bir qadam ham ajralmaydigan yigirma choqli kazaklardan tashqari, tatarcha gaplasha oladigan, Hojimurodni yaxshi biladigan, Hojimurod ham, mazmuni, unga tamom ishonadigan, loyiq, a'lo va aqli ofitser, rotmistr Loris-Melikovni ham qo'shib yubordim. Hojimurod bu yerda o'tkazgani o'n kun mobaynida, bu yerga ish bilan kelgan, Shusha uyezdining boshlig'i polkovnik knyaz' Tarxanov bilan bir uyda yashadi; bu odam - haqiqatan ham yaxshi odam, men unga tamom ishonaman. U ham Hojimurodning ishonchini qozonibdi va u tatarchani yaxshi gapirganidan uning bir o'zi orqali biz eng nozik va yashirin ishlar haqida muhokamalasdik.

Men Hojimurod to'g'risida Tarxanov bilan maslahatlashdim va u yo men qilganday qilish, yo Hojimurodning qamash, ham uni mumkin bo'lgan barcha qattiq choralar bilan qo'riqlash,- chunki unga yomon muomala qilingach, uni qo'riqlash oson bo'lmaydi - yo bo'lmasa, uni mamlakatdan tamom uzoqlashtirish kerak ekanligi masalasida mening fikrimga tamom qo'shildi. Lekin bu so'nggi ikki chora, biz uchun Hojimurod bilan Shomil o'rtasidagi janjaldan kelib chiqadigan barcha foydani yo'qqa chiqarar edigina emas, balki Shomil hukumatiga qarshi qaratilgan har qanday noroziliklarning o'sishini va tog'liklarning g'alayonga kelish imkoniyatini to'xtatib qo'yar edi. Knyaz' Tarxanov menga, Hojimurodning rostgo'yligiga ishonganligini va Hojimurodning Shomil uni hech qachon kechirmasligini ham kechirish to'g'risidagi va'dalariga qaramay, o'limga hukm qilishga shubhalanmasligini aytdi. Tarxanovning Hojimurod bilan bo'lgan aloqalarida tashvishga solishi mumkin bo'lgan birdan-bir narsa Hojimurodning o'z diniga bog'langan bo'lishligi edi va u, Shomilning unga shu jihatdan ta'sir qila olishini yashirmaydi. Lekin, yuqorida aytganim kabi Shomil Hojimurodni, mening yonimga qaytib kelsang, hech vaqt hayotingdan mahrum qilmayman, deb hech qachon ishontira olmaydi.

Mana, suyuqli knyaz', bu yerdagi ishlarning bu epizodi haqida sizga aytmoqchi bo'lganlarimning hammasi shu".

XV

Bu axborot Tiflisdan 24 dekabrda jo'natilgan edi. Yangi 52-yilning arafasida fel'd'eger' o'nlab otlarni o'lar-tirilariga qaramasdan qattiq haydab va o'nlab yamshiklarni qonga belab urib, u xatni, o'sha vaqtdagi harbiy ministr knyaz' Chernishevga yetkazdi va Chernishev 1852 yilning birinchi yarmida, boshqa ishlar qatorida Voronovning bu ma'lumotini ham imperator Nikolayga olib

bordi.

Chernishev, Voronsov hammaning hurmatini qozongani uchun ham, Voronsov haqiqiy barin, Chernishev esa har holda ragupi bo'lgani va hammadan muhimi - imperatorning Voronsovga nisbatan alohida tavajjuhi bor ekani uchun ham, uni sevmasdi; shunga ko'ra ham Chernishev Voronsovga qo'lidan kelganicha zarar yetkazish uchun har bir fursatdan foydalanardi. Chernishev Kavkaz ishlari haqida qilgan bundan avvalgi dokladida, boshliqlarning ehtiyotsizligi orqasida tog'liklar tomonidan kichikroq bir Kavkaz otryadining deyarli tamom qirilib tashlanganligini aytib, Nikolayni Voronsovdan norozi qilishga muvaffaq bo'lgan edi. Endi u, Voronsovning Hojimurod haqidagi buyrug'ini yomonlab ko'rsatishga niyat qildi. U podshohga, doimo ruslarning zarariga yerlilarga homiylik va hatto ularga nisbatan bo'shanglik qiluvchi Voronsov, Hojimurodni Kavkazda qoldirib, bema'ni ish qilgan; har ehtimolga ko'ra, Hojimurod faqat mudofaa vositalarimizni ko'rib olish uchungina bizga qo'shilgan, shuning uchun ham Hojimurodni Rossiyaning markaziga jo'natish va uning oilasi tog'dan qutqazilib olingach va uning bizga sodiqligiga ishonish mumkin bo'lgachgina, undan foydalanish yaxshiroq deb anglatmoqchi bo'ldi.

Lekin Chernishevning bu plani faqat shuning uchun amalga oshmadiki, birinchi yanvar' kuni artalab Nikolay juda kayfsiz bo'lib, u o'zidagi qarama-qarshilik hissi orqasida hech kimdan va qandaygina bo'lmasin, biror taklif qabul qilmasdi; ayniqsa u Chernishevning taklifini qabul qilishni istamasdi, negaki, u Chernishevga, uni hozircha almashtirib bo'lmaydigan kishi deya hisoblagani uchungina chidab turar, ammo uning dekabristlar voqeasida zaxar Chernishevni halok qilishga uringanini va uning mol-mulkini qo'lga kiritishga tirishganini bilganidan uni katta olchoq hisoblar edi. Shunday qilib, Nikolayning yomon kayfiyatda bo'lganligi orqasida Hojimurod Kavkazda qoldi va Chernishev mabodo o'z dokladini boshqa vaqtda qilgan bo'lsa, o'zgarishi mumkin bo'lgan uning taqdiri o'zgarmay qoldi.

Yigirma darajali sovuqning tumanida, Chernishevning uchi ingichka oq ko'k duxoba shapka kiyib olgan, semiz, sersoqol kucher, xuddi Nikolay Pavlovich tushib yuradigan chanaga o'xshash kichkina chananing oldiga o'tirib olib, qishki saroy darvozasi yoniga yetib kelganida va xo'jayinini allaqachon tushirib yuborib, tizginni qalin paxtalik etagining ostiga bostirib olib, uvushgan qo'llarini bir-biriga ishqalab saroy darvozasi oldida turgan o'z oshnasi, knyaz' Dolgorukiyning kucheriga do'stona bosh qimirlatganida soat to'qqiz yarim edi.

Chernishev ustiga oq qunduz yoqali shinel', boshiga forma bo'yicha xo'roz pati qadalgan uch burchakli shlyapa kiygan edi. U ayiq terisidan qilingan oyoq yopqichni olib tashlab, sovuqda uyushgan, kalishsiz (u kalish degan narsani bilmaganligi uchun faxrlanardi), oyoqlarini chanadan ohistalik bilan chiqarib oldi, so'ng, tetiklanib shporlarini jing'irlatganicha, gilamdan yurib shveysar tarafidan izzat-ikrom bilan ochilgan eshikka kirib ketdi. Chernishev dahlizda oldiga chopib kelgan kamer-lakeyning qo'lga shinelini tashlab, oyna yoniga keldi va ohistalik bilan boshidan, jingalak parikdan shlyapasini oldi. U, oynada o'ziga qarab turib, kekxa qo'llarining odatiy harakatlari bilan chakka sochlarini va kokilini siladi, krestini, aksel'bantini ham katta venzelli edoletlarini tuzatdi, so'ng, bedarmon oyoqlari bilan arang qadam tashlab, yotiq zinaning gilamidan yuqoriga ko'tarildi.

Chernishev, tantanali forma kiyib eshiklar oldida turishgan va unga yaltoqlik bilan ta'zimda bo'lgan kamer-lakeylarning yonidan o'tib, qabulxonaga kirib ketdi. Yangi mundir, epoletlar, aksel'bantlar bilan jilvalanib turgan, hali achchiq-chuchukni ko'rmagan sof, qizil yuzli, sabza urib kelayotgan qora mo'ylovli, chakka sochlari Nikolay Pavlovichniki singari ko'zlariga qarata taralgan navbatchi, yangi tayinlangan fligel'-ad'yutant, uni hurmat bilan qarshi oldi. Harbiy ministrning o'rtog'i xuddi Nikolayniki singari chakka soqol, mo'ylovlar va gajaklar bilan bezangan knyaz' Vasilii Dolgorukiy, zerikkan bir qiyofa bilan Chernishevni qarshilab o'rnidan turdi-da, ko'rishdi.

- Z' empereur? - Chernishev ko'zlari bilan savolnamo kabinetining eshigiga imo qilib, fligel'-ad'yutantga murojaat etdi.

- Sa Majeste vient de rentrer - fligel'-ad'yutant, aftidan o'z tovushini eshitib zavq bilan javob berdi, so'ng, ohista qadamlar bilan stakanga suv to'ldirib boshiga qo'ysa to'kilmaydigan darajada tekis yurib tovushsiz ochilgan eshikning yoniga bordi va butun borlig'i bilan kirayotgan yeriga hurmat ifoda qilib, eshikka kirib g'oyib bo'ldi. Dolgorukiy, bu orada, qog'ozlarini tekshirib ko'rish uchun portfelini ochdi. Chernishev esa, qovog'ini solib, oyog'ining uvushganini yozib va imperatorga aytilishi kerak bo'lgan narsalarning hammasini xotirlab, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Kabinetning eshigi yana ochilib, undan yanada ochilib ketgan va sertakalluf fligel'-ad'yutanti chiqib, ministrni ham uning o'rtog'ini imo bilan podshoh yoniga chorladi, bu choq Chernishev kabinet eshigining oldida edi.

Qishki saroy yong'indan so'ng allaqachonlar qaytadan tuzatilgan, lekin Nikolay binoning hali yuqorigi qavatida yashar edi. Uning, ministrnlarni va yuqori boshliqlarni doklad bilan qabul qiladigan kabineti to'rtta katta derazali juda baland xona edi. To'rdagi devorda imperator Aleksandr I ning katta portreti osig'liq turardi. Derazalarning oralarida ikkita byuro, devorlarning yonida bir qancha stul, xonaning o'rtasida zo'r yozuv stoli, stolning oldida Nikolayning kreslosi, qabul qilinuvchilar uchun qo'yilgan stullar turardi. Nikolay, yarim pogonchalar taqilgan epoletsiz qora syurtuk kiyib olgan, tarang qilib boylangan katta qorinli zo'r qomatini orqaga tashlab o'tirmoqda va nursiz ko'zlari bilan harakatsiz bir ravishda kiruvchilarga qaramoqda edi. Uning, tepakalini yopib turgan parigi bilan sun'iy ravishda qo'shilgan, silliq qilib taralgan chakka sochlari ostidan chiqib turgan katta do'ng peshonali cho'ziq oq yuzi bugun ayniqsa sovuq va harakatsiz edi. Uning hamma vaqt so'nik bo'lgan ko'zlari odatdagiga qaraganda yana ham so'nikroq boqar, yuqoriga qarata qayrilgan mo'ylovlari ostidagi qisilgan lablari, baland yoqaga tiralib turgan semiz va to'g'ri hasipga o'xshatib chakka soqol qoldirilib, yangigina qirilgan jag'lari va yoqasiga qisilib turgan bag'baqasi uning yuziga norozilik va hatto g'azab ifodasini berar edi.

Bu kayfiyatning sababi charchaganlik edi. Charchaganlikning sababi esa mana bu edi: u kecha maskaradda bo'ldi va boshiga kavalergardlarga xos qush surati o'rnatilgan kaska kiyib olib, uning yoniga siqilishib keluvchi va qo'rqishib o'zlarini, uning katta va mag'rur gavdasidan chekkaga suruvchi xalq orasida odatdagicha aylanib yurib, uni kelgusi maskaradda uchratishga va'da berib, o'tgan maskaradda undan yashiringan o'sha niqobli qizni uchratib qoldi. Kechagi maskaradda niqobli qizni qo'yib yubormadi. U qizni bu maqsad uchun tayyor holda saqlanadigan va o'z xonimi bilan yakka qolishi mumkin bo'lgan xonaga olib bordi. Nikolay jim holda bu xonaning eshigiga kelgach, ko'zlari bilan kapel'-dinerni axtarib, u yoq-bu yoqqa qaradi, ammo u yo'q edi. Nikolay qovog'ini soldi va xonaning eshigini o'zi itarib ochib, xonimni ilgari kirgizdi.

- Il y a quelqu'un -, dedi niqobli qiz to'xtab.

Xona haqiqatan ham band edi: barqut divanchada, bir-biriga jips bo'lib, otliq askar ofitseri bilan birga, maskaradga xos libos kiygan, niqobni yechib qo'ygan chiroylikkina, oqimtir jingalak sochli bir yosh xotin o'tirardi. Bor bo'yicha tik turgan g'azabkor Nikolayning qomatini ko'rib, oqimtir sochli xotin shoshib niqobini kiydi. Ofitser esa o'tirgan joyida dahshatdan qotib, divandan turolmasdan, harakatsiz ko'zlarini Nikolayga tikkancha qoldi.

Nikolay kishilarni dahshatga solinishiga qanchalik o'rganib qolgan bo'lmasin, bu dahshat hamma vaqt unga yoqar va u ba'zan

dahshatga tushirilgan kishilarni, ularga nisbatan aytiladigan yumshoq so'zlarning kontrasti bilan tong qoldirishni sevar edi. U hozir ham shunday qildi.

- Qani, uka, sen mendan yoshroqsan,- dedi u dahshatdan qotib qolgan ofitserga,- o'rningni menga berishing mumkin.

Ofitser o'rnidan irg'ib turdi, u dam qizarib, dam bo'zarib bukilganicha, jimgina niqobli xotinning orqasidan chiqdi. Nikolay o'z xonimi bilan yolg'iz qoldi. Xonim - shved murabbiyaning yigirma yoshli yaxshi bir qizi edi. Bu qiz Nikolayga, bolalik chog'idanoq uning portretini ko'rib maftun bo'lganini va qanday qilib bo'lsa-da, uning diqqatiga muyassar bo'lishga qaror qilganini aytib berdi. U, mana, muyassar bo'ldi, uning aytishicha, endi unga ortiq hech narsa kerak emas edi. Qiz Nikolayning odatda xotinlar bilan uchrashadigan xonasiga keltirilgan edi. Nikolay qiz bilan bir soatdan ko'proq shu yerda bo'ldi.

Nikolay shu kechasi xonasiga kelib, o'zi faxrlanib yuradigan tor va qattiq to'shagiga yotgach, Napoleonning shlyapasidek mashhur (shunday deb gapirib yuradi) plashini ustiga yopgandan so'ng, uzoq vaqtgacha uxlay olmadi. U goh, o'sha qizning oq yuzidagi qo'rqan va mag'rur qiyofani va goh esa o'zining doimiy seviklisi bo'lgan kelishgan, do'mboq Nelidovani xotirlab, ikkovini bir-biri bilan taqqosladi. Xotini bo'la turib, buzuqlik qilib yurishi yaxshi emasligi uning aqliga ham kelgani yo'q. Mabodo, biron uni bu ishi uchun ayblasa, u juda ajablangan bo'lardi. Chunki, to'g'ri ish qildim, deya ishonganiga qaramasdan, uning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi va bu g'ashlikni bosib yuborish uchun uni hamma vaqt tinchlantiradigan narsa: o'zining naqadar buyuk odam ekanligi haqida o'ylay boshladi.

Kech uxlaganiga qaramasdan, u hamma vaqtdagidek soat sakkizlarda turdi, keyin odatdagicha o'ziga qarab katta, semiz vujudini muz bilan ishqalab, ham tangriga ibodat qilib bo'lib,- aytilayotgan so'zlarga hech qanday ma'no bermasdan, bolaligidan beri o'qib keladigani odatdagi: "Bagoroditsa", "E'tiqod", "Otche nash" degan duolarni o'qidi - keyin shinel' va furajka kiyib, kichkina eshikdan daryo bo'yidagi ko'chaga chiqdi. Ko'chani o'rtasida, xuddi uning o'ziga o'xshagan: barvasta mundir va shlyapa kiyib olgan, huquq o'rganish maktabining o'quvchisi duch keldi. Nikolay Pavlovich, hurriyatparvarligi uchun yomon ko'radigan maktabning mundirini ko'rib, qovog'ini soldi, ammo o'quvchining baland bo'yi, ikki qo'lini yoniga qilib tik turishi va tirsagini tekis bukib chest' berishi uning noroziligini yumshatdi.

- Familiyang nima?- so'radi u.

- Polosatov, imperator janoblari.

- Barakallo!

O'quvchi qo'lini chakkasiga qilganicha turmoqda edi. Nikolay to'xtadi.

- Harbiy xizmatga kirishni istaysanmi?

- Mutlaqo istamayman, imperator janoblari.

- Tarbiyasiz!

So'ng Nikolay o'girilib, nari qarab ketdi va qattiq ovoz bilan og'ziga to'g'ri kelgan so'zni gapira boshladi. "Koperveyn, Koperveyn,- u kechagi qizning nomini bir necha marta takrorladi.- Rasvo, rasvo". U gapirayotgan narsasi haqida o'ylamas, lekin gapirayotgan so'zlariga e'tibor berib, shu bilan yuragining hovurini bosmoqda edi. U norozilik hissining yana yaqinlashib kelayotganini sezib, o'ziga: "Ha, mensiz Rossiya nima bo'lar edi", deb o'yladi. "Ha, mensiz yolg'iz Rossiyagina emas, balki Yevropa nima bo'lar edi". So'ng u qaynisi Prussiya qirolini, uning ojizligini va ahmoqligini xotirladi-da, boshini chayqab qo'ydi.

U orqaga qaytib eshik yoniga kelganida, qizil kiyim kiyib olgan lakey boshqargan Yelena Pavlovnaning karetsi Saltikovskiy darvozasiga kelib to'xtaganini ko'rib qoldi. Uning uchun Yelena Pavlovna faqat ilm, poeziya haqidagina emas, balki o'zimizni Nikolay bizni idora qilganidan yaxshiroq idora qila olamiz, deya tasavvur qilishib, idora qilish haqida ham muhokama yurgizadigan quruq kishilarning timsoli edi. U, bu odamlarni qanchalik bosib turmasin, ularning yana yuzaga yuzib chiqishlarini bilardi. U yaqindagina o'lgan ukasi Mixail Pavlovichni xotirladi, uni achinish hissi va qayg'u o'rab oldi. U qayg'irib, qovog'ini soldi va yana dastlab og'ziga kelgan so'zni shivirlay boshladi. U faqat saroyga kirgachgina, shivirlashdan to'xtadi.

U, o'z xonasiga kirib, oyna oldida chakka soqolini, chakka sochlarini va boshining tepasiga yopilgan sun'iy sochini silagach, mo'ylovlarini burab, to'ppa-to'g'ri dokladlarni qabul qiladigan kabinetga o'tdi.

U avval Chernishevni qabul qildi. Chernishev shu zamoniyoq Nikolayning yuzidan va ayniqsa ko'zlaridan juda ham kayfsiz ekanini va kechagi sarguzashtini bilgani uchun bu kayfsizlikning nimadan kelib chiqqanini angladi. Nikolay sovuqqina ko'rishdi va Chernishevni o'tirishga taklif qilib, o'zining nursiz ko'zlarini unga tikdi.

Chernishevning dokladidagi birinchi ish - intendant amaldorlarining ochilib qolgan o'g'riligi haqida, keyin Yangi yil munosabati bilan oldingi ro'yxatdan tushib qolgan ba'zi bir kishilarga mukofot belgilash, so'ng Voronsovning Hojimurod haqidagi ma'lumoti va nihoyat professorning hayotiga suiqasd qilgan tibbiy akademiyaning studenti to'g'risidagi ko'ngilsiz ish edi.

Nikolay jim holda, lablarini qisib, sinchalog'iga oltin uzuk taqilgan katta oq qo'li bilan bir varaq qog'ozni silab o'tirib,

Chernishevning peshonasidan va kokilidan ko'zlarini olmay, o'g'irlik haqidagi dokladni tingladi.

Nikolay hammaning ham o'g'irlik qilishiga ishonardi. U endi intendant chinovniklariga jazo berish kerakligini bilardi, Nikolay

ularning hammasini soldatlik darajasiga tushirib yuborishga qaror qildi, ammo bu choraning, bo'shatilganlar o'rnini

egallaydiganlarning ham xuddi shunday qilishlariga xalal bermasligini bilardi. Chinovniklarning xususiyati - o'g'irlash,

Nikolayning vazifasi esa ularni jazolab turish edi va bu ish qanchalik joniga tekkan bo'lmasin, u bu vazifani vijdon bilan bajarardi.

- Ma'lum bo'ladi, Rossiyamizda faqat bittagina vijdonli kishi bor ekan,- dedi u.

Chernishev shu zamoniyoq, bu Rossiyadagi birdan-bir vijdonli kishi Nikolayning o'zi ekanini angladi va ma'qullab iljaydi.

- Shunday bo'lsa kerak, janob oliylari,- dedi u.

- Qoldir, men rezolyutsiya qo'yaman,- dedi Nikolay qog'ozni olib va uni stolning chap tomoniga qo'yib.

Bundan so'ng Chernishev mukofotlar va qo'shinni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish haqida doklad qila boshladi. Nikolay ro'yxatni ko'rib chiqdi, bir qancha ismni o'chirdi, so'ng ikki diviziyani Prussiya chegarasiga yuborish haqida qisqa va qat'iy buyruq berdi.

Nikolay, 48-yildan so'ng konstitutsiya bergani uchun Prussiya qirolini hech kechira olmas, shuning uchun ham qaynisiga yozgan xatlarida eng do'stona tuyg'ularni ifoda qilib, har ehtimolga qarshi Prussiya chegarasida qo'shin saqlash lozimligini uqtirardi.

Mabodo Prussiya xalqi isyon ko'tarib qolgudek bo'lsa, Nikolay hamma yerda ham xalqning isyoniga tayyor turganini ko'rardi,- vengerlarga qarshi Avstriyani himoya qilish uchun qo'shin yuborgani singari, qaynisining taxtini himoya qilishga yuborish uchun ham qo'shin kerak bo'lardi. Chegaradagi bu qo'shin, uning Prussiya qiroliga beradigan maslahatlariga ko'proq e'tibor va ahamiyat kasb etishi uchun ham kerak bo'lardi.

U yana, "Ha, men bo'lmasam hozir Rossiya nima bo'lardi", deb o'yladi.

23 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Xo'sh, yana nima?- dedi u.

- Kavkazdan chopar keldi,- dedi Chernishev, so'ng Voronsovning Hojimurodning qo'shilganligi haqida yozgan gaplarini gapirib bera boshladi.

- Shunaqami,- dedi Nikolay.- Boshlanishi yaxshi.

- Muqarrar siz janob oliylari tomonidan tuzilgan plan o'z natijasini ko'rsata boshladi,- dedi Chernishev.

Uning strategiya qobiliyatlarini maqtash Nikolayga juda ham yoqdi. Negaki, u o'zining strategiya qobiliyatlari bilan maqtansa-da, qalbining teran joyida, bu qobiliyatlarning yo'qligiga iqrar bo'lardi. Endi esa u o'zi haqida yana ham mukammalroq maqtov eshitishni istar edi.

- Sen qanday tushunasan?- so'radi u.

- Men mana bunday deb tushunaman: ko'pdan janobi oliylarining plani bo'yicha ish qilib, o'rmonni qirqib, zapaslarni tugatib, asta-asta, garchi sekinlik bilan bo'lsa-da, ilgariga qarab harakat qilingan bo'lsa, u holda Kavkaz allaqachon bo'ysundirilgan bo'lardi.

Men Hojimurodning qo'shilishini faqat shunga taalluqli deb bilaman. Hojimurod, endi chidash berib turishlari mumkin emasligini anglagan.

- To'g'ri,- dedi Nikolay.

Nikolayning: birdaniga Shomilning qarorgohini egallash va bu qaroqchilar uyasini vayron qilish, degan planiga (bu plan bo'yicha 1845 yilda allaqancha kishilarning o'limiga sabab bo'lgan Darg'in ekspeditsiyasi vujudga keltirilgan edi) tamom zid bo'lgan - o'rmonlarni kesish va oziq-ovqatlarni yo'qotish vositasi bilan, sekin-sekin dushman tomoniga qarab harakat etish plani Yermolov va Vel'yaminovlarning plani bo'lganligiga qaramay, Nikolay bu planni ham o'ziniki deb hisoblar edi. Demak, sekinlik bilan harakat qilish, o'rmonlarni kesish va oziq-ovqatlarni yo'qotish plani uning plani ekaniga ishonish uchun Nikolaynnng 45-yilda mutlaqo boshqa harbiy planni yoqlab turib olgan ekanini yashirish kerak bo'lardi. Lekin u buni yashirmas va o'zining 45-yil ekspeditsiyasi plani bilan ham, sekin-asta ilgariga qarab siljish plani bilan ham: bu ikki plan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramasdan, faxrlanar edi. Atrofni o'rab olgan kishilarning doimo, ochiqdan-ochiq qiladigan jirkanch xushomadlari uni shu darajaga olib bordiki, Nikolay ortiq o'z qarama-qarshiliklarini ko'rmas, o'z ishlari va so'zlarini voqelik bilan, mantiq bilan yoki hatto oddiy sog'lom fikr bilan ham muvofiqlashtirmas, balki butun buyruqlarning, ular qanchalik ma'nosiz, haqqoniyatsiz bo'lmasin, ularni faqat u qilayotgani uchungina - o'ylangan, haqqoniy, bir-birlari bilan muvofiq deb tamom ishonar edi.

Uning, Chernishev Kavkaz ishidan so'ng doklad qila boshlagan tibbiy xirurgiya akademiyasining studenti haqidagi qarori ham shunday bo'ldi.

Voqea mana bunday edi: ikki marta imtihon bera olmagan yosh yigit uchinchi marta imtihon beradi va imtihon oluvchi uni yana o'tkazmagach, asabiy kasal student, bu ishda haqqoniyatsizlik ko'rib, stolning ustida turgan qalamtaroshni oladi-da, qandaydir bir tutqanoq bilan professorga hujum qilib, uni birmuncha joydan yengil yarador qiladi.

- Familiyasi nima?- deb so'radi Nikolay.

- Bjezovskiy.

- Polyakmi?

- Polyakdan chiqqan, katolik,- Chernishev javob berdi.

Nikolay qovog'ini soldi.

U polyaklarga ko'p yomonlik qilgan. Bu yomonliklarni izoh qilish uchun u, hamma polyaklar yaramas, deb ishongan bo'lishi kerak edi. Chindan ham Nikolay ularni shunday deb hisoblar, shuning uchun ham yomon ko'rar va polyaklarni ularni qilgan yomonliklari darajasida ko'ra olmas edi.

- Bir oz to'xta,- dedi u va ko'zlarini yumib, boshini quyi soldi.

Nikolay biror masalani hal qilmoqchi bo'lganda unga fikrlarini jamlash uchun bir necha daqiqa kifoya qilarkan xolos, shunda uning ilhomi kelib, o'z-o'zidan eng to'g'ri yechimini topar, go'yo ichki bir ovoz unga nima qilish kerakligini aytib turgandek bo'lar ekan. Chernishev bu haqda Nikolayning o'z og'zidan bir necha bor eshitgan edi.

U doklad qog'ozini oldi va uning chetiga o'zining yirik xati bilan shunday deb yozdi: "O'lim jazosiga loyiq. Ammo, tangriga shukur, bizda o'lim jazosi yo'q. Va u jazoni men kiritmayman. 12 marta ming kishining orasidan o'tkazilsin . Nikolay". U katta qilib qo'l qo'ydi.

Nikolay, o'n ikki ming xipchinning chinakam, azobli o'limgina emas, balki haddan tashqari rahmsizlik ekanini bilardi, negaki, eng kuchli odamni ham o'ldirish uchun besh ming xipchin urish yetarli edi, lekin unga g'oyatda rahmsiz bo'lish hamda "o'lim jazosi yo'q", deb o'ylash ko'ngilli edi.

U student haqidagi qarorni yozib bo'lib, Chernishevga uzatdi.

- Mana, o'qib chiq,- dedi u.

Chernishev o'qib chiqdi, u qarorning hikmatligiga qoyil bo'lganining ishorasini qilib, boshini egdi.

- Butun studentlarni maydonga chiqarish kerak, ular jazo vaqtida hozir bo'lsinlar,- deb qo'shib qo'ydi Nikolay.

U, "Ularga o'rnak bo'ladi. Men bu revolyutsion ruhni ildizi bilan sug'urib tashlayman"b"b"deb o'yladi.

- Xo'p,- dedi Chernishev, bir oz jim turib, keyin sochini tuzatib Qavkaz masalasiga qaytdi.

- Shunday qilib Mixail Semyonovichga nima deb yozishga buyurasiz?

- Mening, Chechendagi uylarni vayron qilish, oziq-ovqatni yo'qotish va ularni bosib borish bilan tahlikaga solib turish sistemam qattiq qo'llansin,- dedi Nikolay.

- Hojimurod to'g'risida qanday buyruq berasiz?-- deb so'radi Chernishev.

- Ha, axir Voronsov uni Kavkazda ishlatmoqchiman, deb yozibdi-ku.

- Bu ish xavfli bo'lasmikin?- dedi Chernishev Nikolayning ko'zidan ko'zlarini olib qochib,- Mixail Semyonovich juda ham ishonib ketaveradigan odam, deb qo'rqaman.

- Sen qanday o'ylab eding?b"b"Chernishevning Voronsov buyrug'ini yerga urmoqchi bo'lganini sezib, keskin so'radi Nikolay.

- Ha, men uni Rossiyaga yuborish xavfsizroq deb o'ylar edim.

- Sen o'ylabsan,- dedi Nikolay istehzo bilan.- Men esa o'ylamayman va Voronsovning fikriga qo'shilaman. Unga shunday deb yoz.

- Xo'p,- dedi Chernishev va o'rnidan turib, ta'zim qilib xayrlasha boshladi.

Butun doklad davomida faqat Nikolayning savoliga javoban qo'shinning joyini o'zgartirish haqida bir necha og'iz gapirgan Dolgorukiy ham ta'zim bilan xayrlashdi.

Chernishevdan so'ng, ta'zim qilib ketish uchun kelgan G'arbiy o'lkani general-gubernatori Bibikov qabul qilindi.

Provoslav diniga o'tishni istamasdan qo'zg'olon ko'targan dehqonlarga qarshi Bibikov tomonidan ko'rilgan choralarni ma'qullab, Nikolay unga bo'ysunmaganlarning hammasini harbiy sud qilishni buyurdi. Bu, qator oralatib o'tkazish degan so'z edi. Bundan tashqari u, davlatga qarashli bir qancha ming dehqonlarni podshoh nasliga tegishli yerlarga o'tkazish haqidagi xabarni bosib chiqargan gazeta redaktorini soldatlikka berishga buyruq qildi.

- Men bu ishni lozim deb topganim uchun qilaman,- dedi u.- Bu haqda muhokamaga yo'l qo'ymayman.

Bibikov, uniatlar haqidagi buyruqning butun rahmsizligini va davlatga qarashli dehqonlarni, ya'ni birdan-bir erkin kishilarni podshoh ixtiyoriga o'tkazish, ya'ni ularni podshoh familiyasidagi kishilarga krepostnoy qilib berishning butun haqqoniyatsizligini angladi. Ammo qarshilik qilish mumkin emas edi. Nikolayning buyrug'iga qo'shilmaslik - qirq yil mobaynida qo'lga kiritgan va foydalanmoqda bo'lgan porloq vaziyatdan mahrum bo'lish demak edi. Shuning uchun ham u itoat etishligi va rahmsiz, aqlsiz, insofsiz bo'lgan oddiy buyruqni bajarishga tayyor ekanligining ishorasi qilib, oq tusha boshlagan qora sochli boshini egdi. Nikolay Bibikovni chiqarib yuborgandan so'ng, vazifamni yaxshi bajardim, degan tushuncha bilan kerishdi, soatiga qaradi va tashqari chiqish uchun kiyingani ketdi. U epoletlar, ordenlar va lenta taqilgan mundirini kiyib, qabul zaliga chiqdi. Zalda har qaysisi o'ziga munosib joyni egallagan yuzdan ortiq mundirli erkaklar va yangi liboslar kiygan xotinlar qo'rquvdan qaltirashib, uning chiqishini kutib turmoqda edilar.

U nursiz ko'zlari, kekkeygan ko'kragi va qisib bog'langan kamarning ostidan ham, ustidan ham toshib chiqib turgan qornini qappaytirib, kutib turuvchilarning yoniga chiqdi va hammaning ko'zi titroq yaltoqlik bilan o'ziga qarab turganini sezib, yana ham ko'proq tantanali vajohatga kirdi. U o'ziga tanish kishilarni uchratib, ularning kim ekanini xotirlar, to'xtar va ba'zan ruschalab, ba'zan fransuzchalab bir necha og'iz so'z gapirar ham ularga sovuq, nursiz ko'zlarini tikib turib, ularning gapirgan gaplarini tinglar edi.

Nikolay tabriklarni qabul qilib bo'lib, cherkovga o'tdi.

Kiborlar singari xudo ham o'z xizmatchilari orqali Nikolayni tabrik qildi va maqtadi. Garchi ko'ngliga urgan bo'lsa-da, bu tabrik-maqtashlarni lozim bo'lgan narsa sifatida qabul qildi. Bularning hammasi shunday bo'lishi kerak edi, chunki butun dunyoning rohati va saodati unga bog'liq va garchi u bu ishdan charchagan bo'lsa-da, har holda dunyoga o'zining marhamatini ko'rsatishdan qo'l siltamas edi. Kunduzgi ibodatning oxirida juda soz, tarangan d'yakon hamdu sano o'qiganida va bu so'zlarni xalfalar chiroyli ovozlari bilan baravar aytishib ketganlarida, Nikolay o'grilib qarab, oyna oldida do'ndiqqina Nelidovaga ko'zi tushdi-yu, uni kechagi qiz bilan taqqoslagach, Nelidovani afzal ko'rdi.

U kunduzgi ibodatdan imperatritsaning yoniga ketdi, u, bolalari ham xotini bilan hazillashib, gapirishib, oilasida bir qancha minut vaqt o'tkazdi. Keyin Ermitaj orqali o'tib, saroy ministri Volkonskiyning yoniga kirdi, so'z orasida unga o'zining xususiy pulidan kechagi qizning onasiga har yil pensiya berib turishni buyurdi. So'ng o'zining odatidagi sayohatiga ketdi.

Shu kungi ovqat Pompey zalida bo'ldi, podshohning kichik o'g'illari - Nikolay va Mixaillardan tashqari baron Liven, graf Rjevusskiy, Dolgorukiy, Prussiya elchisi ham Prussiya qirolining fligel'-ad'yutanti taklif qilingan edi.

Imperatritsa va imperatorning chiqishini kutar ekanlar, Prussiya elchisi bilan baron Liven o'rtasida, Pol'shadan olingan so'nggi vahimali xabar munosabati bilan qiziq suhbat boshlanib ketdi.

- Za Pologne et le Caucase ce sont les deux cautres de la Russie, - dedi Liven. - Al nous fout cent mille hommes a peu pres dans chacun de ces deux pais .

Elchi, bu narsaning shunday ekanligiga mug'ambirona taajjub izhor etdi.

- Vous dites la Pologne? . - dedi u.

- Oh, oui, c'etait un coup de maitre de Maeternich de nous en avoir laisse d'ambarras ...

Suhbat shu yerga yetganda, odatdagicha boshi qaltiragan holda, yuzida qotib qolgan tabassum imperatritsa va uning orqasidan Nikolay chiqdi. Ovqat vaqtida Nikolay Hojimurodning qo'shilganligi va o'rmonlarni kesaberish ham istehkomlar solish bilan tog'liklarni qisa borish to'g'risidagi o'z buyrug'i natijasida, endi Kavkaz urushining tezda tugalishi kerakligini so'zlab berdi.

Bugun ertalab Prussiya fligel'-ad'yutanti bilan o'zini buyuk strateg deb hisoblagan Nikolayning baxtsiz ojizligi to'g'risida so'zlashgan elchi, fligel'-ad'yutant bilan ko'z urishtirib olib, Nikolayning buyuk strategik qobiliyatini yana bir marta isbot qiladigan bu planni toza maqtadi.

Ovqatdan so'ng Nikolay, triko kiygan yuzlab xotin mashq qilayotgan baletga bordi. Bittasi unga juda yoqdi va Nikolay baletmeysterni chaqirib olib, unga tashakkur bildirdi-da, brilliant uzuk hadya qilishni buyurdi.

Ertasi Chernishev doklad qilgan vaqtida Nikolay o'zining, endi Hojimurod qo'shilgach, Chechen o'lkasini zo'r berib bezovta qilish va uni chegara chizig'ini kengaytira borish yo'li bilan qisish kerak, deya Voronsovga bergan buyrug'ini yana bir marta ta'kidladi. Chernishev shu mazmunda Voronsovga xat yozdi, shunda boshqa fel'd'eger' otlarni urib haydab, yamshiklarning yuzlarini yorib Tiflisga qarab jo'nadi.

XVI

Nikolay Pavlovichning bu buyrug'ini amalga oshirish yuzasidan shu zamoniyoq, 1852 yilning yanvarida, Chechenga yurish tashkil qilindi.

Yurishga tayinlangan otryad - to'rt piyoda batal'on, ikki yuz kazak va sakkizta to'pdan iborat edi. Kolonna yo'ldan borardi.

Qolonnaning har ikki tarafida esa saf bo'lib, past-baland yerlardan goh yuqori ko'tarilib, goh pastga tushib, qo'ng'i uzun etik, kalta po'stin va papax kiyib, miltiqlarini yelkalariga qo'yishib, patronlarini tasmalariga tizib, ko'kraklariga taqib olishgan yegerlar bormoqda edi. Otryad dushman yeridan, hamma vaqtdagidek, mumkin qadar jimlik saqlab borardi. Faqat ahyon-ahyonda chuqurchalarga tushib ketgan to'plarning taraq-turug'i eshitilar yoki jimlik to'g'risidagi buyruqni bilmaydigan artilleriya otlari pixillar yo kishnar, yoki g'azablangan boshliq saf juda cho'zilib ketgani, yo haddan tashqari jipslashib qolgani, yo kolonnadan uzoqlashib ketgani uchun o'z qo'l ostidagilarga xirildoq, bo'g'iq ovoz bilan qichqirar edi. Saf bilan kolonna oralig'idagi uncha katta bo'lmagan changal orasidan, chovi va sag'risi oq, orqasi kulrang bir echki bilan xuddi shunga o'xshagan, uncha katta bo'lmagan, shoxi yelkasiga qayrilgan bir taka irg'ib chiqqandi, jimlik faqat bir martagina buzildi. Chiroyli, hurkak jonivorlar, oldingi oyoqlarini qisib sakrashib, kolonnaga shu qadar yaqinlashdilarki, bir qancha soldatlar, nayza bilan sanchib olamiz, degan niyatda, qiyqiriq va qahqahalar bilan echkilarni quva ketdilar, lekin echkilar orqaga burildilar, saf orasidan kesib qushlar singari toqqa qarab qochib ketdilar, ular orqasidan bir qancha otliqlar va hatto itlar quvishdi.

Hali qish, ammo quyosh tikkadan nur socha boshlagan edi. Azonda yo'lga chiqqan otryad o'n chaqirimcha yurganda tush vaqti

bo'ldi. Kun qattiq isib ketgandi, quyosh nurlari shuncha o'tkir ediki, po'lat nayzalardagi xuddi kichkina quyosh singari to'plarning

misidagi yarqirab turgan shu'lalarga qarab bo'lmasdi.

Orqa tomonda, otryad hozirgina o'tgan tezoqar toza anhor bo'lib, oldingi tomonda - haydalgan dalalar va past-baland pichanzor bor edi, bulardan narida daraxtlar bilan qoplangan sirli qora tog'lar ko'rinardi: qora tog'larning naryog'ida cho'qqayib turgan xarsanglar va ufqda doimo go'zal, abadiy o'zgarib turuvchi, olmos kabi shu'la bilan o'ynovchi qorli tog'lar ko'rinardi.

Beshinchi rotaning oldida, hayotning shodiyona tetik tuyg'usini va shu bilan birga o'lim xavfini, ish ko'rsatish istagini, zo'r yagona idora qilinadigan umumiy maqsadga bo'ysundirish tushunchasini his etib, qora syurtuk va papax kiyib, qilichini yelkasiga osib olgan, yaqindagina gvardiyadan bu yoqqa o'tgan novcha chiroyli ofitser Butler bormoqda edi. Butler kelganidan buyon bugun ikkinchi marta safarga chiqar va unga mana hozir menga qarab o'q ota boshlaydilar, men uchib o'tayotgan to'p o'qlaridan boshimni olib qochib engashmayman yoki miltiq o'qlarining guvullab o'tishlariga parvo qilmaymangina emas, balki avval yurganimdek boshimni yuqori ko'tarib, ko'zlarimni jilmaytirib, o'rtoqlarimga va soldatlarga qarayman va juda xotirjam, boshqa biron narsa haqida gapira boshlayman, deb o'ylash sevinch bag'ishlar edi. Shu orada qayoqdandir mash'um bir guvullash bilan to'p o'qi uchib kelganda va karvonning o'rtasida, yo'l bo'ylab, jo'xorizorda yerga urilib yorilganda, otryad yaxshi yo'ldan qayrilib, jo'xori orasidan o'tgan - oz yurilgan yo'lga burilib, o'rmonga yaqinlashib qolgan edi.

Butler shod tabassum bilan yonida kelayotgan o'rtog'iga:

- Boshlanayotibdi,- dedi.

Haqiqatan ham to'p o'qidan so'ng o'rmon ichida qalin otliq chechenlar to'dasi ko'rindi. To'daning o'rtasida katta zangori tug' bor edi. Rotaning juda uzoqni ko'radigan eski fel'dfebeli uzoqni ko'ra olmaydigan Butlarga, bu Shomilning o'zi bo'lishi kerak, dedi. To'da tog' ostiga tushdi, so'ng yaqindagi soyning tepasida - o'ng tomonda ko'rinib pastga tusha boshladi. Issiq qora syurtuk va tepasi katta oq papax kiyib olgan kichkina general yo'rg'asi bilan Butler rotasi yoniga keldi va unga, o'ng tomonga, pastga tushayotgan otliqlarga qarshi borishga buyruq berdi. Butler o'z rotasini ko'rsatilgan tomonga tez olib ketdi, lekin hali soyga tushib ulgurgani yo'q ediki, orqa tomondan oldinma-ketin ikki bor otilgan to'p ovozi eshitdi. U orqasiga qayrilib qaradi: ikki to'p ustidan ikkita ko'k tutun buluti ko'tarilib, soy bo'ylab cho'zilmoqda edi. Aftidan, artilleriya xayoliga kelmagan to'da orqaga qayrildi. Butlarning rotasi otliqlarning orqasidan ota boshladi va butun dara dori tutuni bilan qoplandi. Faqat soyning tepasida, ularni ta'qib qilib borayotgan kazaklarga qarab o'q uzishib, shoshilinch holda chekinayotgan tog'liklar ko'rinmoqda edi. Otryad tog'liklarning orqasidan nari ketdi, ikkinchi soyning yonbag'rida bir ovul ko'rindi.

Butler o'z rotasi bilan kazaklarning ketidan chopgancha, ovulga kirdi. Ovulda hech kim yo'q edi. Soldatlarga bug'doy, pichan va uylarga o't qo'yish buyurildi. Butun ovulni achchiq tutun qopladi va butun tutun ichida soldatlar topgan narsalarini uylardan tashib chiqib, ayniqsa, tog'liklar olib ketisha olmagan tovuqlarni ushlashib va otishib, sandiroqlab yurishmoqda edilar. Ofitserlar tutundan nariroq o'tirishib, nonushta qilmoqda va ichishmoqda edilar. Fel'dfebel' ularga ancha bol keltirdi. Chechenlardan darak yo'q edi. Bir ozdan so'ng tush paytida qaytishga buyruq berildi. Rota ovulning sirtida kolonna bo'lib safga tizildi, Butlarga askarlarning so'nggi qismida turishga to'g'ri keldi. Ular endigina qo'zg'algan ham edilarki, chechenlar paydo bo'lishib qoldilar va otryadning orqasiga tushib uni otishmalar bilan kuzata bordilar.

Otryad yalanglikka chiqqandan so'nggina tog'liklar qoldilar. Butlarning bitta ham kishisi yaralangani yo'q, shuning uchun ham juda quvnoq, tetik bir ruh bilan qaytardi. Otryad ertalab o'tgan suvdan yana qaytishda kechib o'tib, jo'xoripoyalar va pichanzorlar bo'ylab cho'zilishgach, rota qo'shiqchilari ilgariga chiqib ashulani qo'yib yubordilar. Shamol yo'q edi, havo sof, toza va shu qadar shaffof ediki, yuz chaqirimlab uzoqlikda bo'lgan qorli tog'lar juda yaqin kabi ko'rinar va qo'shiqchilar to'xtaganlarida, xuddi ashulaning boshlanib va tugalishiga asos bo'lgan tovush singari, bir qolipda tushayotgan oyoqlarning ovozlari va to'plarning shaldir-shulduri eshitar edi. Butlarning beshinchi rotasida aytiladigan qo'shiq bir yunker tomonidan polyak sharafiga to'qilgan va "Shumi ish, shumi ish, merganlar, merganlar!" b' b' de'gan naqorat bilan o'yin ohangida aytilar edi.

Butler bir uyda yashaydigan eng yaqin boshlig'i mayor Petrov bilan bir qatorda otda kelmoqda va o'zining gvardiyadan chiqib Kavkazga kelishiga qaror qilgandan sevinchi ichiga sig'mas edi. Uning gvardiyadan bu yoqqa o'tishiga asosiy sabab, Peterburgda karta o'ynab yutqazib qo'yib, bor-yo'g'idan ayrilganligida edi. U gvardiyada tursa, o'yindan o'zini tiya olmasligidan qo'rqr, tikish uchun esa hech vaqosi qolmagan edi. Hozir bularning hammasiga xotima berilgan, boshqacha, yaxshi, mardona bir hayot boshlangan edi. U hozir bor-yo'g'idan ayrilganligini ham, to'lanmagan qarzlarini ham unutgan. Kavkaz, urush, soldatlar, ofitserlar, mast va oqko'ngil botirlar, mayor Petrov - bularning hammasi uning ko'ziga o'tday ko'rinar edi. Shu vajdan ham u goho Peterburgda papiros tutuniga ko'milgan xonalarda o'tirishlarni, bankachidan nafratlanib va miyasida og'riq sezib kartaning burchagini bukib va bankaga pul tikib yurishlarni tashlab, bu yerda, ajoyib o'lkada, azamat kavkazliklar orasida ekanligiga hech ishonmas edi.

Uning qo'shiqchilari: "Shumi ish, shumi ish, merganlar, merganlar!" b' b' de'ya qo'shiq aytmoqda edilar. Uning oti bu kuy maqomiga mos shaxdam yurib boradi. Rotaning paxmoq kulrang iti Trezorka dumini gajak qilib olib, tashvishlanib, boshliq singari Butler rotasining oldida chopib borar edi. Ko'ngli tetik, erkin va quvnoq edi. Uning tasavvurida urush xavfu xatardan, bemahal kelgan o'limdan va shuning natijasida qo'lga kiritilgan mukofotlaru obro'-e'tibordan, rus do'stlarining hurmatlaridan iborat edi. Urushning boshqa tomonlari, qirg'in, soldatlarning, ofitserlarning, tog'liklarning jarohatlanishlari uning xayoliga ham kelmasligi juda qiziq edi. U hatto shuursiz, o'zining urush haqidagi shoirona tasavvurini saqlash uchun o'lganlarga, yarador bo'lganlarga hech qachon boqib qaramasdi. Bugun ham shunday bo'ldi. Biznikilardan uch kishi o'lgan va o'n ikki kishi yarador bo'lgan edi. U, chalqancha yotgan murda yonidan o'tib ketdi va faqat bir ko'zi bilangina, mumga o'xshagan ko'lning allaqanday g'alati vaziyatini va boshidagi to'q qizil dog'ni ko'rdi-yu, lekin sinchiklab qarab o'tirmadi. Uning nazarida tog'liklar faqat otliq yigitlar bo'lib, ulardan saqlanish kerak edi.

- Mana, azizim, gap shunaqa,- dedi mayor, qo'shiq orasida.- Sizning Piteringizdagidek, o'ngga qara, so'lga qara, degan gap yo'q. Mana, picha ishladi - endi uyga. Mashurka endi bizga somsa, nordon karam sho'rva beradi. Ana bu hayot! Shunaqa emasmi?

Qani, "Tong qanday yorishdi"ni olinglar, b' b' u o'zi yaxshi ko'rgan qo'shiqni aytishga komanda berdi.

Mayor avval Masha deb yuritilgan, keyin Mariya Dmitriyevna deb chaqiriladigan bo'lib qolgan fel'dsherning qizi bilan eru xotindek yashardi. Mariya Dmitriyevna chiroyli, kumush sochli, hamma yog'ini sepkil bosib ketgan, o'ttiz yoshlardagi befarzand ayol edi. Uning o'tmishi qanday bo'lmasin, hozir u mayorning vafoli rafiqasi edi. U, mayorni xuddi enagadek kutar, bu esa ko'p vaqt hushini yo'qotguncha ichadigan mayor uchun kerak edi.

Krepostga kelishganlarida hamma narsa mayor oldindan bilganidek bo'lib chiqdi. Mariya Dmitriyevna uni, Butlerni va otryaddan taklif qilingan yana ikkita ofitserni o'zining masallig'i ko'p, mazali ovqati bilan to'yirdi, mayor shu qadar to'yib va qonib ichdi-ki, ortiq gapirolmay qoldi, so'ng uxlash uchun o'z xonasiga ketdi. Charchagan, ammo xursand va chixirdan ortiqcharoq ichgan Butler

ham o'z xonasiga ketdi va arang yechinib jingalak sochli chiroyli boshini kaftiga qo'yib, hech qanday tush ko'rish va uyg'onishni bilmaydigan qattiq uyquga ketdi.

XVII

Hujum bilan vayron qilingan ovul, Hojimurod ruslarga qo'shilish oldidan bir kechani o'tkazgan ovul edi.

Hojimurodning uyiga kelib qo'ngan Sado, ruslar ovulga yaqinlashib kelganlarida oilasi bilan toqqa chiqib ketgandi, Sado ovuliga qaytib kelib, o'z uyini vayron holda ko'rdi: tom o'pirilib tushgan, eshik va ayvonlarning ustunlari yondirilgan va uying ichi bulg'atilgan edi. Uning o'g'li, o'sha shodlik bilan Hojimurodga tikilib o'tirgan chiroyli, yaltiroq ko'zli bola, ustiga chakmon yopilgan otda o'lik holda masjid yoniga keltirildi. Uning yelkasiga nayza tiqilgan edi. Hojimurod kelgan vaqtda unga xizmat qilib turgan kelishgan xotin endi, qari, u burushgan ko'kraklarini ko'rsatib, ko'ylagining yoqasini yirtgani holda, to'zib ketgan sochlari bilan o'g'lining boshida turar, yuzini qora qonga belab tirnar va to'xtamasdan faryod chekar edi. Sado qarindoshlari bilan birga tesha va belkurak olib, o'g'liga go'r qazigani ketdi. Chol bobo vayron etilgan uying devori yonida bir yog'ochni yo'nib, ruhsiz bir nazar bilan qarshisiga tikilib o'tirardi. U o'zining asalari bog'chasidan yangigina kelgan edi. U yerdagi ikki g'aram pichan yondirilgan, chol tomonidan o'tkazilgan, ko'karib chiqqan o'rik va olcha ko'chatlari sindirilgan ham kuydirilgan, hammadan muhimi, arilar bilan birga butun ari inlari yondirilgan edi. Xotinlarning faryodi butun uylardan va yana ikkita o'lik keltirib qo'yilgan maydondan eshitilardi. Yosh bolalar onalari bilan birga baqirib yig'lardilar. Katta bolalar o'ynamas, balki qo'rqqan ko'zlari bilan kattalarga qarab turar edi.

Fontan, jo'rttaga bo'lsa kerak, najaslangan bo'lib, undan suv olish mumkin emas edi. Xuddi, shuningdek, masjid ham bulg'atilgan, domulla shogirdlari bilan uni tozalamoqda edi. Ruslarga bo'lgan nafrat haqida hech kim gapirmasdi. Kichkinasidan tortib kattasiga qadar butun chechenlar tarafidan his etilayotgan tuyg'u nafratdan kuchliroq edi. Bu tuyg'u nafrat tuyg'usi emas, balki, bu, rus itlarini odam deb e'tirof qilmaslik va bu maxluqlarning ahmoqona shafqatsizligi qarshisidagi nafrat, qabohat va hayron qolishlik tuyg'usi ediki, xuddi kalamushlarni, zaharli o'rgimchaklarni, bo'rilarini qirib bitirish istagi singari, ularni qirish istagi ham o'z-o'zini saqlash tuyg'usi kabi tabiiy edi. Aholi oldida tubandagi ikki yo'ldan birini tanlash masalasi turardi: yo shu yerda qolish, shu qadar zo'r mehnat bilan bino etilgan, ham shu qadar tez va vahshiyona vayron qilingan narsalarning hammasini, har bir minutda yana shunday vayron qilishini kutgan holda, ko'p kuch sarf qilib yangidan tiklash yoki shariatga hamda ruslarga nisbatan bo'lgan nafrat va haqir ko'rish tuyg'usiga qarshi ularga bo'ysunish.

Karniyalar ibodat qilishdilar va Shomildan yordam so'rab, uning oldiga vakillar yuborishga bir og'izdan qaror qildilar ham shu zamoniyoq buzilgan uylarni tiklashga kirishib ketdilar.

XVIII

Butler odati bo'yicha Petrov bilan birga ertalabki nonushtadan barvaqtroq toza havoda sayr qilib yurguvchi edi, bosqindan keyin esa uchinchi kun orqa eshikdan kallayi saharlab chiqmadi. Quyosh allaqachon tog' ortidan ko'tarilgan va ko'chaning o'ng tarafida yarqirab yotgan uylar ko'z qamashtirarli darajada bo'lsa-da, uzoq-uzoqlarga qadar yastangan va yuksalgan o'rmonlarga chulg'angan qora tog'lar hamda doimgidek bulutga o'xshab ko'rinadigan daradan tortib qorli tog'largacha cho'zilib ketgan g'ira-shira silsilalarga qarash har galgidek ko'ngilli va taskinvor edi. Butler mana shu tog'larga ko'z tashladi, o'pkasini to'ldirib nafas oldi va mavjudligiga, shuningdek, shu go'zal olamda yashayotganligiga xursand bo'ldi. Yana u shunga xiyla vaqti chog' ediki, kecha vazifa bo'yicha o'zini yaxshi tutganligi hammadan ham, ayniqsa chekinishda ham, ish qistalang bo'lib turganda asqatganligi, kecha safardan qaytishda Petrovning yostiqdoshi Masha yoki Mariya Dmitriyevna hammaga mehmonnavozlik qilgani, chunonchi, unga alohida lutf ko'rsatganday bo'lib tuyulganini eslab quvonar edi. Mariya Dmitriyevna o'zining yo'g'on qilib o'rilgan sochlari keng yelkalari, baland ko'kragi, sepkil bosgan ochiq chehrasining jozibador tabassumi xuddi kuchli bo'ydoq yigitni e'zozlaganday tuyulishi Butlerni o'ziga mahliyo qilgan edi. Lekin u buni oqko'ngil o'rtog'iga nisbatan qilingan nojo'ya munosabat deb hisoblar va Mariya Dmitriyevna bilan samimiy muloqotda, izzat-ikromda bo'lganligi uchun ham o'z-o'zidan mamnun edi. Hozir u yana shu to'g'rida o'y surar edi.

Oldingi tomonda chang yo'ldan kelayotgan bir talay ot tuyoqlarining, xuddi bir qancha otliq chopib kelayotganday, tez-tez eshitilgan tapir-tupurlari uning fikrini bo'ldi. U boshini ko'tardi-da, ko'chaning oxirida sekin kelayotgan bir to'da otliqlarni ko'rdi. Yigirma choqli kazaklarning oldida ikki odam kelardi, biri - ustida oq cherkaska, boshida salla o'ralgan uzun papax, ikkinchisi - qora, qushburun, kiyimi va qurollari kumush bilan bezatilgan, ruslarning xizmatidagi bir ofitser edi. Sallali kishining ostida boshi kichkina, ko'zlari chiroyli, go'zal dumi bilan yoli tanasiga qaraganda oshiqroq bo'lgan saman, ofitserning ostida - novcha o'ynoqi qorabax oti bor edi. Otga ishqiboz bo'lgan Butler shu zamoniyoq birinchi otning tetik kuchiga baho berdi, keyin, bu odamlarning kim ekanligini bilgani to'xtadi. Ofitser Butlarga murojaat qildi.

- Bu harbiy boshliqning uyimi?- so'radi u talaffuzida rus emasligini bildirib. Butler xuddi shu ekanini aytdi.

Butler ofitserga yaqinroq kelib va ko'zi bilan sallali kishini ko'rsatib:

- Bu kim?- dedi.

- Bu - Hojimurod bo'ladi. Shu yerga kelayotibdi, bu yerda harbiy boshliqnikida mehmon bo'ladi,- dedi ofitser.

Butler Hojimurodni va uning ruslarga qo'shilganligini bilar, lekin uni bu yerda, shu kichkina istehkomda ko'raman deb, hech kutmagan edi.

Hojimurod unga do'stona qaradi.

- Salom, xush kelding,- Butler o'rganib olgan tatarcha salomini aytdi.

- Sog' bo'!,- dedi Hojimurod boshini qimirlatib. So'ng Butlerning oldiga kelib, unga ikki barmog'ida qamchining sopi ilinib turgan qo'lini berdi.

- Boshliqmisiz?- dedi u.

Butler ofitserga murojaat qilib, zinapoyaga chiqdi va eshikni itarayotib:

- Yo'q, boshliq bu yerda, chaqirib chiqaman,- dedi.

Lekin Mariya Dmitriyevna ko'cha eshik deb ataydigan eshik berk edi. Butler taqillatdi, lekin javob ololmay, aylanib orqa eshikdan bordi. U o'z denshigini chaqirib, javob olmasdan va ikki denshikning bitasini ham topolmasdan, oshxonaga kirdi. Boshiga ro'molcha bog'lagan Mariya Dmitriyevna qip-qizarib oq semiz bilaklariga yengini shimarib olib, xuddi o'zining qo'llari singari

oppoq xamirni somsa uchun mayda-mayda qilib qirqmoqda edi.

- Denshiklar qay go'rga yo'qoldilar?- dedi Butler.

- Ichgani ketishdi, b'v' dedi Mariya Dmitriyevna,- nimaga kerak edi?

- Eshikni ochish kerak, uyingizning oldida bir gala tog'liklar turibdi. Hojimurod keldi.

- Bundan boshqa narsa o'ylab topmadingizmi?- dedi Mariya Dmitriyevna iljayib.

- Hazili yo'q, rost gap. Zinaning yonida turibdi.

- Hay, rostdanmi? b'v' dedi Mariya Dmitriyevna.

- Nimaga yolg'on so'ylay. Ana, borib qarang, u zinaning yonida turibdi.

- Ana xolos, kutilmagan voqea,- dedi Mariya Dmitriyevna yenglarini tushirib va qo'llari bilan o'zining yo'g'on sochidagi to'g'nag'ichlarni paypaslab tuzatayotib.- Bo'lmasa men borib Ivan Matveevichni uyg'otay,- dedi u.

- Yo'q, men o'zim boraman,- dedi Butler.

- Xo'p, juda yaxshi,- dedi Mariya Dmitriyevna va yana o'z ishiga tushdi.

Hojimurodning Grozniyda ekanligini allaqachon eshitgan Ivan Matveevich uning oldiga Hojimurod kelganini bilib, bunga hech bir ajablanmadi, balki o'rnidan turib papiros chekdi va qattiq yo'taldi ham bu shaytonni uning oldiga yuborganlariga to'ng'illab, kiyina boshladi. U kiyinib bo'lgach, denshikdan dori so'radi. Dori deb aytiladigan narsa aroq ekanini bilgan denshik, unga aroq berdi.

U aroqni ichib va orqasidan qora nonni zakuska qila turib:

- Aralashtirgandan yomoni yo'q,- deb to'ng'illab qo'ydi.- Mana, kecha chixir ichgan edim, hozir boshim og'riyapti. Xo'p, endi tayyor bo'ldim,- u aroqni ichib bo'ldi-da, Butler Hojimurod bilan uni kuzatib kelgan ofitserni olib kirib o'tirgan mehmonxonaga ketdi.

Hojimurodni kuzatib kelgan ofitser, Ivan Matveevichga, so'l qanot boshlig'ining Hojimurodni qabul qilish, harbiy josuslar orqali tog'liklar bilan aloqa qilishiga yo'l qo'yish, lekin kazak askarlarsiz uning bir o'zini qal'adan chiqarmaslik haqidagi buyrug'ini topshirdi.

Ivan Matveevich qog'ozni o'qib bo'lgach, Hojimurod tikilib qaradi, so'ng yana qog'ozga qaradi. U, shu holatda bir necha bor ko'zlarini qog'ozdan Hojimurodga olib, nihoyat Hojimurodning yuziga qarab to'xtadi:

- Yaxshi, bek, yaxshi. Mayli, shu yerda turaversin. Menga uni bu yerdan chiqarmaslik haqida buyruq berilganini ayt. Berilgan buyruq muqaddasdir. Uni qayerga joylashtiramiz - nima deysiz, Butler? Idoraga joylashtiramizmi?

Butler hali javob berib ulgurgani ham yo'q edi, oshxonadan kelib, eshik yonida turgan Mariya Dmitriyevna Ivan Matveevichga murojaat qildi:

- Nega? Shu yerga joylashtirib qo'ya qoling. Mehmonxonani ham omborxonani beramiz. Har holda ko'z oldimizda bo'ladi,- dedi-da, Hojimurodga qaradi va uning ko'ziga to'qnash kelib qolib, shoshilib ko'zini chetga oldi.

- Rost, Mariya Dmitriyevna to'g'ri aytadi,- dedi Butler.

- Qani, qani, jo'na, bu xotinlarning ishi emas,- dedi Ivan Matveevich qovog'ini solib.

Hojimurod butun gap davomida qo'lini xanjarining sopiga qo'ygan holda va bilinar-bilinmas nafratli tabassum bilan o'tirdi. U qayerda tursa ham unga baribir ekanini aytdi. Unga kerak bo'lgan, sardor tarafidan ruxsat etilgan birgina narsa - tog'liklar bilan aloqa qilish kerak edi, shuning uchun ham tog'liklarning o'z yoniga kelishlariga yo'l qo'yishlarini istardi.

Ivan Matveevich bu ishning bajarilishini aytdi va Butlerdan, to taom keltirgunlaricha va uy-puyni to'g'rilagunlaricha, mehmonga qarab turishni so'radi, o'zi esa lozim bo'lgan qog'ozlarni yozish va kerak bo'lgan buyruqlarni berish uchun idorasiga o'tdi.

Hojimurodning yangi tanishlariga bo'lgan munosabati darhol juda ravshan bo'lib qoldi, Hojimurod Ivan Matveevich bilan birinchi tanishishdayoq undan nafratlandi va jirkandi, hamma vaqt u bilan balanddan kelib muomala qiladigan bo'ldi. Unga joy tayyorlab bergan, ovqat keltirgan Mariya Dmitriyevna Hojimurodga juda ham yoqdi. Unga xotinning soddaligi ham, o'ziga begona bo'lgan millat kishisining alohida go'zalligi ham va Hojimurodga nisbatan shuursiz bir holda mayl ko'rsatishi ham yoqdi, Hojimurod unga qaramaslikka, u bilan gaplashmaslikka tirishar, lekin uning ko'zlari beixtiyor xotinga qarar va uning harakatlarini kuzatib turar edi. Butler bilan bo'lsa, birinchi tanishishdayoq o'rtoqlashib ketdi, Butlerdan uning hayotini so'rab ham unga o'z hayoti haqida gapirib berdi va o'z oilasining ahvoli to'grisida xufiya elchilar tarafidan keltirilgan yangiliklarni aytdi, hatto nima qilish kerakligi haqida u bilan maslahatlashdi.

Xufiya elchilar tomonidan unga keltirilgan xabar yaxshi emasdi. U krepostda o'tkazgan to'rt kun mobaynida, uning oldiga xufiya elchilar ikki marta kelishdi va ikki safar ham yomon xabar keltirishdi.

XIX

Hojimurodning oilasi, u ruslarga qo'shilib ketishi bilanoq Venedo ovuliga keltirilgan va u yerda Shomilning hukmini kutib, soqchilarning nazorati ostida yashar edi. Ayollar - kampir Fatimat va Hojimurodning ikki xotini ham ularning beshta yosh bolalari yuzboshi Ibrohim Rashidning uyida soqchilar nazorati ostida yashar, Hojimurodning o'g'li 18 yashar yigitcha Yusuf esa, xuddi o'ziga o'xshab, o'z qismatlarining hal bo'lishini kutayotgan to'rt jinoyatchi bilan birga zindonda yotar edi.

Qaror chiqmadi, chunki Shomil safarda edi. U ruslarga qarshi yurishda edi.

1852 yilning 6 yanvarida ruslar bilan bo'lgan jangdan so'ng Shomil o'z uyiga Vedenoga qaytib kelardi. Ruslarning fikriga qaraganda u tor-mor keltirilgan va Vedenoga qochgan, Shomil va uning barcha muridlarining fikriga qaraganda esa, u g'alaba qozongan va ruslarni haydab yuborgan. Bu urushda juda kam uchraydigan hodisa ro'y berdi. Shomilning o'zi ham miltiqdan o'q otdi va qilichini qo'lga olib, otining boshini to'ppa-to'g'ri ruslarga tomon qo'yib yubormoqchi bo'ldi, lekin yonidagi muridlar uni ushlab qoldilar. Ulardan ikkitasi shu yerda, Shomilning yonidayoq o'ldirildi.

Shomil o'z atrofida ot o'ynatishib, miltiq va to'pponcha otishib ham hech to'xtamasdan "Lo iloho illollo", deb kalima keltirishib kelayotgan muridlar to'dasi bilan qurshalgan holda, o'z maskaniga yetib kelganida kun tush bo'lib qolgan edi.

Kattakon Venedo ovulining xalqi o'z hokimini qarshilab, ko'chada va tomlarda turishar ham bu tantana sharafiga, miltiq va to'pponcha otishar edi. Uyiga yaqinlashgan sari jilovini surib o'ynoqlayotgan oq arab otida Shomil kelardi. Ot oltin va kumush ziynatsiz, juda oddiy jihozlangan edi: nozik ishlangan, o'rtasiga yo'l solingan qizil qayish yugan ma'dandan qilingan uzangi va egarning ostidan ko'rinib turgan qizil chilgir. Imomning ustida yoqasi va yengiga qora mo'yna tutilgan jigarrang movut po'stin bo'lib, uning ustidan xanjar taqilib, qora kamar bog'langan edi. Shomilning boshida qora popukli uzun, tepasi taypoq, pechi orqaga

tashlanib, oq salla o'ralgan papax bor edi. Oyoqlariga ko'k chuvak kiygan, boldirlariga oddiy kanop bilan adiplangan qora nogovitsa o'ragan edi.

Umuman, imomda oltin yoki kumush bezaklar yo'q, kiyimlari va qurollariga oltin-kumush ziynatlar taqib olgan muridlar qurshovida uning kuchi baland, adl qomati avom oldida u istaganidek o'sha ulug'vorlik taassurotini berar edi. Uning qirchib oldirilgan sariq soqoli, doimo suzilib turuvchi kichkina ko'zi, rangsiz yuzi xuddi muzdek qotib turar edi. U ovuldan o'tib borarkan, minglab ko'zlarning unga qarab tikilganini sezar, lekin u hech kimga qaramas edi. Hojimurodning xotinlari ham, bolalari ham uyidagi hamma odamlar bilan birga imomning kelishini ko'rgach, ayvonga chiqdilar. Yolg'iz Hojimurodning onasi kampir Fatimatgina chiqmadi, u oq sochlari parishon, uzun qo'llari bilan oriq tizzalarini quchoqlaganicha o'tirar va qop-qora shahlo ko'zlarini tez-tez ochib-yumib, o'choqdagi yonib bitayotgan shoxchaga qarar edi. Xuddi o'g'li singari u ham Shomilni doimo yomon ko'rar, hozir esa ilgoriga qaraganda yana-da battarroq nafrati oshgan va uni chiqib ko'rishni aslo istamas edi. Shomilning tantanali kelishini Hojimurodning o'g'li ham ko'rmadi, u o'zi yotgan qorong'i, sassiq zindondan o'q va kalima ovozlarinigina eshitar va navqiron, kuch-quvvatga to'la ozodlikdan mahrum etilgan kishilargina chekadigan azobni tortib qiynalardi. U sassiq zindonda o'zi bilan birga yotgan iflos, holdan toygan, badjahl, ko'pchiligi bir-birini yeb qo'ygudek ahvoldagi baxtsiz odamlarni ko'raverib ko'zi pishib ketgan va endi havo bilan yorug'likka to'yib, erkin nafas olgancha og'izlaridan "Lo iloha illollo!"ni tashlamasdan hokimlarining qatorida bedovlarini o'ynatib, miltiq otib yurgan kishilarga ich-ichidan hasad qilardi. Shomil ovuldan o'tib o'z saroyiga tutashadigan katta hovliga kirdi. Ikkita qurollangan lazgin tashqari hovlining ochilgan eshigi yonida Shomilni kutib oldi. Bu hovli xalq bilan liq to'la edi. Bu yerda o'z ishlari bilan uzoq joylardan kelgan kishilar ham, har xil iltimos bilan kelganlar ham, sud ham, hukm qilish uchun Shomilning o'zi talab qilgan odamlar ham bor edi. Shomil kelishi bilan hovlidagilarning hammasi o'rinaridan turdilar va hurmat bilan ta'zim qilib, imomni olqishladilar. Shomil tashqari eshikdan to ichkari eshikka o'tib kelganiga qadar, ba'zi bir odamlar tiz cho'kib turdilar. Garchi Shomil kutib turuvchilar ichida o'ziga yoqmagan ko'p kishilarni va o'zlariga g'amxo'rlik qilinishini talab qiluvchi jonga tekkan talaygina iltimos qiluvchilarni tanisa ham o'sha o'zgaraydigan tosh chehra bilan ular yonidan o'tib ketdi va ichkari hovliga kirib, chap tomondagi o'z uyining ayvoni yonida otidan tushdi. Yurish mashaqqatlaridan so'ng, Shomil jismoiy jihatdan ko'ra ko'proq ruhan ezildi, negaki, u o'z yurishini og'zaki g'alaba deb e'tirof qilganiga qaramay aslida u mag'lubiyatga uchraganini, talay chechen ovullarining yondirilganini va xarob qilinganini ham tuturuqsiz, yengiltak chechen xalqining qat'iyatsizlik va ruslarga yaqin turganlarining ba'zi biri ular tomoniga o'tib ketishga tayyor ekanliklarini bilardi. Bularning hammasi og'ir, bularga qarshi chora ko'rmog'i lozim edi, lekin Shomil shu topda hech narsa haqida o'ylashni istamasdi. U hozir faqat bir narsani: farog'atni, xotinlari ichida eng suyuqlik bo'lgan qora ko'z, 18 yashar kistin' qizi epchil-chaqqon Aminetning erkalashlaridan bahramand bo'lishni istardi.

Biroq hozir shu yerda - ichkarini tashqaridan ajratadigan devorning orqasida bo'lgan Aminetni ko'rish haqida o'ylash behuda edi (Shomil hattoki shu topda, u otidan tushganiga qadar, Aminetning boshqa xotinlar bilan birga devorning yorig'idan mo'ralab turganligiga ishonardi). Hozir uning yoniga borishgina emas, balkin shunday paryostiqa yonboshlab dam olish ham mumkin emasdi. Hammadan burun, hozir uning xohishi bo'lmasa-da, lekin xalqning diniy rahbari bo'lganligi tufayli bajarmasligi mumkin bo'lmagan va uning o'zi uchun ham xuddi har kundagi taom kabi zarur bo'lgan peshin namozini o'qish farz edi. Shuning uchun u tahorat olib, namozni o'qib bo'lgach, kutib turganlarni chaqirdi.

Boshlab uning oldiga qaynatasi ham ustoz, novcha soqoli qorday oppoq, ikki beti qip-qizil nuroniy mo'ysafid Jamoliddin kirdi va fohihadan so'ng, Shomildan harbiy safari haqida so'rab va uning yo'qligida tog'da yuz bergan hodisalar to'g'risida gapirib bera boshladi.

Jamoliddin har xil voqealar - xun olishlar, mol o'g'irlashlar, tariqat buyrug'iga xilof ish qilishlar: tamaki chekishlar, vino ichishlar qatorida Hojimurodning o'z oilasini ruslar tarafiga olib ketish uchun kishilar yuborganligi, lekin buni oshkor bo'lganligi va oila Vedenoga keltirilganligi, imomning qarorini kutib, soqchilar nazorati ostida shu yerda turganligini ham gapirib berdi. Bu ishlarning hammasini muhokama qilish uchun yondagi mehmonxonaga qariyalar to'planishgan edilar. Jamoliddin Shomilga ularni shu bugunoq jo'natib yuborishni maslahat berdi, negaki, qariyalar Shomilni uch kundan beri kutib yotishardi.

Shomil o'z uyida qirra burun, qora, basharasi sovuq va suykimsiz katta xotini Zaydet keltirgan ovqatni yeb bo'lgach, mehmonxonaga ketdi.

Uning maslahat yig'inini tashkil qiladigan olti kishi oq, moshkichiri va sariq soqolli, sallali va sallasiz uzun papax, yangi kamzul va cherkaska kiyib, xanjar taqilgan kamar bog'lab olishgan chollar uni qarshilab o'rinaridan turdilar. Shomil ularning hammasidan daroz edi. Shomilga o'xshab, ularning hammasi ham qo'llarini yuqoriga ko'tardilar, ko'zlarini yumishib, fohiha o'qidilar, fohihadan so'ng hammalari o'rinaridan turdilar. Shomil esa, o'rta, balandroq yostiqa o'tirdi, shunday qilib ular navbatda turgan ishlarni muhokama qilishga kirishdilar.

Jinoyat bilan ayblangan kishilarning ishini shariat ko'rsatishicha, hal qildilar, ikki kishini o'g'irlik qilgani uchun qo'llarini kesib tashlashga, bir kishini odam o'ldirgani uchun boshini kesishga hukm qildilar, uch kishining gunohini kechdilar. Keyin asosiy masalaga: chechenlarning ruslar tomoniga o'tib ketishlariga qarshi chora o'ylab topishga kirishdilar. Qarshi ta'sir qilish uchun Jamoliddin tomonidan tubandagi xitobnoma tuzilgan edi:

"Parvardigori olam sizga insof va tavfiq bersin. Ruslar peshonangizni silab, bo'ysunishga da'vat qilayotganinn eshitayotibman.

Ularga ishonmang va bo'ysunmang, aksincha, sabr qiling. Agar sabr-qanoatingiz uchun bu dunyoda rohat ko'rmasangiz, u dunyoda ko'rasiz. Dushman ilgari ham bir marta qurollaringizni olib qo'rganini eslang-a. Agar o'sha vaqtda, 1840 yilda tangri sizga aql bermasa, siz allaqachon soldat bo'lgan bo'lar edingiz, xotinlaringiz esa chavvorsiz yurgan va haqoratlangan bo'lar edilar.

O'tmishga qarab kelgusi haqida muhokama yuriting. Kofirlar bilan birga yashagandan ko'ra, ruslarga dushman bo'lib o'lmoq afzaldir. Sabr qiling, men Qur'on va qilich bilan yoningizga boraman va sizlarni ruslarga qarshi boshlayman. Hozir esa ruslarga bo'ysunish haqida niyat qilish u yoqda tursin, hatto bu haqda o'ylamaslikni qat'ian buyuraman".

Shomil bu xitobnomani ma'qulladi va qo'l qo'yib bo'lgach, joylarga yuborishga qaror qildi.

So'ng Hojimurodning ishi ham muhokama qilindi. Bu Shomil uchun juda muhim edi. U, garchi buni e'tirof qilishni istamasa-da, lekin chaqqon, dovyurak va botir Hojimurod u bilan birga bo'lganida, hozir Chechenda bunday ahvol yuz bermasligini bilardi. Hojimurod bilan yarashish va uning xizmatidan yana foydalanish yaxshi bo'lar edi; agar buning iloji bo'lmasa ham baribir uning ruslarga yordam berishiga monelik ko'rsatishi lozim. Shuning uchun ham uni bu yerga olib kelish, qatl etish kerak. Bu ishni amalga oshirish uchun yo uni Tiflisda - o'sha yerda o'ldiradigan bir odam yuborish, yoki o'zini bu yerga chaqirib olib, shu yerning o'zidayoq yo'q qilish kerak. Bu yerga keltirish uchun esa birgina chora bor, bu chora uning oilasi va hammadan muhimi, u g'oyat yaxshi ko'rgan - buni Shomil bilardi, - o'g'li edi. Shuning uchun ham oraga o'g'lini qo'yish kerak edi.

Maslahatchilar bu haqda gapirishganda, Shomil ko'zlarini yumib jim bo'ldi.

Maslahatchilar bilar edilarki, uning bu qiyofada turishi, bundan keyin nima qilish kerakligini ko'rsatayotgan payg'ambarning ovozi eshitayotganini anglatardi. Besh minutlik tantanali jim o'tirishdan so'ng, Shomil ko'zlarini ochib va uni yana ko'proq suzib turib:

- Hojimurodning o'g'lini keltiring,- dedi.
- U shu yerda,- dedi Jamoliddin.

Haqiqatan ham Hojimurodning oriq, rangsiz o'g'li, kiyimlari yirtilgan, ivirsib ketgan, lekin o'zining badani, yuzi va buvisi Fatimatniki singari shahlo ko'zlari ila hamon chiroyli bo'lgan Yusuf, chaqirishlarini kutib, tashqarn hovlining eshigi yonida turardi. Yusuf otasining Shomil haqidagi fikriga qo'shilmas edi. U bo'lib o'tgan ishlarni yaxshi bilmas, bilsa ham bu ishlarni boshidan kechirmagani uchun otasining nima sababdan shu qadar o'jarlik bilan Shomilga dushmanlik qilishini anglamas edi. Yusuf faqat bir narsani: noibning o'g'li sifatida Xunzaxdagi orombaxsh, serishrat hayotni davom ettirishni istar, unga Shomil bilan dushmanlik qilish tamoman keraksiz narsa bo'lib tuyulardi. U otasining aksi o'laroq, Shomil bilan g'oyatda faxrlanar va unga tog'liklar orasida keng tarqalgan tantanali bir hurmat bilan qarar edi. Mana, hozir alohida ehtirom bilan mehmonxonaga, imom yoniga kirdi va Shomilning o'tkir nigohiga to'qnash kelib, eshik oldida bir qancha vaqt turib qoldi, so'ng Shomilga yaqinlashib kelib, uning uzun barmoqli oppoq qo'lini o'pdi.

- Sen Hojimurodning o'g'limisan?
- Ha, imom.
- Uning nima qilganini bilasanmi?
- Bilaman, imom, buning uchun afsus qilaman ham.
- Yozishni bilasanmi?
- Mulla bo'lmoqchi edim.

- Bo'lmasa otangga xat yoz, agar u hayitgacha mening yonimga qaytib kelsa, uni kechiraman va hamma ish eskicha bo'lib ketaveradi. Agar unamasa va ruslar tarafida qolaversa, u holda,- Shomil g'azab bilan qovog'ini soldi,- men sening buvingni va onangni ovulma-ovul olib yurib, rasvosini chiqartiraman, sening esa boshingni kesaman.

Yusufning yuziga hech qanday ifoda qalqib chiqmadi, u so'zlarinigizni angladim, deganday boshini egdi.

- Shunday deb yoz-da, elchimga ber. Shomil jim qolib, Yusufga uzoq tikildi.

- Yozgin, men senga rahm qilib o'ldirmaganimni, faqat barcha xoinlarniki singari ko'zlaringni o'yib olmoqchi ekanligimni ham yoz.

Yusuf Shomilning huzurida tinchday bo'lib ko'ringan edi, lekin mehmonxonadan olib chiqqanlarida, olib chiqayotgan kishiga tashlandi va uning xanjarini olib, o'zini so'ymoqchi bo'ldi, qo'llarini ushlab qoldilar va bog'ladilar, so'ng yana zindonga olib borib tashladilar.

Shu oqshom, namoz tugab, kun qorong'ilasha boshlag'anda, Shomil oq po'stinini kiyib, xotinlar joylashgan ichkari hovliga chiqqida, Aminetning uyiga qarab yo'l oldi. Ammo Aminet u yerda yo'q edi. U katta xotinlarning uyida edi. Shundan so'ng Shomil, o'zini sezdirmaslikka tirishib, xotinini kutib, uy eshigining orqasida turdi. Aminet, shohini unga hadya qilmay, Zaydetga bergani uchun Shomildan xafa edi. U Shomilning chiqqanini va uni axtarib uyiga kirganini ko'rди, lekin atayin uyiga bormadi. U kulib, uning uyiga goh kirib, goh chiqib turgan oq kiyimli Shomilga qarab, Zaydet uyining eshigi oldida uzoq turdi. Shomil Aminetni toza kutgach, xuftonga yaqin o'z uyiga qaytib keldi.

XX

Hojimurod istehkomda, Ivan Matveevichning uyida bir hafta yashadi. Mariya Dmitrnevna soch-soqoli o'sib ketgan Hanafiy bilan (Hojimurod o'zi bilan birga faqat ikki kishisini - Hanafiy va Eldorni ola kelgan edi) janjallashib qolganiga va uni bir safar oshxonadan itarib chiqarib yuborganiga (o'shanda Hanafiy uni so'yib qo'yayozgan edi) qaramasdan, o'zida Hojimurodga nisbatan alohida hurmat va muhabbat his etardi. U hozir, Hojimurodga ovqat keltirib bermas, bu vazifani Eldorga topshirgan edi, lekin Hojimurodni ko'rish va unga yoqish uchun har bir fursatdan foydalanar edi. U Hojimurodning oilasi haqidagi muzokaralarda ham jiddiy ishtirok qilar, uning qancha xotini, qancha bolasi bor, yoshlari nechada, hammasini bilar va har gal xufiya elchilar kelib ketishgach, undan muzokaraning natijasi nima bo'lganini so'rar edi.

Butler esa shu haftaning ichidayoq Hojimurod bilan juda do'stlashib ketdi. Ba'zan Butler turgan xonaga borar, Butler ham Hojimurod turgan xonaga kelar edi. Ba'zan ular tarjimon orqali, ba'zan esa o'z vositalari - imo-ishoralar va hammadan asosiysi, tabassumlar orqali suhbatlashlar edilar. Hojimurod, aftidan, Butlerni yaxshi ko'rib qolgan edi. Bu Eldorning Butlarga bo'lgan munosabatidan ma'lum edi. Butler Hojimurodning xonasiga kirgan vaqtida Eldor shodlik bilan ok, yaltiroq tishlarini ko'rsatib, kutib olar va tezlik bilan uning yoniga yostiq to'shar, agar qilichi bo'lsa uni darrov yechib olib qo'yar edi.

Butler xuddi, shuningdek, Hojimurodning ukasi deb atalgan majnunsifat Hanafiy bilan ham tanishib va inoqlashib ketdi. Hanafiy juda ko'p tog' qo'shiqlarini bilar va yaxshi ashula qilar edi. Hojimurod Butlarga yoqish uchun Hanafiyni chaqirar va o'zi yaxshi deb bilgan qo'shiqlarning nomini atab, unga ayt, deb buyurar edi. Hanafiyning ovozi baland, ingichka edi va u favqulodda tiniq va ifodali qilib aytar edi. Qo'shiqlardan biri Hojimurodga juda ham yoqar va o'zining tantanali, mungli ohangi bilan Butlerni ham hayron qoldirgan edi. Butler tarjimondan qo'shiqning mazmunini aytib berishlikni so'radi.

Qo'shiq xun olishga - o'sha Hanafiy bilan Hojimurod o'rtasida bo'lib o'tgan hodisaga o'xshash hodisaga taalluqli edi.

Qo'shiqning mazmuni mana bunday edi: "Qabrimning tuproqlari quriydi va sen, mushtipar onam, meni unutarsan. Qabrimning ustida maysalar unadi, mening padari buzrukvorim, bu maysalar sening qayg'ungni ko'mib tashlaydilar. Singlimning ko'z yoshlari quriydi, shunda uning qalbidan hasrat ham o'chadi.

Lekin sen, akam, xunim uchun o'ch olmaguningcha meni unutmassan. Sen, ikkinchi akam ham, men bilan birga yer tishlamaguningcha meni unutmassan.

O'q, sen qaynoqsan, sen o'lim olib kelasan, lekin mening sodiq qulim sen emasmiding? Qora yer, sen meni bag'ringga olasan, lekin seni ot bilan toptagan men emasmidim? O'lim, sovuqsan, ammo men sening xo'jang edim. Jasadimni tuproq oladi, jonimni esa osmon qabul qiladi".

Hojimurod bu qo'shiqni hamma vaqt ko'zini yumib o'tirib tinglar va qo'shiq so'nib borguncha bir ohang bilan cho'zilib, to'xtaganda, doimo ruschalab:

- Yaxshi qo'shiq, bama'ni qo'shiq,- deb qo'yar edi.

Shijoatli tog' hayotining o'ziga xos she'riyati Hojimurod kelganidan keyin u bilan hamda uning muridlari bilan yaqinlashgandan so'ng, Butlerni yana ham ko'proq jalb etdi. U o'ziga kavkazcha kamzul, cherkaska, nogovitsa qilib oldi. Go'yo u tog'ligu shu tog'lik kishilar singari yashayotganday edi.

Hojimurod ketadigan kuni uni kuzatish uchun Ivan Matveevich bir qancha ofitserlarni yig'di. Hojimurod qurollangan, safar kiyimida shaxdam qadamlar bilan oqsoqlanib uyga kirdi, bu choq ofitserlar, ba'zi birlari Mariya Dmitriyevna choy quyib o'tirgan stol yonida, ba'zilari aroq, chixir va zakuskalar turgan stol yonida o'tirar edilar.

Hammalari o'rinlaridan turdilar va navbat bilan qo'l berib ko'rishdilar. Ivan Matveevich uni katga taklif qildi, lekin u tashakkur aytib, deraza yonidagi stulga o'tirdi. U kirgan vaqtda hukm surgan jimlik, aftidan, uni sira xijolat qilmadi. U hammaning yuziga diqqat bilan qarab chiqdi, so'ng beparvolik bilan samovar va zakuska turgan stolga tikilib qoldi. Hojimurodni birinchi marta ko'rgan sho'x ofitser Petrokovskiy, tarjimon orqali undan Tiflis yoqdimi, deb so'radi.

- Ayya,- dedi u.

- Ha, deyapti,- dedi tarjimon.

- Qo'proq nima yoqibdi?

Hojimurod bir narsa dedi.

- Hammadan ko'proq unga teatr yoqibdi.

- Xo'sh, bosh qo'mondonnikida bo'lgan bazmchi?

Hojimurod qovog'ini soldi.

- Har bir xalqning o'z odati bor. Bizda xotinlar unaqa kiyinmaydilar, b'v'v' dedi u Mariya Dmitriyevnaga qarab.

- Ha, unga nimasi yoqmabdi axir?

- Bizda bir gap bor,- dedi u tarjimonga,- it eshakka go'sht beribdi, eshak esa itga xashak beribdi,- natijada har ikkalasi ham och qolibdi.- U sal iljaydi.- Har bir xalq uchun o'z odati yaxshi.

So'z bundan nariga o'tmadi. Ofitserlarning ba'zilari choy icha boshladi, ba'zi birlari ovqat yeya boshladi. Hojimurod uzatilgan bir stakan choyni olib oldiga qo'ydi.

- Qani, qaymoqdan, bulkadan oling, b'v'v' dedi Mariya Dmitriyevna unga qarab.

Hojimurod bosh egdi.

- Xo'p, bo'lmasa, xayr! b'v'v' dedi Butler, uning tizzasiga turtib.- Qachon ko'rishamiz?

- Xayr, xayr,- dedi Hojimurod kulib turib ruschalab.- Mehmondorchilik yetar endi. Juda ko'p mehmon bo'ldik. Vaqt bo'ldi, ketish kerak, b'v'v' dedi u, go'yo ketishi kerak bo'lgan tarafga qarab boshini qimirlatgai bo'lib.

Xonaning eshigi oldida, yelkasiga qandaydir oq bir narsa tashlab olgan va qo'lida kalit, Eldor ko'rindi. Hojimurod uni angladi, Eldor o'zining katta qadamlari bilan Hojimurodning oldiga kslib, unga oq chakmon va qilichni berdi. Hojimurod o'rnidan turdi, chakmonni oldi va tarjimonga nimanidir so'zlab, chakmonni Mariya Dmitriyevnaga berdi.

Tarjimon:

- U, sen chakmonni maqtagan eding, olgin, deyapti,- dedi.

- Nega? b'v'v' dedi qizarib Mariya Dmitriyevna.

- Shunday bo'lishi kerak, odat shunaqa,- dedp Hojimurod.

- Xo'p, rahmat,- dedi Mariya Dmitriyevna chakmonni olib.- Ilohim o'g'lingizni qutqazib oling,- u qo'shib qo'ydi.- Yaxshi, o'g'lon.

Unga ayting, oilasini qutqazib olishini istayman,- dedi.

Hojimurod Mariya Dmitriyevnaga qaradida, uning so'zlarini ma'qullab bosh irg'adi. Keyin u Eldorning qo'lidan qilichini olib Ivan Matveevichga berdi. Ivan Matveevich qilichni olgach, tarjimonga qarab dedi:

- Unga ayt, mening targ'il axtamni olsin, sovg'asi evaziga taqdim qiladigan boshqa hech narsa yo'q.

Hojimurod hech narsa kerak emasligini va olmasligini bildirib qo'lini siltadi, so'ng tog'ni va yuragini ko'rsatib eshikka qarab yo'l oldi. Hamma uning orqasidan chiqdi. Uyda qolgan ofitserlar, qilichni g'ilofidan sug'urib tig'ini ko'rishdilar va qilichni gurma degan fikrga kelishdilar.

Butler Hojimurod bilan birga zinaga chiqdi. Lekin bu yerda kutilmagan voqea yuz berdi: Agar Hojimurod chaqqonlik qilmaganda uning halok bo'lishi muqarrar edi.

Tosh-Kechuk ovulida yashayotgan qo'shinlar Hojimurodni qattiq hurmat qilishar, nomi mashhur bo'lib ketgan bu noibni bir ko'rish uchun tez-tez istehkomga kelib turishar edi. Ular Hojimurod ketishidan uch kun oldin chopar yuborib, uni juma kuni machitga kelishga taklif qilgan edilar. Lekin Hojimurodni yomon ko'rgan, u bilan qonli adovatda bo'lgan tosh-kechuklik knyazlar aholining bu ishidan xabar topib, Hojimurodni machitga kirgizmaymiz, deyishdi. Ularning bu gapidan xalq g'alayonga keldi va ikki o'rtada mushtlashish bo'lib o'tdi. Rus boshliqlari tog'liklarni hovuridan tushirib qo'yib, machitga bormasin, deb chopar yuborishdi.

Hojimurod machitga bormadi. Hamma bu ish shu bilan barham topdi, deb o'yladi.

Lekin xuddi Hojimurod ketar payt - u zinaga chiqqan va otlar eshik oldidaligida, Ivan Matveevichga va Butlerga tanish bo'lgan qo'miq knyazi Arslonxon yaqinlab ketdi.

U Hojimurodni ko'rishi bilan belidan to'pponchasini olib, Hojimurodga o'qtaldi. Biroq Arslonxon otib ulgurguncha yo'q edi, Hojimurod cho'loqligiga qaramay, xuddi mushuk singari chaqqonlkk bilan zinadan Arslonxonga tashlandi. Arslonxon otdi - tegmadi. Hojimurod esa uning oldiga chopib borib, bir qo'li bilan otning jilovini, bir qo'li bilan xanjarini ushladi va unga tatarchalab bir nima deb baqirdi.

Butler bilan Eldor xuddi shu vaqtning o'zida dushmanning yoniga chopib borib, uning qo'llarini ushladilar. O'q ovozigga Ivan Matveevich ham chiqdi.

- Senga nima bo'ldi. Arslon, mening uyimda bunday bemazagarchilik qilganing nimasi?- dedi u, gap nimadaligini bilib,- bu ishing yaxshi emas, birodar. Dalada ixtiyorlaring, mening uyimda bo'g'izlashish nimasi?

Qora mo'ylovli kichkina Arslonxon rangi o'chgan va qaltiragan holda otdan tushdi, g'azab bilan Hojimurodga tikildi, so'ng Ivan Matveevich bilan mehmonxonaga kirib ketdi. Hojimurod esa hansiraganicha iljayib otining yoniga qaytdi.

- Nima uchun uni o'ldirmoqchi bo'ldi?- Butler tarjimon orqali so'radi.

- U odatimiz shunaqa. Arslonxon qon uchun mendan xun olishi kerak, mana hozir u meni o'ldirmoqchi edi, deyapti,- tarjimon Hojimurodning so'zini tarjima qilib berdi.

- Xo'sh, agar u yo'lda quvib yetsachi?- so'radi Butler.

Hojimurod iljaydi.

- Nima bo'lar edi, o'ldiradi, demak, Olloning xohishi shu. Xo'p, xayr,- dedi u yana ruschalab va otining yolini ushlab turib kuzatuvchilarning hammasiga nigoh tashlab chiqdi-da, Mariya Dmitriyevnaning ko'zlariga muloyim tikildi.

- Xayr, mama,- dedi u Mariya Dmitriyevnaga murojaat qilib,- rahmat.

- Iloyim bola-chaqangni qutqarib ol,- takrorladi Mariya Dmitriyevna.

Hojimurod uning so'zlarini anglamadi, lekin mehribonchiligini anglab bosh qimirlatib qo'ydi.

- Menga qara, do'stingni unutma,- dedi Butler.

- Ayt, men uning chin do'stiman. Hech qachon unutmayman,- u tarjimop orqali javob berdi, so'ng oyog'ining qiyshiqligiga qaramay, uni uzangiga qo'yishi bilan ildamlilik bilan baland egarga o'tirdi va eski odaticha to'pponchasini paypaslab ko'rib, qilichini tuzatdi, so'ng otda o'tirgan tog'liklarday alohida, mag'rur qiyofa olib Ivan Matveevichning uyidan uzoqlashdi. Hanafiy va Eldor ham shunday qilib otga mindilar va xo'jayinlar ham ofitserlar bilan do'stona xayrlashib, otlarini yeldirgan holda muridlarning orqasidan ketdilar.

Hamma vaqtdagiday, ketganlarning ketidan so'zlanishdi.

- Azamat! Qara, Arslonxonga xuddi bo'ridek tashlandi, turqi tamom o'zgarib kstdi.

- Aldab ketmasa edi, usta, juda makkorga o'xshaydi,- dedi Pstrakovskiy.

- Ilohim, ruslarda ham shunday makkorlar ko'p bo'lsin,- Mariya Dmitriyevna o'kinch bilan birdan so'zga aralashdi.- Biznikida bir hafta turdi, yaxshilikdan bo'lak hech narsa ko'rmadim.- Biram odobli, aqlli, odil-ta'b odam edi,- dedi u.

- Siz bularning hammasini qayoqdan bildingiz?

- Bildim-da.

- Jigardan uribdi-da, a?,- dedi ichkaridan chiqqan Ivan Matveevich,- shunaqa ko'rinadi.

- Ha, jigarimdan urdi. Sizga nima? Axir yaxshi odamni nimaga yomonlash kerak. U tatar bo'lsa ham yaxshi.

- Rost, Mariya Dmitriyevna,- dedi Butler.- Barakalla, uning yonini oldingiz.

XXI

Chechen yo'lidagi old krepostlarda yashovchilarning hayot tarzi hamon eskicha o'tardi. O'shandan beri ikki bor trevoga bo'ldi, har ikki trevogada ham rotalar zir yugurdi, kazaklar va militsionerlar ot choptirib chiqdilar, lekin har ikki safar ham tog'liklarni to'xtatib qololmadilar: ular ketib qoldilar, bu gal ular Vozdvijenskiyga bosqin qilib kazaklarning suvlog'idan sakkizta otni haydab va bir kazakni o'ldirib ketdilar. Ovul tit-pit qilingan so'nggi hujumdan beri boshqa hujum bo'lgani yo'q. Faqat so'l qanotga yangi boshliq knyaz' Baryatinskiy tayinlanishi munosabati bilan ulkan Chechenga katta ekspeditsiya kelishi kutilmoqda edi.

Merosxo'rning do'sti, Kabardin polkining sobiq komandiri knyaz' Baryatinskiy, hozir butun so'l qanotning boshlig'i bo'lganligidan Grozniyga kelishi bilanoq, podshohning Cherpishev Voronsovga yozgan rejalarini bajarishni davom ettirish uchun otryad to'pladi. Vozdvijenskiyda to'plangan otryad Kurinskiy tomonga boradigan pozitsiyaga chiqdi. Qo'shin o'sha yerda turib, daraxt kesish bilan mashg'ul edi.

Yosh Voronsov ajoyib movut chodirda yashar, uning xotini Mariya Vasil'evna lagerga kelib turar va ko'pincha yotib qolar edi.

Baryatinskiyning Mariya Vasil'evna bilan bo'lgan munosabati hech kimdan yashirin emasdi, shuning uchun ham saroyga nomahram bo'lgan ofitser va soldatlar, uning lagerga tashrif buyurishi evaziga tungi maxfiy qorovullikka yuborilganlari uchun Mariya Vasil'evnani boloxonador qilib so'kar edilar. Odatda tog'liklar to'p keltirishib lagerga qarab otar edilar. Bu o'qlar ko'p vaqt mo'ljalga kelib tegmas, shuning uchun ham bu otishmalarga qarshi hech qanday chora ko'rilmay edi; lekin tog'liklar to'plarni yaqin keltirib, Mariya Vasil'evnani qo'rqitmasin uchun maxfiy qorovullar yuborilardi. Boyvuchchani qo'rqitmaslik uchun har kun kechasi maxfiy qorovullikka borib yurish esa tahqiromuz jirkanch edi, soldatlar va kiborlar olamiga qabul qilinmagan ofitserlar yomon so'zlar aytib Mariya Vasil'evnani obro'sizlantirar edilar.

U yerda to'planishgan - Pajeskiy korpusi bo'yicha birga o'qishgan saboqdoshlari, Kurinskiy polkida birga ishlagan hampolklari, boshliq huzuridagi ad'yutantlar va ordinareslar bilan ko'rishish uchun Butler ham o'z istehkomidan bu otryadga otpuskaga keldi. Kelgan kundan boshlaboq xushchaqchaq turmush kechira boshladi. U Poltoratskiyning chodiriga tushdi va bunda uni ochiq chehra bilan qarshilagan ko'pgina oshnalarini uchratdi. U Voronsovnika ham bordi, negaki bir vaqtlar bir polkda xizmat qilgani uchun uni bir oz bilardi. Voronsov uni juda yaxshi qabul qildi va knyaz' Baryatinskiy bilan tanishtirdi, Baryatinskiyga qadar so'l qanotning boshlig'i bo'lib turgan general Kozlovskiyning jo'nashi sharafiga qilayotgan xayrlashuv ziyofatiga ham taklif qildi. Ziyofat qoyilmaqom o'tdi. Olti chodir keltirilib yonma-yon qator tikilgan edi. Chodir bo'ylab uzundan-uzoq stol-stullar qo'yilgan, ustlarida rang-barang idish-tovoq va butilkalar tizilib turardi. Hamma narsa Peterburgdagi gvardiya hayotini esga tushirar edi. Soat ikkilarda stol atrofiga o'tirdilar. Stolning o'rtasida: bir tarafda - Kozlovskiy, ikkinchi tarafda - Baryatinskiy o'tirar edi.

Kozlovskiyning o'ng tomonida Voronsov, chap tomonida Mariya Vasil'evna o'tirardi. Stolning har ikki tarafida Kabardin va Kurinskiy polklarining ofitserlari o'tirishar edilar. Butler Poltoratskiy bilan yonma-yon o'tirar, har ikkalasi ham xursand holda so'zlashar va yon-verisidagi ofitserlar bilan ichishardi. Ish qovurmaga yetganda denshiklar qadahlarga shampanskiy quya boshladilar. Poltoratskiy Butlerga, astoydil o'kinib va achinib:

- Bizning "masalan"imizni rasvo qilmasa edi,- dedi.

- Nega?

- Axir u nutq so'zlamog'i lozim. Uning qo'lidan nima keladi?

- Ha, og'ayni, nutq so'zlash, o'q otish emas. Yana yonida xonim, undan keyin mana bu saroy afandilari o'tiribdilar. Uning holiga achinasan kishi,- deb ofitserlar o'zaro gaplashdilar.

Tantanali minutlar kelib yetdi. Baryatinskiy o'rnidan turdi va qadahni ko'tarib, qisqacha nutq bilan Kozlovskiyga murojaat qildi. Baryatinskiy so'zini tamom qilgach, Kozlovskiy o'rnidan turdi va anchagina qattiq ovoz bilan gap boshladi:

- Janobi oliyning eng yuksak xohishlari bilan, masalan, ofitser afandilar, orangizdan ketaman, sizlar bilan ajralishaman,- dedi u.- Lekin meni hamma vaqt o'zlaringiz bilan, masalan, birga hisob qilinglar... Afandilar, sizga ma'lumki, masalan, bitta kishi hech narsa qila olmaydi. Shuning uchun ham men o'z xizmatimda, masalan, qancha mukofotlangan bo'lsam, imperator janoblarining saxovatlariga, masalan, qanchalik sazovor bo'lgan bo'lsam, qanchalik, masalan...- shu yerga kelganda uning ovozi qaltirab ketdi,- bularga yolg'iz sizlarning soyangizda erishdim. Shularning hammasi uchun ham, masalan, men sizlardan qarzman, do'stlarim!-

Uning ajin bosgan yuzlari yana ko'proq burishib ketdi. U ho'ngrab yubordi, ko'zlariga yosh keldi.- Butun dilimdan, chin qalbidan

sizlarga, masalan, minnatdorligimni bildiraman.

Kozlovskiy ortiq so'zlay olmadi va o'rnidan turib, yoniga kelishayotgan ofitserlarni qucha boshladi. Knyagina ro'molcha bilan yuzini bekitdi. Knyaz' Semyon Mixaylovich labini qiyshaytirib, ko'zlarini pirillatdi. Ofitserlardan juda ko'pi ko'ziga yosh oldi. Kozlovskiy juda oz biladigan Butler ham yoshini tiyolmadi. Bularning hammasi unga juda yoqdn. Keyin hammalari, Baryatinskiy, Voronsov, ofitserlar, soldatlar sharafiga qadah ko'tara boshladilar, mehmonlar aytilgan maqtovlardan, ichilgan vinolardan mast bo'lishib ziyofatdan chiqdilar.

Ajoyib, quyosh charaqlab chiqqan, muloyim bir kun edi. Har tarafdin gulxanlarning shitirlab yonishi va qo'shiq ovozlari eshitilardi. Hamma bayram qilayotgandek tuyulardi. Butler g'oyat baxtiyor va shod bir ruhiy holatda Poltoratskiynikiga ketdi. Poltoratskiynikiga ofitserlar yig'ildilar, karta stolini yozdilar, so'ng ad'yutant bongga yuz so'm qo'ydi. Butler shimining cho'ntagiga qo'l solib, hamyonini ushlab chodirdan ikki marta tashqariga chiqdi, lekin oxiri chiday olmadi, shundan so'ng o'ziga ham og'aynilariga karta o'ynamayman, deb bergan va'dasiga qaramay, o'yinga kirishib ketdi.

Bir soat ham o'tmasdan Butler, qip-qizarib terlab, hamma yog'i bo'r, ikki qo'lini stolga tirab o'tirar va burchaklari buklangan kartalar ostiga tikkan pullarining raqamlarini yozar edi. U shu qadar ko'p yutqizib qo'ydi, o'z taniga yozilgan pullarni hisoblashga qo'rdi. U, hisoblamasdan oq, olishi mumkin bo'lgan moyanasining hammasini va otni sotib berganda ham baribir begona ad'yutant tarafidan o'z hisobiga yozilgan qarzlarni to'lay olmasligini bilardi. U yana o'ynamoqchi edi, lekin ad'yutant jiddiy qiyofada o'zining oq, toza qo'llari bilan kartani yerga qo'ydi. Butlerning bo'r bilan yozgan raqamlarini hisoblay boshladi. Butler qizarib-bo'zarib yutqizgan pullarining hammasini hozir to'lay olmasligi uchun kechirim so'radi, yutqizgap pullarini uyidan yuborishini aytdi, Butler bu so'zni aytgan vaqtda hamma unga achinganini va shu on hamma, hatto Poltoratskiy ham undan ko'zini olib qochganini sezdi. Bu uning so'nggi kechasi edi. U, karta o'ynamay, meni taklif qilgan Voronsovnikiga borgan bo'lsam, hamma ish joyida bo'lgan bo'lardi, deb o'yladi. Hozir esa ish yomongina emas, balki juda chatoq edi.

U o'rtoqlari, tanish-bilishlari bilan xayrlashib uyiga ketdi, uyiga kelib o'sha zamoniyoq uxlagani yotdi, shu yotgancha o'likday o'n sakkiz soat uxladi. Mariya Dmitriyevna Butlerning shahdi pastligini kuzatib qo'ygan kazakka berishi uchun yarim so'm choy pulini undan so'raganidan, bundan tashqari kalta javoblaridan yutqizib qo'rganini angladi va uni o'sha yoqqa yuborganligi uchun Ivan Matveevichga yopishdi.

Ertasiga Butler soat o'n ikkida uyqudan turdi va o'z vaziyatini esiga tushirib, yana o'likday uyquga ketishni istadi, ammo mumkin bo'lmadi. Begona odamdan qarz bo'lgan 470 so'mni to'lash chorasini ko'rishi kerak edi. Bu choralardan biri shu bo'ldiki, u gunohlariga tavba qilib va yalinib-yolvorib hali o'rtalarida bo'lgan tegirmon hisobidan so'nggi marta 500 so'm pul yuborishini so'rab, akasiga xat yozdi. Keyin, u qanday protsentga bo'lsa mayli, yana 500 so'm qarz so'rab, o'zining xasis bir xotin qarindoshiga xat yubordi. Undan keyin, Ivan Matveevichda yoki to'g'rirog'i, Mariya Dmitriyevnada pul borligini bilib, qarzga 500 so'm berib turishlarini so'rab, Ivan Matveevichning oldiga bordi.

- Men berar edim,- dedi Ivan Matveevich,- hozir berar edim-ku, lekin Mashka bermaydi. Nachora, xotinlar juda pishiq bo'ladilar. Lekin padariga qusur, ishqilib qutulish kerak, qutulish kerak. Padariga qusur, markitantda yo'qmikan?

Lekin markitantdan qarz olish uchun urinib o'tirishiing hojati yo'q edi. Shunday qilib Butler uchun faqat akasidan yoki xasis qarindoshinikidagina "yorug'lik" chiqishi mumkin edi.

XXII

Hojimurod Chechenda o'z maqsadiga erisha olmagach, Tiflisga qaytib keldi, shundan beri har kun Voronsovning oldiga borar va qabulida undan, tog'liklardan asir tushganlarni to'plab, uning oilasiga almashtirishni yalinib so'rar, busiz qo'l-oyog'i bog'liq ekanini va ruslarga xizmat qila olmasligini ham Shomilni yo'qota olmasligini aytar edi. Voronsov qo'lidan kelgancha yordam berishini ta'kidlasa-da, biroq general Argutinskiy Tiflisga kelganidan so'ng u bilan so'zlashib, masalani hal qilishini aytib, ishni hadeb orqaga siltar edi. Shundan so'ng Hojimurod Voronsovdan vaqtincha Zakavkaz'ening kichkina shahri bo'lgan Nuxaga borib turish uchun ruxsat so'ray boshladi. U Nuxada o'ziga sodiq kishilar bor, deb va Shomil bilan o'z oilasi to'g'risida muzokara olib borish ma'qul, deb taxmin qilardi. Bundan tashqari, musulmonlar shahri bo'lgai Nuxada Hojimurodga musulmonlar odatiga muvofiq namoz o'qish uchun machit bor edi. Voronsov bu haqda Peterburgga xat yozdi va shu orada Hojimurodga Nuxaga borib turishga ruxsat berildi.

Bu voqea Voronsov uchun, Peterburg hukumati uchun, shuningdek, Hojimurodning tarixini bilgan ko'pchilik ruslar uchun Kavkaz urushidagi baxtli bir burilish yoki shundaygina qiziq bir tasodif edi. Hojimurod uchun esa bu voqea ayniqsa so'nggi vaqtlarda, uning hayotidagi qo'rqinchli bir burilish bo'lib ko'rinardi. U tog'dan qisman o'zini qutqarib, qisman Shomilga dushman bo'lgani tufayli qochdi va bu qochish qanchalik qiyin bo'lmasin, u o'z maqsadiga erishdi, dastlabki vaqtlardagi muvaffaqiyat uni sevintirdi, haqiqatan ham Shomilga hujum qilish planini atroflicha o'yladi. Lekin oilasini bu yoqqa olib kelish u o'ylaganga qaraganda ancha qiyin bo'lib chiqdi. Shomil uning oilasini olib ketib, asirlikda saqlar va xotinlarini ovulma-ovul yurgizib sharmanda qilaman, o'g'lini ko'r qilaman yo o'ldiraman, der edi. Endi Hojimurod Dog'istondagi o'z tarafdorlari orqali, hiyla yoki kuch bilan oilasini Shomildan ajratib olish niyatida Nuxaga keldi. Nuxadan uning oldiga kelgan so'nggi maxfiy elchi Hojimurodga sodiq bo'lgan avariyaiklar uning oilasini o'g'irlab, ruslar tarafiga o'tishga harakat qilayotganlarini, ammo bu ishga yordam beruvchi kishilar juda oz ekanini, shuning uchun ham ular bu ishni - Vedenodan qilishga jur'at eta olmasliklarini, mabodo oilani Vedenodan boshqa yerga ko'chirgan taqdirdagina bu ishni yo'lda bajarishga va'da berganliklarini aytdi. Hojimurod o'z do'stlariga oilasining qutqarilishi uchun uch ming so'm pul va'da qilganini aytib qo'nishni buyurdi.

Nuxada Hojimurodga machitdan va xon saroyidan uncha uzoq bo'lmagan yerdan besh xonalik uy berilgan edi. Unga qo'shib qo'yilgan ofitserlar, tarjimon va uning navkarlari ham shu uyda yashar edilar. Hojimurodning hayoti tog'da maxfiy elchilarni kutish va ularni qabul qilish ham unga ruxsat etilgan ot bilan shahar atrofida sayr qilib yurish bilan o'tardi.

Hojimurod 8 aprelda ko'cha sayridan qaytib kelib, uni yo'q vaqtida Tiflisdan, Voronsov oldidan bir amaldor kelganini eshitdi. Hojimurod amaldor nima uchun kelganini juda bilgisi kelganiga qaramay, pristav bilan amaldor uni kutib o'tirishgan xonaga kirishdan avval, o'z xonasiga kirib peshin namozini o'qidi. So'ng mehmonxona va qabulxona vazifasini bajaruvchi ikkinchi xonaga chiqdi. Tiflisdan kelgan amaldor, oddiy maslahatchi Kirillov Hojimurodga: Voronsov seni, Argutinskiy bilan uchrashish uchun 12-chisloga Tiflisga kelsin, deb aytdi,- dedi.

- Yaxshi,- dedi Hojimurod jahl bilan.

Amaldor Kirillov unga yoqmadi.

- Pul keltirdingmi?
- Keltirdim,- dedi Kirillov.
- Hozir ikki haftanikini ber,- dedi Hojimurod va avval o'nta, keyin to'rtta barmog'ini ko'rsatdi.
- Hozir beramiz,- dedi amaldor o'zining yo'l sumkasidan hamyonini olayotib.- Bunga pul nimaga kerak ekan?- dedi ruschalab, Hojimurod bilmaydi deb o'ylab, lekin Hojimurod tushundi-da, jahl bilap Kirillovga qaradi. Kirillov, aqchani hamyondan olayotib, qaytganida o'z knyazi Voronsovga biror gap topib borish uchun Hojimurod bilan gaplashishni istab, tarjimon orqali, bu yerda zerikmayotibsizmi, deb so'radi. Hojimurod kichkina, semiz, noharbiy kiyimdagi qurolsiz kishiga nafrat bilan qaradi-da, hech qanday javob bermadi. Tarjimon savolni takrorladi.
- Unga ayt, men u bilan gaplashishni istamayman. Tezroq pulni bersin.- Hojimurod bu gapni aytib, pulni sanamoqchi bo'lib yana stol yoniga o'tirdi.
Kirillov oltinlar chiqarib, o'ntadan qilib yetti qator oltinni tizib qo'ydi-da (Hojimurod kuniga beshta oltin olardi), ularni Hojimurodshshg oldiga surdi. Hojimurod oltinlarni cherkaskasining yoniga supurib soldi; so'ng o'rnidan turdi ra mutlaqo kutilmagan bir holda maslahatchining tepakal boshiga bir shapati urib, eshikka qarab yo'l oldi. Maslahatchi o'rnidan qalqib turdi va tarjimonga, uning bunday qilishi kerak emas, chunki u polkovnik mansabidagi bir kishi ekanini unga aytishni buyurdi, pristav ham shunday dedi. Lekin Hojimurod, buni bilaman, ishorasi bilan, bosh irg'adi va uyda chiqib ketdi.
- Uni nima qila olar edi,- dedi pristav,- xanjarini g'ijir etkazib bitta tiqib oladi, vassalom. Bu shaytonlar bilan gaplashib bo'lmaydi. Ko'rib turibman, uning jini tutayotibdi.
Qorong'i tushishi bilan tog'dan quloqchinlarini ko'zlarigacha bostirib kiygan ikkita maxfiy elchi keldi. Pristav ularni Hojimurodning xonasiga kirgizib yubordi. Maxfiy elchilarning biri semiz, qora, tavlinlik kishi, ikkinchisi - oriqliq bir chol edi. Ular keltirgan xabar Hojimurod uchun ko'ngilsiz edi. Uning oilasini qutqazishni o'z ustlariga olgan birodarlari, kimki Hojimurodga yordam qilsa, uni eng qattiq o'lim jazosiga giriftor qilaman, deya dahshat solgan Shomildan qo'rqishib, endi to'g'ridan-to'g'ri bu ishdan bosh tortmoqda edilar. Hojimurod maxfiy elchilarning gapini eshitib bo'lib, qo'llarini chordana qilib o'tirgan oyoqlariga tiradi va papaxli boshini quyi solib, uzoq jim qoldi. Hojimurod o'ylar, juda jiddiy o'ylar edi. U hozir so'nggi marta o'ylayotganini va masalani bir yoqli qilishi kerak ekanini bilardi. Hojimurod boshini ko'tardi, yonidan ikkita oltin olib, maxfiy elchilarga bittadan berdi.
- Boringlar,- dedi.
- Javobichi?
- Boraveringlar. Bu yog'ini egamning o'zi biladi.
Maxfiy elchilar o'rinlaridan turib chiqib ketdilar. Hojimurod esa, qo'llarini tizzalariga tiragan holda gilam ustida o'tiraverdi. U uzoq o'tirib o'yga cho'mdi.
Hojimurod: "Nima qilish kerak? Shomilga ishonishi va uning oldiga qaytishi kerakmi?" U aldaydi. Mabodo aldamagan taqdirda ham, unga - o'sha makkor tulkiga bo'ysunish mumkin emas. Shuning uchun ham mumkin emaski, u endi, men ruslarning oldida bo'lganimdan keyin ortiq menga ishonmaydi" deb o'yladi.
So'ng u lochin to'g'risidagi tavlinlar ertagini xotirladi: lochin qo'lga tushgan, odamlarning qo'lida bir qancha vaqt yashagan, so'ng o'z tog'iga, o'z lochinlari oldiga qaytib kelgan. U qaytganda ammo bo'ynida bog'ich va qo'ng'iroqlari bor edi. Lochinlar uni qabul qilmaganlar.- O'sha, senga kumush qo'ng'iroqlar taqqan yerga uchib ketaver,- deganlar.- Bizda qo'ng'iroqlar ham yo'q, bog'ich ham.- Lekin vatanini tashlab ketishni istamagan-da, o'sha yerda qolgan. Lekin boshqa lochinlar uni qabul qilmaganlar va cho'qib tashlaganlar.
Hojimurod: "Meni ham xuddi shunday cho'qiydilar", deb o'yladi.
"Shu yerda qolaversammikan? Rus podshosiga Kavkazni bo'ysundirsam, shuhratga, mansabga, boylikka ega bo'lsammikan?" U, o'zining Voronsov bilan bo'lgan uchrashuvini va knyazning xushomadli so'zlarini xotirlab, "buning iloji bor", dedi.
"Lekin hozir bir qarorga kelish kerak, bo'lmasa u oilasidan ajrab qoladi".
Hojimurod tuni bilam uxlamasdan o'ylab chiqdi.

XXIII

Tun yarmidan oqqanda u toqqa qochish va unga sodiq bo'lgan avariyaliklar bilan birga Vedenoga bostirib kirish yo o'lish, yo oilani qutqarish kerak, degan qarorga keldi. Oilasini ruslar tomoniga qaytib olib o'tadimi yoki oila bilan birga Xunzaxga qochib o'tib, Shomil bilan ko'rishadimi,- buni Hojimurod hal qilganicha yo'q, u faqat hozir ruslardan toqqa qarab qochish kerakligini bilardi. U bu qarorni darrov amalga oshira boshladi. U yostig'ining ostidan qora paxtalik kamzulini oldi-da, navkarlarining uyiga ketdi. Ular ayvonning narigi tomonidagi xonada turardilar. U eshikni ochib ayvonga chiqishi bilanoq, uni oydin kechaning shudringli toza havosi o'rab oldi va uyga tutashgan bog'da bulbullarning sayrashlari quloqqa chalindi.

Hojimurod ayvondan o'tib borib, navkarlar uyining eshigini ochdi. Bu uyda chiroq yo'q, faqat bir haftalik yangi oy derazadan yog'du sochardi. Stol va ikkita stul chekkaga surilib qo'yilgan, to'rttala navkar ham yerda, gilam va chakmon ustida, Hanafiy esa eshikda, otlarning yonida yotardi. Gamzalo, eshiknng g'ijirlab ochilganini eshitib, boshini ko'tardi. Hojimurodga qaradi va uni tanib, yana yotdi. Uning yonidagi Eldor esa o'rnidan irg'ib turdi va buyruqni kutib kamzulini kiya boshladi. Qurbon va Xop-Magoma uxlar edilar. Hojimurod kamzulini stolga qo'ydi, kamzulda bo'lgan qapdaydir qattiq bir narsa taxtaga taq etib tegdi. Bu - kamzulga tikilgan oltinlar edi.

- Mana bularni ham tikib qo'y,- dedi Hojimurod, bugun olgan oltinlarini Eldorga berib.

Eldor oltinlarni oldi va shu zamonioyq yorug' joyga chiqib, xanjarining tagidan pichoqchasini olib, kamzulning astarini so'ka boshladi. Gamzalo o'rnidan ko'tarilib, chordana qurib o'tirdi.

- Sen, Gamzalo, yigitlarga buyur, miltiqlarni, to'pponchalarni ko'zdan kechirib chiqsinlar, o'qlarni tayyor qilib qo'ysinlar. Ertaga uzoq joyga ketamiz,- dedi Hojimurod.

- O'q bor, dori bor, tayyor bo'ladi,- dedi Gamzalo va g'o'ng'illab bir nima dedi.

Gamzalo, Hojimurod nima uchun qurollarni o'qlab qo'yishga buyurganini angladi. U, boshdanoq va keyincha faqat bir narsani: mumkin bo'lganicha, rus yigitlarini kaltaklash va so'yish, so'ng toqqa qochib ketishni istar edi. Shuning uchun ham hozir u, Hojimurod ham shunday qilmoqchn bo'lganini bilib, mamnun bo'ldi.

Hojimurod ketgach, Gamzalo o'rtoqlariii uyg'otdi va to'rttalasi tuni bilan miltiq, to'pponcha, chaqmoqtoshlarni qarab chiqdilar,

yomonlarini almashtirdilar, multiqlariing tepki chuqurchalariga yangi dori sepib qo'ydilar, gozirlarga o'Ichangan dori solingan yog'li lattalarga o'rog'liq o'qlarni joylashtirdilar, qilich va xanjarlarni qayradilar va tiglarini quyruq yogi bilan moyladilar. Hojimurod tongotarda tahoratga suv olish uchun yana ayvonga chiqdi. Ayvonda tong oldidan to'lib-toshib sayrashayotgan bulbullarning, kechasidagiga qaraganda yana qattiqroq, yana ravshanroq ovozlari eshitilmoqda edi. Navkarlar xonasidan esa, qayroqqa qayralayotgap xanjarlarning bir qolipdagi shirillashi va jing'irlashi eshitalardi. Hojimurod xumdan suv olib o'z yotoqxonasiga yaqinlashganda, muridlar xonasidan yana Hanafiyning o'ziga tanish ingichka yoqimli xirgoyisini eshildi. U to'xtab quloq sola boshladi.

Qo'shiqda botir G'amzatning o'z azamatlari bilan ruslar tomonidan oq otlar uyurini haydab o'tgani, keyin Terak daryosining orqasida uni rus knyazi quvib yetgani va o'zning ko'p qo'shini bilan uni o'rab olganligi aytilardi. Keyin G'amzatning otlarni so'yib tashlaganligi va o'z azamatlari bilan o'ldirilgan otlarning ag'anagan qonli gavdalari orqasida o'tirib olib, to multiqlarda o'q, belbog'larda xanjar va tomirlarda qon qolmaganga qadar, ruslar bilan urush qilganligi haqida aytilar edi. Ammo G'amzat o'lishidan avval, osmonda qushlarni ko'rib, ularga: "Siz uchar qushlar, bizning uylarimizga boring va opa-singillarimizga, onalarimizga va oppoq qizlarga: ular hammalari g'azavot uchun jon berdilar, deb aytingiz. Ularga xabar qilinglarki, bizning jasadlarimiz go'rda yotmaydi, balki suyaklarimizni och bo'rilar har tomonga olib ketib, g'ajiydilar, ko'zlarimizni esa quzg'unlar cho'qiydilar", deya qichqirganligi so'zlanardi.

Qo'shiq shu so'zlar bilan tugardi va so'nggi ohangdor naqoratga qo'shiqning eng oxirida qattiq "Lo iloho illollo", deb baqirgan ham quloqni kar qilar darajada chinqirgan Xon-Magomaning tetik ovozi qo'shildi. Keyin hammasi tindi va yana bog'dan bulbullarning sayrashi va navkarlar uyidan, qayroqtoshga tez qayralayotgan temirlarning bir qolipdagi shirillashi eshitila boshladi. Hojimurod shu qadar o'yg'a toldiki, ko'zani qiyshaytirib yuborganini va undan suv to'kilganini payqamadi. U o'z ahvoliga bosh chayqatib qo'ydi-da, xonasiga kirib ketdi. Hojimurod bomdodni o'qib, o'z qurolini ko'zdan kechirib, so'ng to'shagiga o'tirdi. Boshqa qiladigan ish yo'q edi. Uydan chiqib ketmoq uchun pristavdan so'ramog'i lozim edi. Tashqari esa hali qorong'i, pristav uyquda edi.

Hanafiyning qo'shig'i unga onasi to'qigan boshqa bir qo'shiqni eslatdi. Bu qo'shiq Hojimurod yangi tug'ilgan vaqtda yuz bergan, onasi unga keyin hikoya qilgan voqea to'g'risida edi.

Qo'shiq shunday edi:

"Sening po'lat xanjaring mening oq badanimni chok etdi, lekin men quyoshimni, o'g'limni yaramga bosdim, uni o'zimning issiq qonim bilan yuvdim, yaram turli giyoh va ildizlar qo'ymasdan o'z tuzaldi, o'g'lim ham ulg'ayib yigit bo'ldi".

Bu qo'shiqning so'zlari Hojimurodning otasiga qaratilgan bo'lib, mazmuni tubandagicha edi: Hojimurod tug'ilgan vaqtda, xonning xotini ham o'g'li Ummaxonni tuqqan bo'ladi va o'g'li Abununsalxonni emizib katta qilgan Hojimurodning onasini yana enagalikka chaqiradi. Lekin Fatimat o'g'lini tashlab ketishni istamaydi, bormasligini aytadi, Hojimurodning otasi g'azabga kelib, borishga buyuradi. Fatimat yana rad qilgach, unga xanjar uradi. Agar ajratib olmasalar, o'ldirib qo'ygan bo'lardi. Shunday qilib Fatimat Hojimurodni bermaydi va uni emizib katta qiladi, qo'shiq ham shu voqea munosabati bilan to'qiladi.

Hojimurod o'z onasini esladi, u uyning tomida po'stinga o'rab, o'zi bilan qator yotqizgan vaqtlarida, unga shu qo'shiqni aytib berar va Hojimurod undan biqinidagi yaradan qolgan izni ko'rsatishni so'rar edi. U o'z qarshisida onasining jonli siymosipi ko'rdi-yu, hozir uni qishloqda qoldirganday, yuzlarini ajin bosgan, sochlari oqargan, tishlari tushib ketgan holda emas, balki Hojimurod besh yoshga kirib kattagina bo'lib qolganda ham uni savatda orqalab tog'lar osha bobosining oldiga olib yurgan vaqtlaridagi singari yosh, chiroyli, kuchli, navqiron qiyofasini ko'rdi.

So'ng u hamma yog'ini ajin bosgan, soqoli oqarib ketgan bobosining qadoq qo'llari bilan kumush pul yasaganini va nabirasini duo o'rganishga majbur qilganini ham xotirladi. Tog' ostidagi buloq va u yerda onasining chalvoridan ushlab olib, birga suvga borganlari yodiga tushdi. Uning basharasini yalaydigan oriqlik va xususan, u, sigir sog'iladigan va sut pishiriladigan saroyga onasi bilan birga borgan vaqtlaridagi tutun ham qatig'ining hidi esiga tushdi. Birinchi marta uning sochini olganlari va devorda osig'liqlik turgan, yaltiroq jom ichidan taajjub bilan o'zining do'pg'alak ko'kish boshini ko'rganligi xotiriga keldi.

U bolalik chog'ini eslar ekan, suyuqlik o'g'li Yusufni esladi. Uning sochini birinchi marta o'zi olgan edi. Endi Yusuf navqiron, go'zal yigit bo'lib qolgan edi. U o'g'lini so'nggi marta ko'rganidek tasavvur etdi. So'nggi marta u o'g'lini Sel'mesdan chiqib ketayotganda ko'rgan edi. O'g'li unga otini keltirdi va kuzatib qo'yishga ijozat so'radi. U, kiyingan, qurollangan va otining jilovidan ushlab turar edi. Yusufning qip-qizil, yosh, go'zal yuzi va daroz, nozik qaddi-qomati (u otasidan baland edi) botirlik, yoshlik va hayot shodligi bilan nafas olardi. Yoshligiga qaramasdan, yelkadorligi, yigitlarga xos quymichi nozik qomati, uzun, baquvvat qo'llari va abjir-chaqqonligi hamma vaqt otasini sevintirar, shuning uchun ham u hamma vaqt o'g'liga havas bilan qarar edi.

- Yaxshisi, qol. Hozir sen uyda bir o'zingsan. Onangga va buvingga ehtiyot bo'l,- degan edi Hojimurod o'shanda.

Hojimurod Yusufning, men tirik ekanman, onamning va buvimning hech kim mushugini pisht deya olmaydi, degan mag'rur chehrasini yodiga tushirdi. Yusuf otasini soygacha kuzatib qo'ydi. O'shandan beri Hojimurod xotinini ham, onasini ham, o'g'lini ham ko'rgan yo'q.

Shomil mana shu o'g'lining ko'zini o'ymoqchi! U, xotinini nima qilmoqchi ekani to'g'risida o'ylashni ham istamasdi.

Bu fikrlar Hojimurodni shu qadar dahshatga soldirdiki, u ortiq o'tara olmadi. U irg'ib turdi-da, oqsoqlab, tez-tez yurib eshikning yoniga keldi va eshikni ochib, Eldorni chaqirdi. Quyosh hali chiqmagan, ammo yorug' edi. Bulbullar sayrashdan to'xtamagan edilar.

- Bor, pristavga ayt, sayr qilmoqchiman, otlarni egarlanglar,- dedi u.

XXIV

Butlarning butun bu vaqt ichidagi birdan-bir tasallisi faqat xizmatdagina emas, xususiyl hayotida ham juda berilgani harbiy she'riyat edi. U cherkascha kiyim kiyib olib, ot o'ynatib yurardi. Bogdanovich bilan ikki marta pistirmaga bordi, ammo ular ikki safarda ham hech kimni uchratmadilar va hech kimni o'ldirmadilar. Mashhur botir Bogdanovich bilan bo'lgan bu yaqinlik va do'stlik Butlarga allaqanday yoqimli va muhim narsa bo'lib tuyulardn. U juda katta protsent to'lash sharti bilan bir yahudiyan qarzg'a pul olib, qarzini to'ladi, ya'ni chigal ahvolni o'zidan uzoqlashtirib, uning muddatini cho'zdi. U o'z ahvoli to'g'risida o'ylamaslikka tirishar va harbiy she'riyatdan tashqari, vino ichib ham o'zini unutishga harakat qilar edi. U borgan sari ko'p ichadigan bo'ldi va axloqi kundan-kunga battar ojizlana boshladi. U endi Mariya Dmitriyevnaga nisbatan go'zal Yusuf emas edi, balki aksincha, unga qo'pol ishqibozlik qila boshladi, lekin taajjubga qarshi, qat'iy rad javobini olib sharmanda bo'ldi.

Aprelning oxirida istehkomga o'tib bo'lmas deb hisoblangan butun Chechen bo'ylab yangi harakat qilish uchun Baryatinskiy tarafidan belgilangan otryad keldi. Bu otryadda Kabardin polkining ikki rotasi bor edi va bu rotalar Kavkazda singib ketgan odat bo'yicha, Kurinskiydagi rotalar tomonidan mehmondek qabul qilindi. Soldatlar kazarmalarga tarqalishdi va kechqurun shavla ketidan mol go'shtidan qilingan qovurdoq bilangina emas, balki aroq bilan ham siylashdi. Ofitserlar ofitserlarning uylariga joylanishdi va odat bo'yicha, bu yerdagi ofitserlar kelgan ofitserlarni mehmon qildilar.

Mehmondorchilik ichkilik, ashulalar bilan tugadi. Boya qip-qizarib o'tirgan Ivan Matveevichning endi ancha kayfi oshib qolgan edi. U bo'zarib stulni ot qilib minganicha o'tirar va qilichini qo'lga ushlab, tasavvuridagi dushmanlarni chopar va goh so'kar, goh qahqaha urar, goh quchoqlashar, goh o'zining yaxshi ko'rgan: "O'tgan yillarda Shomil to'polon qila boshladi, tiray-ruyata-tay, o'tgan yillarda" degan ashulaga o'ynar edi. Butler ham shu yerda edi. U, bu ishlarda ham harbiy she'riyatni ko'rmakka tirishar, lekin qalbining chuqur joyidan Ivan Matveevichga achinar, ammo uni to'xtatishning hech bir iloji yo'q edi. Butler boshi aylanganligini sezib, sekin chiqib uyga ketdi.

To'lgan oy oq uylarga va yo'ldagi toshlarga nur sochmoqda edi. Shu qadar oydin ediki, yo'lda yotgan har bir qamish, somon parchasi, har bir belgi aniq ko'rinardi. Butler uyga yaqinlashganda, boshini va bo'yini berkitib ro'mol o'rab olgan Mariya Dmitriyevnani uchratdi. Butler Mariya Dmitriyevna unga qarshilik ko'rsatgandan beri, bir oz uyalar va u bilan uchrashishdan o'zini olib qochar edi. Hozir esa, u oydin kecha va ichilgan vinoning ta'siri ostida bu uchrashuvdan juda xursand bo'ldi va yana Mariya Dmitriyevnaga suykangisi keldi.

- Yo'l bo'lsin?- so'radi u.

- Ha, cholimdan xabar olib kelay deb ketayotibman,- Mariya Dmitriyevna muloyim javob berdi. U Butlarning ishqibozligini astoydil rad qilgan edi, lekin Butlarning so'nggi kunlarda o'zini tortib yurishi unga yoqmas edi.

- Xabar olishning nima keragi bor, o'zi kelar.

- Ha-ya, kelarmikan?

- Agar kelmasa - olib keladilar.

- Ana shunisi yaxshi emas-da. Demak bormay qo'ya qolaymi?БТ”dedi Mariya Dmitriyevna.

- Bormang. Yaxshisi, uyga yuring.

Mariya Dmitriyevna burilib Butler bilan yonma-yon ketdi. Oy shu qadar yorqin shu'la sochar ediki, hatto yo'ldagi soyalar tepasida ham jilvalanardi. Butler shu jilvaga va Mariya Dmitriyevnaga, siz menga hali ham yoqasiz, deb aytmoqchi bo'ldi, lekin so'zni nimadan boshlashni bilmadi. Mariya Dmitriyevna bo'lsa, u nima der ekan, deb kutib borardi. Burchakdan otliqlar chiqqan vaqtda, ular shu ko'yi jim holda uyga juda ham yaqinlashib qolgan edilar. Konvoy bilan birga bir ofitser kelmoqda edi.

- Bular yana kim bo'ldilar ekan?- dedi Mariya Dmitriyevna va o'zini chetga oldi.

Oy kelayotgan kishining orqa tomonidan yorug' sochayotganidan Mariya Dmitriyevna keluvchini faqat yonboshdangina tanidi. Bu odam ilgari Ivan Matveevich bilan birga ishlashgan, shuning uchun ham Mariya Dmitriyevna taniydigan ofitser Kamenev edi.

- Pyotr Nikolayevichmisiz?- Mariya Dmitriyevna unga murojaat qildi.

- Xuddi o'zi,- dedi Kamenev.- O, Butler, salom. Haliga qadar uxlamasdan Mariya Dmitriyevna bilan sayr etib yuribsizmi?

Shoshmang, hali Ivan Matveevich ta'ziringizni berib qo'yadi. U qani?

- Ana, eshitayotibsizmi,- dedi Mariya Dmitriyevna, muzika, katta nog'ora va ashula tovushi kelayotgan tomonni ko'rsatib,- aysh qilayotibdilar.

- Nima, o'z odamlaringiz aysh qilayotibdilarmi?

- Yo'q, Hasav-Yurtdan kelishgan edi, o'shalarni ziyofat qilayotibdilar.

- Ha, bu yaxshi gap. Men ham boraman. Men uning oldiga bir minutgagina kirib chiqaman.

- Nima, ish bormidi?БТ”Butler so'radi.

- Ha, jipdak ish bor.

- Yaxshi ishmi yoki yomonmi?

- Kimga qanday. Biz uchun yaxshi, ba'zi bir odamlarga yomon.

Bu so'zni aytib Kamenev kulib yubordi. Shu vaqtda yayovlar ham, Kamenev ham Ivan Matveevichning uyiga yaqinlashdilar.

- Chixirev!- Kamenev kazakni chaqirdi,- bu yoqqa kel!

Don kazagi boshqalardan ajralib ularning yoniga keldi. Kazak oddiy donliklar formasida, etik, shinel' kiygan va egarning ustiga xurjun tashlagan edi.

- Qani, haligini bu yoqqa ol-chi,- dedi Kamenev otdan tushayotib.

Kazak ham otdan tushdi va xurjunning ichidan bir narsa solingan qop oldi. Kamenev kazakning qo'lidan qopni olib, ichiga qo'l soldi.

- Demak, sizlarga yangilikni ko'rsataymi? Siz qo'rqmaysizmi?- dedi u Mariya Dmitriyevnaga murojaat qilib.

- Nima uchun qo'rqayin,- dedi Mariya Dmitriyevna.

- Mana bo'lmasa, ko'ring,- dedi Kamenev qopdan odam kallasinn olib va uni oynning shu'lasiga tutib.- Taniysizmi?

Bu narsa monoq suyagi turtib chiqqan, qaychilangan qora soqol va mo'ylovli, bir ko'zi ochiq, ikkinchi ko'zi yarim ochiq, bir qancha yeridan chopilgan, qiymalangan, sochi qirqilgan, burnida qora qon ivib qolgan bir kalla edi. Bo'yni qonli sulgi bilan o'ralgap edi.

Boshidagi butun jarohatlarga qaramay, ko'karib ketgan lablarining burchlarida bolalarga xos ezgu bir ifoda qotib qolgan edi.

Mariya Dmitriyevna kallaga qaradi va hech narsa aytmasdan o'girildi-da, tez qadamlar tashlab uyga kirib ketdi.

Butler qo'rqinchli kalladan ko'zini ololmadi. Bu kalla o'sha Butler yaqindagina do'stona suhbatlar ichida kechani birga o'tkazgan Hojimurodning kallasi edi.

- Nima bo'ldi? Uni kim o'ldirdi? Qayerda?- deb so'radi u.

- Qochmoqchi ekan, ushlab oldilar,- dedi Kamenev, so'ng boshni kazakka berib, o'zi Butler bilan birga uyga kirib ketdi.

- Juda mardlarcha jon olib, jon berdi-da,- dedi Kamenev.

- Axir bu voqea qanday sodir bo'ldi?

- Shoshmay turing, Ivan Matveevich kelgach, hammasini mukammal gapirib beraman. Axir men shuning uchun ham yuborilganman-da, butun istehkomlarda va ovullarda uning boshini yechib ko'rsataman.

Ivan Matveevichga kishi yuborilgan edi. U o'ziga o'xshagan juda mast ikki ofitser bilan birga keldi-da, Kamenevni quchoqlay ketdi.

- Men, sizga,- dedi Kamenev,- Hojimurodning boshini keltirdim.

- Yolg'on. O'ldirdilarmi?
- Ha, qochmoqchi bo'lgan edi.
- Men boplab ketadi degan edim-a. Qani boshi, ko'rsatchi?

Kazakni chaqirdilar, u bosh solingan qopni olib kirdi. Boshni chiqardilar. Ivan Matveevich mast ko'zlari bilan unga uzoq tikilib turdi.

- Nima bo'lsa ham azamat edi,- dedi u.- Menga ber, men uni bir o'pay.
- Ha, rost, abjir odam edi,- dedi ofitserlardan biri.

Kallani hammalari ko'rib bo'lgach, uni yana kazakka berdilar. Kazak uni mumkin qadar avaylab yana qopga soldi.

- Xo'sh, Kamenev, boshnn ko'rsatgan vaqtingda nima deysan?- dedi bir ofitser.
 - Yo'q, menga ber, uni o'paman. U menga qilich hadya qilgan,- deb baqirdi Ivan Matveevich.
- Butler eshik oldidagi zinaga chiqdi. Mariya Dmitriyevna zinaning ikkinchi bosqichida o'tirardi. U Butlerga aylanib qaradi va shu zamoniyoq jahl bilan undan yuz o'girdi.
- Nima bo'ldi sizga, Mariya Dmitriyevna?- deb so'radi Butler.
 - Hammalaring kallakesarsiz, basharangizga qaragim ham kelmaydi, kallakesarsizlar, to'g'risiyam shu,- dedi u o'rnidan turib.
 - Bunday qismat hammamizping ham boshimizga kelishi mumkin,- dedi Butler nima deyishini bilmasdan.- Buning otini urush deydilar.
 - Urush? Qanaqa urush? Bu odamlarni tiriklayin so'yish - tamom-vassalom. Jasadni yerga ko'mish kerak, bular esa tishlarini irjaytirib kuladilar, kallakesarlar, rost,- deb takrorladi u, so'ng zinadan tushib orqa tomondagi eshikdan uyga kirib ketdi.
- Butler mehmonxonaga qaytib kirdi-da, Kamenevdan hamma voqeani batafsil aytib berishni so'radi. So'ng Kamenev hikoya qilib berdi. Voqea mana shunday bo'lgan edi.

XXV

Hojimurodga ot bilan shahar yaqinida va albatta konvoy kazaklar bilan birga tomosha qilib yurish ruxsat etilgan edi. Nuxada hammasi bo'lib elliktacha kazak bor edi, ulardan o'n kishi boshliqlarning xizmatiga olingan, qolganlari esa, agar ularni, buyruqqa muvofiq, o'n kishidan yuboriladigan bo'linsa, kun ora yuborishga to'g'ri kelardi. Shuning uchun ham birinchi kuni o'nta kazakni qo'shib yubordilar, keyin esa Hojimuroddan o'zi bilan birga butun navkarlarini olmaslikni so'rab, besh kishidan qo'shib yuborishga qaror qildilar. Lekin 25 aprelda Hojimurod tomoshaga besh navkari bilan birga chiqdi. Hojimurod otga mingan vaqtda, harbiy boshliq besh navkarning hammasi ham Hojimurod bilan birga jo'namoqchi bo'lganini payqadi-da, unga hamma navkarlarini o'zi bilan birga olish man etilganligini aytdi, lekin Hojimurod go'yo eshitmagan bo'lib, otini chuv dedi, shundan so'ng harbiy boshliq qistalang qilib o'tirmadi. Kazaklar bilan birga uryadnik, georgiy kavaleri, qo'ng'ir sochini qirqtirgan tog'ni talqon qiladigan yosh Nazarov bor edi. U eski e'tiqodli oilaning to'ig'ich farzandi bo'lib, otasiz o'sgan, uch singil, ikki ukasi bilan onasini boqar edi.

- Ehtiyot bo'l, Nazarov, uzoqqa yuborma,- baqirdi harbiy boshliq.
 - Xo'p bo'ladi, janoblari,- javob berdi Nazarov va uzangiga oyoq tashlab, yelkasidagi miltig'ini ushlab turib, yirik, baquvvat tumshug'i uzun saman axtasini choptirib ketdi. Uning orqasidan to'rt kazak borar edi: biri povcha, ori, uchchiga chiqqan o'g'ri, muttaham - Gamzaloga porox sotgan Ferapontov; ikkinchisi - xizmat muddatini tugatgan, yoshi o'tib qolgan, zo'rliги bilan maqtanadigan, gavgdali mujik Ignatov, uchinchisi - nimjon, hamma mazax qiladigan go'dak Mishkin va to'rtinchisi - yosh, malla sochli, onasining yolg'iz o'g'li, quvnoq va xushmuomala Petrakov edi.
- Ertalab tuman bor edi, lekin nonushtaga yaqin havo jo'nashib ketdi, endigina kurtak yozgan novdalarda ham, yosh ko'katlarda ham, endigina chiqib kelayotgan bug'doylarda ham, yo'lning chap tomonida tezoqar anhorning jimjimasida ham quyoshning shu'lasi yaltiray boshladi. Hojimurod otini yo'rttirib bormoqda, kazaklar va uning navkarlari ortda qolmasdan orqasidan ketmoqda edi. Shu ko'yi yurishib krepostning orqasiga chiqdilar. Yo'lda boshiga savat qo'ygan xotinar, arava ustida ketayotgan soldatlar va ho'kiz qo'shilgan shaloq aravalar uchradi. Ikki chaqirimcha uzoqlashgandan so'ng Hojimurod o'zining oq kabardin otini chuh deb yubordi, u shunday yurish qildiki, o'zining navkarlari ham otlarini qattiq yeldirib ketdilar. Kazaklar ham shunday yurdilar.
- Eh, oti soz ot-da,- dedi Ferapontov.В”Agar u bizga qo'shilmagan paytda duch kelgan bo'lsa, uni shartta ag'dargan bo'lardim.
 - Ha, birodar, Tiflisda bu otga uch yuz bermoqchi bo'lganlar.
 - Men o'z otim bilan quvib o'tib ketaman,- dedi Nazarov.

- Qanday qilib o'zib ketasan,- dedi Ferapontov. Hojimurod borgan sari otining yurishini tezlatmoqda edi.
- Hay, mehmon, bunday qilish yaramaydi. Sekinroq yur!- deb qichqirdi Nazarov Hojimurodni quvib yetib.

Hojimurod aylanib qaradi-da, hech narsa demasdan boyagi ketishida davom etaverdi.

- Uni qara, shaytonlar, bir narsa o'ylaganga o'xshaydilar,- dsdi Ignatov.- Ko'rayotibsanmi, otiga qamchi bosayotibdi. Shu ko'yi tog' tomonga qarab bir chaqirim yo'l bosdilar.
- Mumkin emas deyapman!В”Nazarov yana qichqirdi.

Hojimurod javob bermadi, orqasiga ham qaramadi, faqat yurishni yana ham tezlashtirdi va yelishdan chopishga o'tdi.

- Bekor aytasan, baribir keta olmayсан!- deb baqirdi izza bo'lgan Nazarov.

U, o'zining katta saman axtasiga qamchi bosdi va oyoqlarini uzangiga tirab, oldinga egilgan holda, Hojimurodning orqasidan otining boshini qo'yib yubordi.

Osmon shu qadar tiniq, havo shu qadar sof, Nazarovning qalbida hayot zavqi shu qadar barq urar ediki, kuchli ot bilan bir tanbir jon bo'lib qo'shilib, tekis yo'ldan, Hojimurodning orqasidan uchib ketayotganida, biror qayg'uli yoki qo'rqinchli voqea yuz berishi mumkinligi uning xayoliga ham kelgani yo'q edi. U har sakragan sari Hojimurodga yaqinlasha borganiga xursand edi. Hojimurod, o'ziga yaqinlashib kelayotgan katta kazak otning tuyuq tovushidan kazakning tez orada yetib olishini fahmladi, u o'ng qo'lga to'pponchasini olib, chap qo'li bilan qizib ketgan va orqasidan yaqinlashib kelayotgan ot tuyog'ini sezgan kabardin otining jilovini sekin torta boshladi.

- Mumkin emas deyapman!- Nazarov, deyarli Hojimurod bilan qatorlashib, otining jilovidan ushlamoqchi bo'lib, qo'lini cho'zib baqirdi. Lekin u jilovdan ushlab ulgurgancha yo'q edi, o'q ovozi eshitildi.
- Bu nima qilganing?- deb qichqirdi Nazarov va ko'kragini ushladi.
- Yigitlar, uring bularni,- dedi u chayqalib egarning qoshiga yiqilarkan.

Lekin tog'liklar kazaklardan ilgariroq qurollarini qo'lga oldilar-da, kazaklarni to'pponchadan otdilar, qilich bilan chopdilar.

Nazarov o'rtoqlari atrofida aylanib yurgan otning bo'ynida osilib yotardn. Ignatovning ostidagi ot yiqilib, uning oyog'ii bosib qoldi. Ikkita tog'lik qilichlarini olib, ot ustidan tushmay turib, Ignatovning boshini va qo'llarini chopa ketdilar. Petrakov o'rtog'iga yordamga tashlanmoqda bo'lgan edi, lekin shu zamoniyoq ketma-ket biqinidan tekkan ikki o'q uni o'rtab yubordi va u otdan gurs etib ag'darilib tushdi.

Mishkin otini orqaga qarab burdi-da, krepostga tomon chopib ketdi. Hanafiy bilan Xon-Magoma uni quvdilar, lekin u ancha uzoqqa ketib qolgan edi, tog'liklar quvib yeta olmadilar.

Kazakni quvib yeta olmasliklarini bilishib, Xon-Magoma bilan Hanafiy sheriklarining yoniga qaytib keldilar. Gamzalo Ignatovni xanjar bilan urib tamom o'ldirib bo'lib, Nazarovni ham otdan ag'darib olib so'ydi. Xon-Magoma o'lganlardan o'q solingan sumkalarini yechib oldi. Hanafiy Nazarovning otini olmoqchi edi, lekin Hojimurod unga, olma, deb qichqirdi-da, oldinga qarab chopib ketdi. Muridlar, ergashib kelayotgan Nazarovning otini haydab yuborib, Hojimurodning orqasidan chopdilar. Minoradan trevogani bildiradigan o'q tovushi eshitilganda, bular Nuxadan uch chaqirim narida sholipoya orasida edilar.

Petrakov chavaqlanib chalqancha yotar, yosh chehrasi ko'kka qaragan va xuddi baliqqa o'xshab pitirlab jon bermoqda edi.

Krepost' boshlig'i Hojimurodning qochganini eshitganda boshini changallab:

- Voy otam-ey, nima balo qilib qo'ydilaring,- deb baqirib yubordi.- Voy sho'rlik boshim! Qo'ldan chiqaribdilar, qaroqchilar!- baqirdi u Mishkin keltirgan xabarni eshitib.

Hamma yerda trevoga berilgan va qochoqlarning orqasidan quvish uchun faqat krepostda mavjud bo'lgan kazaklar emas, balki tinch ovullardan yig'ilgan butun militsionerlar ham to'plangan edi. Hojimurodni yo tirik, yo o'lik holda keltirgan kishiga ming so'm mukofot e'lon qilindi. Shunday qilib Hojimurod o'z sheriklari bilan kazaklarning oldidan qochib ketayotganidan ikki soatcha keyin qochganlarni axtarib topish va tutish uchun pristavning orqasidan ikki yuz kishidan oshiq otliqlar chopib ketdilar.

Hojimurod, katta yo'ldan bir necha chaqirim yurgandan so'ng, og'ir nafas olayotgan va terdan kulrang bo'lib ketgan oq otining jilovini tortib to'xtatdi. Yo'lning o'ng tomonida Belarjik ovulning uylari na minorasi, chap tomonda ekinzorlar va ularnig oyoq tomonida daryo ko'rinardi. Toqqa boradigan yo'l o'ng tarafda bo'lishiga qaramasdan, Hojimurod quvuvchilar albatta o'ng tarafga qarab yo'l oladi, degan mulohaza bilan chap tomonga burildi. U yo'lsiz Alazon daryosidan kelib o'tib, uni hech kim kutmaydigan katta yo'lga chiqmoqchi, shu yo'l bilan o'rmonga qadar bormoqchi, undan keyin yana yangidan daryoni kechib o'tib, toqqa ketmoqchi bo'ldi. U shu qarorga kelib, chapga yo'l oldi. Lekin daryoga yetib borishi mumkin bo'lmaydigan ko'rindi. Ular yurib o'tishi kerak bo'lgan sholipoya hamma vaqt bahorda bo'ladigani kabi suv bosgan va otlar tizzasiga qadar botib ketadigan botqoqlikka aylangan edi. Hojimurod va uning navkarlari bir qadar quruqroq joy toparmiz, deb o'ylashib, goh o'ng, goh so'l tomonga yo'l olishib, nari-beri borib kela boshladilar, lekin ular tushib qolgan sholipoyani bir tekis suv bosib unda yurish amri mahol edi. Otlar xuddi shisha og'zidan po'kak sug'urib olgandagiga o'xshagan ovoz chiqarib, botqoqqa botib ketayotgan tuyoqlarini sug'urib olar va bir necha qadam yurib, hansirab, to'xtab qolishar edi.

Qattiq azobda uzoq urindilar, qorong'i tusha boshladi, ular esa hamoi daryoga yeta olganlari yo'q edi. Chap tomonda butalar o'sgan bir orolcha bor edi, Hojimurod shu butalar ichiga kirishga va u yerda qiynalgan otlarga dam berib, tongga qadar turishga qaror qildi. Hojimurod va uning navkarlari butalarning ichiga kirgach, otlaridan tushdilar va ularni tushovlab, o'tlashga qo'yib yubordilar. O'zlari esa yo'lga olingan non bilan pishloqlarini yeya boshladilar. Ilgari yog'du sochib turgan yangi oy tog' orqasiga botdi-da, atrof qorong'i tortib ketdi. Nuxada bulbullar g'oyat ko'p bo'lib, bu butazorda ham ikkitasi bor edi. Hojimurod o'z odamlari bilan butazorga kirib, shov-shuv qilgan vaqtlarida, bulbullar jim bo'ldilar. Lekin odamlar tingach, ular bir-birini chaqirishib, yana sayrasha ketdilar. Hojimurod tungi sharpalarga quloq solar ekan, beixtiyor bulbullarning xonishini tingladi. Ularning sayrashlari Hojimurodga bugun kechasi, suvga chiqqan vaqtda, G'amzat to'g'risida eshitgan qo'shiqni xotirlatdi. U hozir minut sayin G'amzat tushgan ahvolga tushishi mumkin edi. U, shunday bo'ladi ham, deb o'yladi va birdan jiddiylashdi. U chakmonini yozib, namoz o'qidi. Namozni endigina tugatgan ham ediki, butazorga yaqinlashib kelayotgan tovushlar eshitildi. Bu tovushlar botqoqni chalpillatib bosib kelayotgan otlarning tuyoq tovushlari edi. Ko'zi o'tkir Xon-Magoma butazorning bir chekkasiga yugurib chiqib, qorong'ilikda otliq va yayov kishilariing qora sharpalariga tikildi. Hanafiy boshqa tarafdin yana shunday to'dani ko'rdi. Bu, o'z militsionerlari bilan kelayotgan, uyezd harbiy boshlig'i Karganov edi.

Hojimurod, "Mayli, G'amzatga o'xshab urishamiz", deb o'yladi.

Trevoga berilgandan so'ng Karganov yuztacha militsioner va kazaklar bilan birga Hojimurodning orqasidan quvib ketdi, lekin hech qayerdan na uni, na uning izini topa olmadi. Karganov umidsizlanib qaytib ketayotib, kechga yaqin bir cholni uchratib qoldi. Karganov choldan, oltita otliqni ko'rmadingmi, deb so'radi. Chol, ko'rdim, deb javob berdi. U, oltita otliqning sholipoya ichida aylanib yurib, so'ng butalar ichiga kirganini aytdi. Karganov cholni olib, orqaga qaytdi va tushovlangan otlarni ko'rib, Hojimurodning shu yerda ekaniga ishondi va kechasi butazorlari o'rab oldida, uni yo tirik, yo o'lik qo'lga tushirish uchun tong otishini kuta boshladi.

Hojimurod, qurshovda qolganini anglab, butazorning o'rtasidagi zovurni shig'alab qaradi va shu zovurga tushib olib, so'nggi o'q va so'nggi kuch qolguncha otishmoqqa qaror qildi. U bu fikrni o'z sheriklariga aytdi va ularga zovur atrofiga to'siq qilishni buyurdi.

Navkarlar shu zamoniyoq shox qirqishga, xanjarlari bilan yerni qazishga va zovurning atrofiga tuproq uyishga kirishdilar.

Hojimurod ular bilan birga ishlardi.

Tong yorishi bilanoq, militsionerlarning yuzboshisi butazorning yoniga kelib:

- Hoy, Hojimurod, taslim bo'!! Biz ko'pmiz, senlar ozsizlar,- deb qichqirdi.

Bu so'zga javoban zovur ichidan tutun ko'rindi, miltiq tarsilladi, otilgan o'q militsionerning otiga borib tegdi, militsionerning oti hurkib ketdi, so'ng yiqila boshladi. Buning orqasidan butazorning qirg'og'ida turishgan militsionerlar miltiqlarini qarsillatib ota boshladilar, ularning o'qlari chinqirib, g'uvullab va shoxlarni titib o'tib, zovur atrofidagi to'siqqa kelib tega boshladi, lekin to'siqning orqasida o'tirgai kishilarga tegmadi. Faqat Gamzaloning chekkaga chiqib ketgan otini boshidan yarador qildi. Ot yiqilmadi, lekin tushovini uzib, butazorni shitirlatib, boshqa otlarning yoniga tashlandi va yosh ko'katni qonga bo'yab, surkana boshladi. Hojimurod va uning kishilari faqat militsionerlardan biror kishi oldinga qarab tashlangan vaqtdagina o'q uzar va mo'ljalidan juda kam yangilishar edilar, militsionerlardan uch kishi yarador bo'ldi, militsionerlar Hojimurod ham uning odamlariga tashlanishga jur'at qilish u yoqda tursin, borgan sari ulardan uzoqlashar va faqat uzoqdan poylamasdan otardilar.

Jang shu taxlitda bir soatdan ortiqroq davom etdi. Yangidan kelgan katta guruhning qiyqirig'i eshitilgan vaqtda, quyosh daraxtlarning yarmiga qadar ko'tarilib qolgan va Hojimurod otlarga minib, daryoga qarab o'tib ketish haqida o'ylanmoqda edi. Bu qiyqirganlar o'z kishilari bilan kelishgai mextulinlik Hoji og'a edi. Ular ikki yuz kishi edi. Hoji og'a bir vaqtlar Hojimurodning do'sti bo'lgan, u bilan birga tog'da yashagan, ammo keyin ruslarga o'tib ketgan edi, Hojimurodga dushman bo'lgan kishining o'g'li

This is not registered version of TotalDocConverter

Ahmadjonning boshlangan. Hojiga ham o'shirdi. Qarganovga o'xshab, Hojimurodga taslim bo'l, deb baqirishdan boshladi, lekin Hojimurod bu safar ham avvalgi safardagiga o'xshash o'q uzib javob berdi.

- Qilichlaringizni olingiz, yigitlar - deb qichqirdi Hoji og'a o'z qilichini qo'lga olib, shundan so'ng qiyqiriq bilan butalarga qarab tashlangan yuzlab kishining tovushi eshitildi.

Militsionerlar butalarning ichiga chopib kirdilar, zovur ichidan oldinma-keyin bir qancha o'q ovozi eshitildi. Uch kishi yiqildi, shundan keyin hujum qiluvchilar butazorning chetida to'xtab, o'q uza boshladilar. Ular bir butadan ikkinchi butaga chopib o'tib, borgan sari zovurga yaqinlashib kelishmoqda edilar. Ba'zi birlari butadan chopib o'tib ulgurar, ba'zilari esa Hojimurod va uning odamlarining o'qiga duch kelar edilar. Hojimurod sira xatosiz urardi, xuddi shunday Gamzalo ham o'qni juda oz bekorga ketkizar va har safar o'qi nishonga tekkanini ko'rganda, shodlanib qichqirar edi. Qurbon zovurning chekkasida o'tirar va hadeb "Lo iloho illolo"ni o'qib, shoshilmasdan otar, ammo kam tekkizar edi. Eldor esa, dushmanga xanjar bilan tashlanish istagidan butun tanasi bilan titrar va to'xtovsiz Hojimurodga aylanib qarar ham to'siqdan boshini chiqarib, tez-tez va qanday to'g'ri kelsa shunday o'q uzar edi. Hanafiy yenglarini shimarib, bu yerda ham dastyorlik qilardi. U, o'ziga Hojimurod va Qurbon tarafidan uzatilib turilgan miltiqlarni o'qlar - moylangan latta o'ralgan temir sumba bilan miltiq ichiga astoydil joylar va xaltachadan quruq dori olib, miltiqning tepki chuqurchasiga separ edi. Xon-Magoma bo'lsa, boshqalarga o'xshab, zovur ichida o'tirmas, balki zovurdan otlarning yoniga chopib borar, ularni xavfsizroq yerlarga haydab qo'yar va to'xtovsiz qichqirar va tirgovichsiz miltig'ini qo'lga ko'tarib turib otar edi. Eng avval uni yarador qildilar. O'q uning bo'yniga tegdi va qon tupurib, so'kinib orqasi bilan yerga o'tirib qoldi. Undan keyin Hojimurod yarador bo'ldi. O'q uning yelkasidan teshib o'tdi. Hojimurod kamzulidan paxta olib, yarasiga tiqdi, otishni davom ettirdi.

- Qilich bilan hujum qilaylik,- dedi Eldor uchinchi marta.

U, dushmanga tashlanishga tayyor bo'lib, to'siqdan boshini chiqardi, lekin shu minutning o'zidayoq unga o'q kelib tegdi, Eldor gandraklab Hojimurodning oyog'iga chalqancha yiqildi. Hojimurod unga yalt etib qaradi. Chiroyli qo'y ko'zlar tikilib va jiddiy bir ravishda Hojimurodga boqmoqda edi. Bolalarnikiga o'xshagan, ustki labi cho'chchayib og'zi ochilmasdan dirillamoqda edi.

Hojimurod uning ostidan oyog'ini chiqarib oldi-da, dushmanni mo'ljalga olishda davom etdi, Hanafiy o'ldirilgan Eldor ustiga egildi va uning cherkaskasidan otilmagan o'qlarni ola boshladi. Qurbon bu orada, miltig'ini sekin o'qlab va dushmanni mo'ljalga olib hamon kalima keltirardi.

Dushmanlar qiyqiriq va suron bilan butadan-butaga chopib o'tishib, borgan sari yaqin siljimoqda edilar. Yana bir o'q kelib Hojimurodning chap biqiniga tegdi. U zovurga yotib oldi-da, kamzulidan bir parcha paxta sug'urib, yarasiga tiqdi. Biqinidagi jarohat qattiq jarohat bo'lib, Hojimurod o'lishini sezdi, Xotiralar va tasvirlar haddan tashqari tezlik bilan birma-bir uning xayolidan o'tdilar. U hali o'z qarshisida bir qo'li bilan kesilib tushgan yuzini ushlagan, bir qo'lida xanjar tutgan holda dushmanga tashlanayotgan pahlavon Abununsalxopni ko'rar, hali oq, ayyor yuzli chol Voronsovni ko'rar, uning muloyim tovushini eshitar, hali o'g'li Yusufning, hali xotini Sofiatning, hali dushmani bo'lgan, rangsiz, sariq soqolli, xumor ko'zli Shomilni ko'rar edi.

Bu xotiralarning hammasi ham unda hech qandan tuyg'u: na achinish, na g'azab va na qanday bo'lmasin, biror istak uyg'otmasdan, uning xayolidan uchib o'tdilar. Bularning hammasi uning hayotida boshlangan narsaga nisbatan juda ahamiyatsiz bo'lib tuyuldi. U, eng so'nggi kuchini yig'di, zovurdan ko'tarildi va chopib kelayotgan kishini to'pponchadan o'q otib yiqitdi, keyin zovurdan tamom chiqdi va og'ir oqsoqlanib, xanjar bilan to'ppa-to'g'ri dushmanga qarshi ketdi. Bir qancha o'q otildi, u gandraklab yiqildi. Bir qancha militsionerlar g'olibona qiyqiriq bilan yiqilgan jasadga tashlandi. Lekin ularga o'lgan bo'lib ko'ringan tana birdan qimirlay boshladi. Avvalo papaxsiz qonli taqir boshi, keyin tanasi ko'tarildi, so'ngra daraxtni ushlab, tamom ko'tarildi. U shu qadar qo'rqinchli bo'lib ko'rindiki, uning yoniga chopib kelayotgan odamlar to'satdan to'xtab qoldilar. Ammo u birdan tebranib, daraxtdan nari gandraklab ketdi-da, xuddi tagidan chopilgan tikanak singari cho'zilib borib, yuztuban yiqildi.

U qimirlamasdi-yu, lekin atrofidagi narsalarni sezardi. Uning oldiga eng avval yetib kelgan Hoji og'a xanjari bilan boshiga urgan paytda, Hojimurodga bolg'a bilan urayotganday tuyuldi va u, bu ishni kim ham, nima ham qilayotganini anglay olmadi. Bu paytda u jon bermoqda edi. Shundan so'ng u ortiq hech narsa sezmad, dushmanlar esa endi yanada vahshiylashib uni toptar va tilkalar edilar. Hoji og'a jasadning ustiga chiqdi-da, ikki marta xanjar urib boshini tanasidan judo qildi, so'ng chuvagini qonga bulg'amaslik uchun oyog'ining uchida avaylab kallani nariga tepib yubordi. Hojimurodning bo'g'zidan qizil qon, boshidan qora qon tirqirab chiqib, ko'katlarni bo'yadi.

Qarganov ham, Hoji og'a ham, Ahmadjon ham, butun militsionerlar ham xuddi hayvon o'ldirgan ovchi singari Hojimurod va uning halok bo'lgan navkarlari tepasiga to'planishdilar. Hanafiy, Qurbon va Gamzaloni bog'lab qo'yishdi, so'ng butalar orasida turib qolgan porox tutunlari ichida shang'illab gapirishib, o'z g'alabalarining kayfini surishardi.

Otishma vaqtda jimib qolgan bulbullar, avval biri yaqindan, so'ng ikkinchisi uzoqdan yana sayrasha ketishdi.

Haydalgan dala o'rtasidagi yapchilgan tikanak menga ana shu o'limni eslatdi.